

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TAHLIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

G`OFUROVA MAVLUDA BOTIRJON QIZI

**JEK LONDON HIKOYALARINI INGLIZ TILIDAN O`ZBEK
TILIGA TARJIMA QILISHMUAMMOLARI**

(qo`lyozma huquqida)

**5A120101 – Adabiyotshunoslik (Tillar va tadqiqot yo`nalishlari
bo`yicha)**

**Magistr akademik darajasini olish uchun
taqdim etilgan dissertatsiya**

A V T O R E F E R A T I

Namangan – 2014

Dissertatsiya Namangan Davlat universiteti Filologiya fakulteti Ingliz tili va leksika stilistika kafedrası da bajarilgan.

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi,
dotsent Karimov Raximjon

Taqrizchilar: filologiya fanlari nomzodi
Zohidjon Sodiqov

Ziyayev Avazjon
Qo'qon Davlat Pedagogika Instituti
Filologiya fanlari nomzodi, ingliz tili adabiyoti va
ta'limi kafedra mudiri

Himoya 2014 yil _____oyining ____kuni soat____da Namangan Davlat universiteti Filologiya fakulteti Ingliz tili va leksika stilistika kafedrası DAK xay`ati yig`ilishida o`tkaziladi.

Dissertatsiya bilan Namangan Davlat universiteti kutubhonasida kafedrasida tanishish mumkin.

Davlat attestatsiya xay`ati kotibi:

X.Muxammadieva

JEK LONDON HIKOYALARINI INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH MUAMMOLARI

Mudarija

KIRISH.....	2
I BOB. JEK LONDON ASARLARINING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI.....	6
I.1. Jek London hayotiy va ijodiy yo'liga bir nazar.....	6
I.2. Jek London hikoyalarida inson va kishilik jamiyati muammolari tematikasi.....	14
I.4. Badiiy asarlar tarjimasi, uning vazifa va muammolari.....	21
II BOB. JEK LONDON XIKOYALARI TILINING LEKSIK JIHATLARI.	33
II.1. Jek London hikoyalari tarjimalarida kishi ismlari, geografik nomlar va milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi so‘zlarining berilishi.....	33
II.2. Jek London hikoyalardagi o‘lchov birliklar va frazeologik iboralarining berilishi haqida.....	40
II.3. Jek London adabiy mahoratida sintaktik figuralarning o'rni.....	48
III BOB. JEK LONDON HIKOYALARINING INGLIZ TILIDAN O‘ZBEK TILIGA O‘GIRILGAN TARJIMALARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	57
III.1. Jek London hikoyalarida badiiy til vositalari va ularning tarjimasi.....	57
III.2. Hikoyalardagi o‘xshatishlar tarjimasi masalasi.....	66
III. 3. Hikoyalar tarjimasidagi ba’zi bir nomutanosibliklar.....	69
XULOSA	74
SUMMARY.....	77
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	81

K I R I S H

Prezidentimizning "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida ta'kidlanganidek "Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatimizni safarbar etayotgan ekanmiz bu borada ma'naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz beqiyos kasb etadi"¹. Muhtaram prezidentimiz yoshlarni har tomonlama yetuk mutaxassis bo'lib yetishishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib bermoqda. 2010 yilni Prezidentimiz tomonidan "Barkamol avlod yili" deb e'lon qilinishi fikrimizni dalilidir.

Tarjima adabiyoti davrimizda, xususan shu ko'plarda qanday ahamiyat kasb etayotgani, uning hayotimizga, odamlarning ma'naviy dunyosiga qay tariqa kirib borayotgani, yashash va fikrlashlarida ularga ne chog'lik yordam berayotganini yaxshi bilamiz. Jahon yozuvchilarining go'zal asarlari tarjima sharofati bilan o'zbek tilidagi adabiyot karvoniga kelib qo'shildilar, o'zbek adabiyotining namunalari yonidan munosib o'rin oldilar. Bular hammasi birgalikda madaniyatning muhim bo'g'ini va ajralmas qismini tashkil etishi shubhasizdir.

Mavzuning dolzarbligi. XX asrning urtalaridagi tarjimalar vositachi til, ya'ni rus tili orqali amalga oshirilgan. Jek Londonning hikoyalari yetuk tilshunos olim, professor Fattoh Abdullaev tomonidan 1956 yilda bevosita asl nusxa ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima kilingan. Mana shu hikoyalar tarjimasini biz magistrlik dissertatsiyamizga mavzu qilib oldik.

Tarjimashunoslikning tarixi mobaynida to'plangan amaliy-nazariy qarashlar tarjimachilikning samarasi uchun xizmat qiladi. Magistrlik dissertatsiyasining dolzarbligi shundaki Jek Londonning "Hayotga muhabbat" va "Meksikalik" hikoyalarini ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girilgan tarjimalarida kishi ismlari, geografik nomlar va milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi so'z va hikoyalarda uchraydigan frazeologik iboralarning tarjimada berilishi haqida fikrlar tahlil qilingan.

¹ Ислом Каримов. "Юксак маънавият енгилмас куч". Тошкент. Маънавият. 2008 йил.

Ishdan ko‘zlangan maqsad Jek Londonning "Hayotga muhabbat" va "Meksikalik" hikoyalarini ingliz tilidan o‘zbek tiliga o‘girilgan tarjimalarida kishi ismlari, geografik nomlar va milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi so‘zlarning berilishi va shuningdek hikoyalarda uchraydigan frazeologik tarjimalarni qiyosiy tahlil qilishni tadqiqot o‘z oldi maqsad qilib olgan.

Magistrlik dissertatsiyaning tadqiqot ob’ekti uchun tanlangan mavzu asosiga vaqt sinovidan o‘tgan tarjima namunalari zamir qilib olinishi ,tabiiy bo‘lib, mavzuning dolzarbligini ta’kidlaydi. Shu bilan birga F.Abdullaevning tarjima ijodi birinchi bor tadqiq etilayotgani bilan ham ilmiy yangilikdir.

Magistrlik dissertatsiyaning yozilishidan maksad J.London hikoyalarining asl nusxadagi matnini uning o‘zbek tilidagi tarjimasi bilan qiyoslash, tahlil qilish hamda tarjimadagi yutuq va ba’zi bir kamchiliklarni ko‘rsatib berishga harakat qilishdir.

Magistrlik dissertatsiyasini ilmiy yangiligi shundaki,

uni yozish jarayonida 3 ta turli soha bilan to‘qnash kelinadi. Bular: tilshunoslik, tarjima kilish muammosi hamda uslubiyatdir. Bu borada ilmiy ishning bayoni uchun - qissiy-tasviriy tahlil qilish uslubi tanlandi. Bu o‘zida asl nusxa va tarjima matnlarini qiyoslashni aks ettiradi:

a) o‘zbekcha tarjima matnining ingliz tilidagi asl nusxasiga muqobilligiga erishganligi nuqtai nazaridan qiyoslash;

b) leksikani (so‘zlarni) tilning grammatik imkoniyatlari darajasida izoxlash.

Ilmiy ishning vazifasi tadqiqot davomida asl nusxa matni bilan tarjima matnini qiyoslash jarayonida:

a) muqobil tomonlarni;

b) farq qiluvchi tomonlarni; .,

v) tarjimadagi ba’zi bir nomutanosibliklarni;

g) tarjimaning muvaffaqiyatlarini va qadr-qimmatini aniqlash, tasniflash, tahlil qilishdan iborat.

O‘zbekistonimizning mustaqil davlat sifatida jaxon siyosiy-iqtisodiy maydonida chiqishi jarayonidagi muhim voqealar turli ijtimoiy jabhalarning

rivojlanishi, qayta tashkil etilishi ko‘lamida kechmoqda. Hukumatimizning ichki ma’naviyat-ma’rifat sohasidagi siyosati, Prezidentimiz Islom Karimovning ma’naviy qadriyatlar va milliy o‘zlikni anglashning tiklash mavzusiga doir fikrlarni ifoda etuvchi asarlari mazkur tadqiqotning metodologik asosini tashkiletadi.²

Magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida biz tarjimashunoslik va tilshunoslik sohalarida fundamental tadqiqotlarni amalga oshirgan yetuk olimlarning (foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatiga qaralsin) ilmiy asar va maqolalarini ishimizning nazariy asosi qilib oldik, ularga suyanan holda dissertatsiyamizning mazmun va mohiyatini yoritib berishga harakat qilamiz.

Dissertatsiyaning ilmiy amaliy ahamiyati:

Umuman, tarjima deganda bir tilda kayta yaratilish tushuniladi. Shu ma’noda xalqlar, millatlararo aloqa vositasi hisoblanadi. Yaxshi tarjimon dastavval yaxshi kitobxon bo‘lishi lozim. Tarjimon voqelikni asarda ko‘rsatilgan darajada bilsagina badiiy chin haqqoniy tarjima yarata oladi.

Adabiyotimiz shu jihatdan kuzatsak, har qaysi ijodkor an’anaviy tasvirlarni mutlaqo yangi badiiy timsol va lavhalar vositasida betakror bir tarzda mujassamlashtirish yo‘lida borishganini kuzatamiz.

Dissertatsiya tarjimashunoslik va qiyosiy adabiyotshunoslik bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlardan olib o‘quv yurtlarida talabalar uchun tarjima nazariyasi va amaliyotidan maxsus kurslarda akademik litsey va pedagogik kollejlarda foydalanish mumkin.

Dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi:

Ilmiy ishimiz an’anaviy kirish, uchta bob, xulosa, summary hamda foydalanilgan adabiyotlar ruyxatidan iborat.

"Kirish" qismida mavzuning dolzarbligi; ilmiy yangiligi, nazariy va metodologik asosi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, nazariy va amaliy ahamiyati va tuzilishi haqida ma’lumot beriladi.

² Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. Т.: Ўзбекистан, 1997, 137-151.

I. Bobda nazariy qarashlar e'tirof etilib, unda tarjima tarixi, tushunchasi, mazmuni va mohiyati hamda muammolari to'g'risida so'z boradi.

II. Bobda J.London hikoyalarining tili leksik jihatdan tadqiq etiladi.

III. Bobda J.London hikoyalarining o'zbek tiliga tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari tahlil etiladi.

Magistrlik dissertatsiyasining so'nggida tadqiqot davomida yuzaga kelgan yakuniy xulosalar va Summary beriladi.

Adabiyotlar ro'yxati magistrlik dissertatsiyasini yozish jarayonida foydalanilgan adabiyotlarni o'zida jamlaydi.

I BOB. JEK LONDON ASARLARINING JAHON ADABIYOTIDA TUTGAN O'RNI

1.1. Jek London hayotiy va ijodiy yo'liga bir nazar.

Shimoliy Amerikalik yozuvchi Jek London kambag'allashgan fermer oilasida dunyoga keldi. Yozuvchining yoshlik yillari qiyinchiliklar va sarguzashtlarga boy bo'ldi. Xali maktab yillaridayoq u gazeta sotish bilan shug'ullanadi, keyinchalik konservalash fabrikasida ishlaydi; jismoniy og'ir mehnat tezda fabrikadan ketishga majbur qiladi, endi u ustrisa qaroqchiligi bilan shug'ullana boshlaydi. Londonning abjirligi va jasurligi xukumat idoralari nazariga tushadi. Biroq taklif qilingan polisiya agenti mansabi Jekka yoqmasdi va shuning uchun u 1893 yilda Yaponiyaga dengizchi sifatida yo'l oladi. Qaytib kelib yana bir necha joylarda ishlaydi. Londonning birinchi adabiy tajribalari aynan ana shu yillarga to'g'ri keladi: u kichik hikoyalar yoza boshlaydi. Va hattoki hikoyalaridan biri uchun bir jurnaldan mukofot olishga ham sazovor bo'ladi. U g'ayratli, kamdan-kam uchraydigan kuchga ega inson edi. Taqdir uni siylamagan esa-da, o'z talantini yuzaga chiqarish uchun London bor kuch va g'ayratini sarfladi. 1894 yilda ishsizlar armiyasiga qo'shiladi ("Kelli Anniyasi"), u tarqalib ketgach, Amerika Qo'shma Shtatlari bo'ylab darbadar kezadi, xattoki turmada o'tirib chiqadi. Qamoq, va unga qarshi qo'zhatilgan sud jarayoni, darbadarlikda o'tkazgan yillari Londonning kapitalizmning sinfiy mohiyatini tushunib yetishida kuchli rol o'ynaydi. Endi London o'qiy boshlaydi, u yozuvchilik uslubi ustida sabot bilan ishlaydi, hikoyalar o'qiydi, jurnallar mutoala qiladi, adabiy materiallar bilan jiddiy tanishib chiqadi. Falsafani o'rganadi. Uning dunyoqarashida G.Spenser, F.Nitsshe ta'limotining ta'siri katta bo'ldi. Adiblar Rudyard Kipling va Robert Stivensonni chuqur o'rgandi. Stivensondan mukammal shakl va ma'nolilikni o'rgangan bo'lsa, Kiplingdan inson ruhiyati va qiyofasini tasvirlashni o'rganadi. Eng muhimi Jek London Stivensondan usti yaltiroq, ichi qaltiroh ijod qilmaslikni o'rgandi. Biroq oilaviy ahvolning og'irlashishi sabab yana jismoniy mehnat bilan shug'ullanishga to'g'ri keladi - u kir yuvish sexida tinimsiz va og'ir mehnat qilishga majbur bo'ladi. 1897 yilda London oltin izlab Klondaykka yo'l oladi; shu yerda u o'zini mashhur yozuvchilar qatoriga

ko'targan mashhur shimol haqidagi hikoyalar turkumini yaratadi. Endi u professional yozuvchiga aylangan edi.

1902 yilda Jek London muxbir sifatida Angliyaga safar qiladi va Londonning past tabaqasiga mansub axli bilan yaqindan tanishadi; ana shu safari natijasi o'laroq "Past tabaqa odamlari" asari dunyoga keladi (People of the Abyss). 1907 yilda dunyo bo'ylab sayohat qiladi. Bu paytga kelib qalam xaqqlaridan olingan daromadlari sabab endi London o'ziga to'h insonga aylangan edi.

London 16 yillik adabiy faoliyati davomida 19 roman, 18 to'plam (152 hikoya), 3 pesa, 8 ta avtobiografik hamda publisistik xarakterdagi kitob yaratdi. Ko'pgina hikoya to'plamlari, "Qor qizi" romani (1902)ni Shimol mavzusiga bag'ishladi. Uning alohida to'plam sifatida bosilib chiqqan birinchi asarlari bu "Shimol odisseyasi" [1900], "Uning otalari xudosi " [1901], "Ayoq bolalari " [1902] novellalari to'plami va "Qor qizi " [1902] romani edi. Bu asarlarda sarguzashtlar, uzoq shimolda oltin izlagan amerikaliklarning hayoti yoritib berilgan. Bu asarlarning kuchli, matonatli, erksevar qahramonlari murakkab daqiqalarda ham zo'r irodasi, qobiliyati bilan jamiyat va tabiatning dahshatli kuchlari ustidan g'alaba qozonadi. Adib bir guruh hikoyalari ("Ayol mardligi", 1900; "Oqsoqollar kengashi", 1902; "Qish haqida qissa", 1904 va b.)da mehnatsevar, jasur indeeslarning mardligi, xalq manfaati yo'lidagi fidoyiligi, kurashini sharafladi. London ijodining muvaffaqiyatlariga sabab Alyaska bo'ylab qilgan sayohatlarida orttirgan hayotiy tajriba va taassurotlaridir. Jek Londondan oldin ham, undan keyin ham ijod qilgan ko'plab yozuvchilar o'tishgan. Biroq ko'pchilik adiblarning asarlari allaqachon unut bo'ldi. Va lekin Londonning asarlari hozirgacha o'z o'quvchilarini to'lqinlantirmoqda. Asarlarining hayotiyligiga sabab uning haqiqatga o'ziga xos qarashlari va dunyoni o'ziga xos tushunishidir. London asarlaridagi dovyuraklik, shijoatkorlik, haqiqiy mehnat, og'ir kurash o'quvchini o'ziga tortadi. Londonga qadar Amerika qo'shma Shtatlarida birorta yozuvchi insonning imkoniyatlarini, uning ruhiy va jismoniy kuchlarini, tabiat va ijtimoiy hayot bilan qattiq kurashini bunchalik adabiy yoritib bermagan edi.

Tabiatni bo'ysundirgan qahramon haqidagi "Hayotga muhabbat" (1906)

hikoyasi esa Londonning shuxratiga yana shuxrat qo'shdi. Amerikacha hayot, ishchi va dehqonlarning og'ir qismati "Sakramento sohillarida" (1904), "Ish tashlash" (1906), "Yot" (1907), "Bir parcha go'sht" (1909) hikoyaiari, "O'yin" povesti (1905) va boshqa asarlarida aks etdi. Mehnatkash ommaning monopolistik kapital - "temir qadam"ga harshi kurashi, qurolli qo'zg'oloni "Temir tovon" romani (1907)ning asosiy mavzuini tashkil etdi. "Temir tovon" uning va 20-asr amerika adabiyotining eng sara asarlaridan biri bo'lib qoldi. Yozuvchining "Martin Iden" roman-biografiyasi (1909) mashhur realistik asarlar safidan o'rin oldi. London dengiz mavzuida ham qator asarlar yaratdi. "Dengiz bo'risi" romani (1904), "Janubiy dengiz hikoyaiari" (1911) shular jumlasidandir. Ijtimoiy mavzuga qiziqish London umrining oxirigacha saqlanib qoladi. "Katta uyning kichik bekasi" asarida Londonning go'zal va yetuk inson haqidagi orzu va o'ylari o'z ifodasini topgan."

Jek London asarlarida o'z ifodasini topgan gumanizm g'oyalari uning badiiy dunyosi diqqat markazida dunyo tabiati va sivilizatsiyasi o'rtasidagi bog'lovchi vazifasini o'tovsi narsa bu Inson ekani bilan izohlanishi mumkin. Yozuvchi o'z asarlarida tarixan shakllanib kelgan va o'ziga zamondosh bo'lgan insonlarning tipik, o'ziga xos xususiyatlarini ko'ra bilgan va albatta yorita bilgan.

Jek London ijodida "inson - tabiat" mummosi markaziy muammo hisoblanadi va bu xol uning butun ijodiy yo'lida (1900-1916 yy) turli xil janrlardagi asarlarida kuzatiladi. Yozuvchi ijodiga ana shu nuqtai nazardan yondoshish uning badiiy dunyosining muhim tomonlarini oydinlashtirishga va 19-20-asr chet el adabiyotida Londonning tutgan o'rnini aniqlashtirishga yordam beradi. Poetik vositalarning ulkan arsenali tufayli, xususan, asarning g'oyasini ochib berishda analiz va sintez metodidan keng foydalanish, g'oya va strukturani tashkil etuvchi obrazlarning maxsus tizimi; xronotopning muhim xususiyatlari; asarda muallif, hikoyachi va qahramonlarning funktsiyalari; obrazlarning aniq bir tizimi va uning ompozitsiyadagi vazifasi; allegoriyalar, simvollar, epitet va metaforalarning roli; kinoya, qochirim va yumorlarga murojaat qilish; Bibliyadan olingan, xindular mifologiyalaridan olingan tarixiy voqealar va mifologik

obrazlarga murojaat qilishlar tufayli Jek London ijodida "inson - tabiat" mummosining keng yoritib berilishiga erishiladi.

Jek Londonning shimol sikliga oid o'nlab hikoyalarini haqiqiy professional yozuvchi qalamiga mansub jahon adabiyoti durdonalari qatoriga qo'shish mumkin. Bu hikoyalarning har bir ulkan bir qiziqish bilan o'qilar ekan, ular orqali ijodkorning yangi va yangi qirralarini ochish mumkin. O'z hikoyalarida ("Oq sukunat", "Tabiatga muhabbat", "Ajdodlar nidosi") London Shimol tadqiqotchilarining o'z yo'llarida duch kelgan xavf-xatarlar haqida hikoya qiladi. Bu insonlar tabiat ustidan g'alaba qozonish uchun ne-ne matonat va sabot ko'rsatishlariga to'g'ri keladi. Tabiat osonlikcha bo'y bermaydi. Tabiat bilan yakkama-yakka olishuvga bel bog'lagan bunday insonlarning hayoti xuddi "Olov yoqish" hikoyasidagi kabi o'lim bilan ham yakunlanishi mumkin.

Shimolda hukm surgan tabiat va jamiyat qonun-qoidalarini buzganlarni hech ham ayamaydi. U yerning qonuni o'zgacha, o'ziga xos (Sitka Charli o'z do'stlaridan yashirinchasi un yeb qo'ygan va bemor odamga yordam berishdan bosh tortganlari uchun o'z qabiladoshlarini ayovsiz jazolaydi). Bu axloqiy qonun-qoidalar insonparvarlik xislari bilan yo'g'rilgan, zero u kuchsizlar tarafmisi oladi va uning qonunlari insonlar o'zaro aloqalarida haqgo'ylikni, haqiqatni himoya qiladi. Bu kabi qonun-qoidalamining yaratuvchilari va unga amal qiluvchilar Sitka Charli kabi xindu yoki oqtanli Melmut Kid kabi insonlar ediki, muallif bular haqida "xattoki eng quturgan itlar ham unga ishonar va eng tosh qotgan, qaxri qattiq ko'ngillar ham uning oldida yumshar, ...xuddi gullar quyoshni quchoq ochib qarshi olganidek, har qanday ko'ngil uning oldida yumshar edi" deb yozadi.

Jek London qahramonlari oltin izlovchilar va Shimol xindulari, ular yashagan shart-sharoitlar esa g'ayrioddiy edi. Yozuvchining ilk ijodiga xos bo'lgan "Shimol Odisseyasi" hikoyasida xindu Naas o'z sevgilisi va uni o'g'irlab ketgan oqtanlini qidirib dunyoning narigi chetigacha boradi: Sibir qirg'oqlariga, Angliyaga, keyin boshqa mamlakatlarga, va nihoyat Alyaskada u o'z dushmanini topadi va undan qasos oladi. Biroq qidirib kelgani, uni deya azoblar chekkani sevgilisi esa uni rad etadi va uni yana azoblarga qoldirib, hayoti mazmunidan ayirib, eri bilan

birga o'ladi. Bu hikoyada romantika va ekzotika mavjud. Bosh qahramonlar kuchli va vaqt deb atalmish tushunchaga bo'yin bermaydigan insonlar. O'z xis-tuyg'ularidan voz kechishdan ko'ra ularga o'lim afzal. Ana shu kabi xis-tuyg'ularning ifodalanishi hikoyani yuksaklikka olib chiqadi.

Yozuvchi o'z ijodida ko'pincha o'zi yovvoyi Alyaskada uchratgan omadsiz kishilar taqdiriga murojaat qiladi. Axir Klondayk oltin vasvasasi bor-yo'g'i sanoqli kishilargagina baxt keltirgani, minglab kishilaming esa yostig'ini quritganiga shaxsan guvoh bo'lgan. Shuning uchun uning asarlari fojiali yakunlarga boy. Yiqilgan daraxt Meysonning umurtqasini sindiradi ("Oq sukunat"), qaxraton sovuqdan yolg'iz yo'lovchi halok bo'ladi ("Olov yoqish").

Amerika adabiyotida keng tarqalgan pul va boylik, insonlarga xos manfaatparastlik mavzusi J.London ijodida o'zgacha ko'rinish oladi. Garchand inson uchun zarur narsa hisoblansa-da, oltin hayot mazmunini tashkil eta olmasligi ayon bo'ladi. London insondagi mardlik, olijanoblik, do'stlik, haqgo'ylik va insonparvarlik xislatlarini oltindan-da ustun qo'yadi. "Bir kunlik qo'nalg'a" hikoyasi qahramoni Messner sobiq xotinining do'stidan badal sifatida olingan oltinlarni daryoga oqizadi: insoniy qadr-qimmatni oltindan ustun qo'yadi. Jek London xindu va eskimoslarga katta xayrixoxlik bilan qaraydi. Uning hikoyalarida bu insonlar oq tanlilardan kam bo'lmagan ijobiy qahramonlardir. London ularning arxaik yashash tarzlarini, Shimol aborijenlarining samimiy va tabiiy xis-tuyg'ularini, oddiy, sodda fikrlash tarzlarini hurmat bilan tasvirlaydi. "Giperborey ichimligi" hikoyasida xindu qabilalarining oq tanli ishbilarmonlar va epchil avantyuristlar tomonidan talon-taroj qilinishini tasvirlaydi.

Jek London nazdida mayda chuyda egoistik qarashlardan o'zini yuqori tuta oladigan, bir-birini qo'llab-quvvatlashga tayyor, mehnatsevar insonlarga yovvoyi tabiat bilan murosasiz jangda g'alaba qozonishlari mumkin. Londonning tabiat tasvirlari betakror, zero u butun mamlakat bo'ylab, shimoliy kengliklarda, yovvoyi dunyoquchog'ida yillab umrini o'tkazadi va, albatta, bu hayotiy tajribalar uning ijodiy faoliyatida qo'l keladi. Uning eng yaxshi asarlari nafaqat o'zining ishonarli qilib tasvirlangan mazmun va tematikasi, balki yozuvchining hayron qolarli

darajadagi stilistik mahorati tufayli mukammal asarlar qatoridan joy olgan. Shoshilmay, batafsil hikoya qilish fikrni ixcham va lo'nda ifodalash bilan qo'shilib o'ziga xoslikni hosil etadi. Qisqa, intonatsion jihatdan bir maromdagi, og'ir-vazmin iboralar Londonga xos bo'lgan uslubdir. U butun e'tiborni kam sonli va lekin kuchli ta'sir etuvchi detallarga qaratadi. "Ajdodlar nidosi" povestida personajlar juda ko'p. London ularning tasvirida ko'p to'xtalmaydi, bu obrazlar o'zlarining bosh qahramon - Bek laqabli it obraziga munosabatlari orqali xotiramizda saqlanib qoladi. Sudya Miller ham, itni o'g'irlab ketgan Manuel ham, Kanada hukumati kureri Perro va uning yordamchisi Fransua ham, va bir to'da oltin izlovchilar - Charlz, Xel, Mercedeslarning hamma hammasi farosatsizlarcha ish tutadilar, ular Shimolga begonadirlar va shuning uchun ham omadsizlikka duchor bo'lishga hukm qilinganlar. Povestning jamiki syujet liniyasi, jamiki badiiy obrazlar va tasvirlar bir narsaga, ya'ni jasur va aqlli it Bek obrazini shakllantirish va yuzaga chiqarish uchun xizmat qiladi. Bek uchratgan turli xil insonlar va hayvonlar haqidagi hamma voqea va hikoyalar uning tabiatining u yoki bu tomonlarini ochib berishga va yoritishga xizmat qiladi. Torntonning o'limidan so'ng unga o'rganib qolgan Bek o'rmonga qochib ketadi: uni yovvoyi instinkt - ajdodlari nidosi chaqirardi. U bo'rilar galasiga qo'shiladi va raqiblar bilan daxshatli olishuvlardan so'ng sardorlik huquqini qo'lga kiritadi. Biroq mehribon va olijanob xo'jayiniga bo'lgan muhabbati Bekni Tornton halok bo'lgan joyga chorlaydi. Xo'jayinini sog'ingan yirtqich hayvon endi xadeganda o'z do'stlarini tashlab, vodiya kelaveradi. Uning alamli uvillashi mangu ketgan do'sti uchun chalingan motam kuyiga va cheksiz sadoqat ramziga o'xshar edi. Bek laqabli it taqdiri haqida hikoya qilarkan yozuvchi e'tiborini yovvoyi dunyo hayvonot olamida hukm suradigan bir qonunga qaratadi: bunda yooidirasan va qorning to'yadi yoki o'lasan va o'zgalarga yem bo'lasan. Yozuvchining fikricha, hayvonot olamining yana bir qonuni esa sharoitga moslashish qonunidir: bunda yangicha sharoitga o'zgalarga qaraganda tezroq ko'nika olganlarga yashab qola oladi, xolos. Bu qonuniar Londonga o'zi yashayotgan davr bilan hamoxangdek tuyuladi. Povest qahramoning yashash uchun olib borgan kurashlari orqali insonlarning burjuaziya dunyosidagi yashash

uchun kurashlari ifodalanadi. Xuddi kapitalistik jamiyat odamlari kabi kuchukcha Bek yashash uchun kurashda hayotning shafqatsiz qonunlarini tushunib yetadi va hayotiy tajribalar Bekni quyidagi xulosaga olib keladi: "Mana hayot qanday ekan! Unda haqiqat va halollikka o'rin yo'q. Kimda kim yiqildimi, tamom, u o'ladi. Demak, mahkam bo'lish kerak!"

Kompozitsion jihatdan ham povest mukammal yaratilgan. Unda hamma narsa o'lchovli, tasvirlashdan dialogga o'tishlar, dialoglardan portret tasvirlariga, epizodlardan epizodlarga o'tishlar - hamma-hammasi tabiiy ko'rinishda, voqealar rivoji bir-biriga bog'liq ravishda. Markaziy qahramon - Bek har tomonlama, chuqur va ishonil qilib tasvirlangan.

"Ajdodlar nidosi"dan ruxlangan London hayvonot olami haqida yana bir kitob yaratish haqida o'ylay boshlaydi. Bu "Oq So'yloqtish" asari edi. Bo'ri bolasi haqidagi bu roman Londonning hayvonot dunyosini naqadar yaqindan bilishi, ularning psixikasi, yurish-turishlari borasidagi ilmi naqadar kuchli ekanidan dalolat beradi. London bo'ri bolasining hayot bilan tanishish jarayonini, tajriba orttirishlari va o'y-fikrlarining rivojlanib borishini haqqoniy ko'rsata bilgan. Romanni o'qir ekan o'quvchi beixtiyor muallif qatori bosh qahramonni yoqtirib qoladi. Muallif hikoyaga baxtli yakun yasaydi, va og'ir va xavfli hayot kechirgan bo'rining yana o'z avlodlari bilan ko'rishganiga guvoh bo'lgan o'quvchi yengil tin oladi. Talantli yozuvchinng ijodiy tasavvuri orqali yaratilgan bu aqlli va qo'rqmas hayvon uzoq vaqt xotiramizda saqlanib qoladi.

Kompozitsiya jihatdan London roman voqealarini bosh qahramon atrofida shunday "tashkil etadi"ki, bu unga asardagi izchillikni ta'minlashga yordam beradi. U Oq So'yloqtishni tajriba orttirishning to'rtta bosqichidan olib o'tadi: bular hayvonot dunyosi, xindular, Smitning shafqatsiz dunyosi, va nihoyat, uning so'nggi xo'jayini Uidon Skott obrazida mujassamlashgan aql-idrok va muhabbat dunyosi. Bo'ri bolasi tabiat ato etgan kuch va sog'lomlik tufayli, shuningdek, London fikricha, atrof olam qonunlari bilan teng kuchli bo'lgan tushuncha - sharoitga tezda moslasha olishi tufayli tirik qoladi va yashashda davom etadi. Taqdir bo'ri bolasini Kulrang Bobr bilan uchrashtiradi, va yovuzlik va yaxshilik qonunlari bilan katta

bo'lgan Oq So'yloqtish birinchi bor ezgulik va yaxshilik degan tushunchalar ham borligiga guvoh bo'ladi. U bundayin xislatlarni insonlardan topadi. Inson - tirik mavjudotlar xo'jayini mavzusi butun roman bo'ylab xukm suradi. Yozuvchi aynan aql-idrok bilan o'matilgan adolatli, insoniy qonunlar insonni hayvonot dunyosidan ajratib, undan yuqori turishini ko'rsatadi. Avvaliga Oq So'yloqtishni uni butun tirik jonzo'tga dushmanlik kayfiyatida tarbiyalagan Smitning yovuzlik dunyosiga tashlagan yozuvchi keyinroq Smitning jamiki o'rgatgan narsalarining bekor ketganini, mehr-muhabbatning g'alabasini tasvirlaydi. O'ziga nisbatan mehribonlik bilan qilingan muomalalar bo'rini tabiatan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Endi u atrofga o'zgacha nazar bilan qaray boshlaydi. U yangi xo'jayiniga mehr qo'yadi, va bu mehr ruhini ko'taradi, uni dovyuraklikka chorlaydi. Yozuvchi Smit timsolidagi yovuzlik kuchlarini ezgulikning tuzatuvchi kuchiga qarama-qarshi qo'yadi.

Londonning fikricha, zo'ravonlik emas, balki kuchli insonparvarlik va insoniy aql-idrok mo'jizalar ko'rsatadi, xattoki bo'rini zabt eta oladi. Mexr-muhabbat tushunchalari yot bo'lgan inson xuddi Smit singari insoniy qiyofasini yo'qotadi va vaxshiy hayvonlarga o'xshab qoladi.

O'z ijodiy faoliyatining oxirlarida London itlar haqidagi "Maykl va ukasi Jerri" deb nomlangan boshqa bir romani da yana ezgulik va yaxshilikning mo'jizakor kuchi mavzusiga qaytadi.

1.2. JEK LONDON HIKOYALARIDA INSON VA KISHILIK JAMIYATI MUAMMOLARI TEMATIKASI

1906 yildan to 1911 yilga qadar Jek London "Oy yuzi", "Hayotga muhabbat", "Yo'l", "Yo'qolgan chehra", "Xudolar kulganda" kabi bir necha hikoyalar to'plamlarini nashr ettiradi. Bu to'plamlarga kiritilgan hikoyalarda yangi bir mavzu ko'tariladiki, bu mavzularning London ijodida namoyon bo'lishi uning dunyobo'ylab qilgan sayohatlariga bevosita aloqadordir. Janub hikoyalarining aksariyatiga sarguzasht voqealar xarakterli bo'lib, bu adabiyotda faqat sarguzasht qidirganlarni o'ziga jalb qilardi. Albatta, "Quyosh o'g'li" tsikli hikoyalarining aqlga sig'maydigan ishlarni amalga oshiruvchi, o'z qarorlarida adolatli va oliyjanob qahramoni kitobxonning xotirida qoladi. U bosar-tusarini bilmay qolgan, dimog'dor "to'nka"laming adabini berib qo'ya oladi, adolatni tiklay oladi, qanday yo'l bilan bo'lsin qarzlarni undira oladi, hatto orolliklarga qaroqchilardan xalos bo'lishga yordam berishga ham hoziru nozir.

Biroq amerika adabiyoti hazinasiga ulkan xissa qo'shgan asarlar bu kapitan Grifning sarguzashtlari haqidagi hikoyalar emas, balki muallif tomonidan oq tanlilardan-da yuqoriroq qo'yilgan va hayrixohlik bilan tasvirlangan Otoo (Butparast) obrazi; oq tanlilar tomonidan ta'qib ostiga olingan isyonkor, yerli aholi vakili Kulau obrazlaridir. Kulau asar nihoyasida miltiqni ko'ksiga mahkam bosganicha halok bo'ladi. London bu obraz orqali insonni nelarga qodir ekanini, uni jisman sindirishgani va lekin ruhan sindira olishmaganini ko'rsatib beradi.

Janub turkumiga kiravchi hikoyalarda London yerli tub aholining oq tanlilar tomonidan shafqatsizlarcha qirib yuborilayotganini va Okeaniyaning tub aholisi ustidan hukmronlik o'rnatish yo'lida nemis, ingliz, frantsuz. va amerikaliklar qilayotgan insonga xos bo'lmagan iflos metodlarni hikoya qiladi. Bu hikoyalarda orolliklarning og'ir hayoti ("Malui uyi"), ularning mardligi va irodasini ("Mauklar") muallif hurmat bilan tilga oladi. Janub turkumiga kiruvchi hikoyalarda olg'a surilgan aynan mana shu kabi g'oyalari bilan London amerika adabiyotiga o'zining ulkan xissasini qo'shadi.

Ba'zan biz bu hikoyalar zamirida muallifning xavf-xatarlar ekzotikasi

ortidan quvib orolga kelgan yevropaliklarga nisbatan kuchli kinoyasini sezamiz ("Qo'rqinchli Solomon orollari").

"Yengilmas oq tanli" hikoyasida London oq tanlilarning "rivojlantirish" deb atalmish missiyasi ustidan oshkora kuladi. Muallif hikoya orqali bu "missiya"ning asl maqsadi yerli aholini rivojlantirish emas, balki ularni qirib tashlash ekanini ko'rsatib beradi.

Jek London adabiy merosi orasida eng yaxshi hikoyaiari deb keyingi avlod yozuvchilariga ta'sir ko'rsatgan asarlarini aytib o'tish mumkin. Biroq shuni aytish kerakki, hamma vaqt ham yozuvchilarning fikr-mulohazalarida ana shu adabiy ta'sirlar haqidagi rasmiy tasdiqni uchratavermaymiz. Ammo okeanda yolg'iz o'zi suzgan va akula bilan yakkama-yakka jangga kirishgan kampir haqidagi hikoyani ("Mapun uyi") yoki "Moxov Kulau" hikoyasining ba'zi bir o'rinlarini (xoldan toyib borayotgan Kulau tushida o'zini va yovvoyi otlami minib yurgan xolda ko'radi) o'qir ekansiz beixtiyor ko'z oldingizga Ernest Xemingueyning "Choi va dengiz" romani keladi. "Choi va dengiz"da ham qariya dengizda akula bilan yakkama-yakka kurashadi, sher va arslonlar haqida tush ko'radi.

Janub hikoyaiari London ijodida o'ziga xos o'ringa ega. Garchi ularning ko'pchiligi Shimol hikoyaiari darajasiga ko'tarila olmagan bo'lsa-da, ularning ham o'ziga xos tomonlari borki, bu xususiyatlar muallifning mustamlakachilik mavzusini oldinga surgani bilan izohlanishi mumkin.

1909-1910 yillarda London ijodida ma'um bir krizislar ro'y beradiki. 1910 yilning iyun oyida uning yangi romani - "Vaqt kutmaydi" nashr etiladiki, unda xuddi "O'g'irlik"pesasi yoki "Chiziqning u tomonida" hikoyasidagi kabi o'z sinfiy tabaqasidan ajralib qolgan inson taqdiri o'z ifodasini topadi. London bu romanda o'zining ilk ijodiy jarayoni tematikasi - Alyaska mavzusiga qayta murojaat qiladi. Romanning birinchi boblari bizga Shimol hikoyaiari va "Qor qizlari" orqali tanish yozuvchini eslatadi. Yana mashhur nomlar - Klondayk masalalari ko'tariladi. Yukon ham, Douson, ham Qirqinchi milya ham bizga juda yaxshi tanish qahramonlar va peyzajlardir.

Roman markaziga Shimol hikoyaiari qahramonlarini eslatuvchi kuchli va

dovyurak oltin qidiruvchi Elam Xarnish obrazi qo'yiladi. London romanda 19-asrning oltin vasvasasi g'oliblaridan birining misli ko'rilmagan muvaffaqiyatlari haqida so'zlaydi. Xarnish Alyaskada millionerga aylanadi, keyin Shtatlarda birja o'yinchisiga va Kaliforniyadagi katta ishbilmarmonga aylanadi. Esingizda bo'lsa "Martin Iden" asarida Jek London yuqori sinf doiralardan baxt qidirgan qahramonini halokatga duchor qiladi. Muallif bu doiralarda haqiqiy baxt bo'lishi mumkin emasligini ko'rsatib beradi, zero bu sinf vakillari uchun mol-dunyova boylik hamma narsadan yuqori turadi. Endi esa "Vaqt kutib turmaydi" romani da Amerikaning taxtga o'tirmagan hukmdorlari dunyosini, ularning ma'naviy yo'qotishlarini tasvirlar ekan, yozuvchi ana shu dunyoga butun borlig'i bilan intilgan, xali hayotga ishtiyoqmand odam uchun qutulish yo'larin ko'rsatib beradi. Shunday qilib, tematik jihatdan "Martin Iden" asaridan ancha uzoq bo'lib ko'ringan yangi roman aslida problematikasi jihatdan unga juda yaqin.

Londonning fikricha, xali insoniylik qiyofasini to'liq butunlay yo'qotmagan odam uchun biznes dunyosi bilan aloqani uzishning yagona yo'ii bu mol-dunyodan voz kechish va o'z mehnati, kuchi bilan hayot kechirishdir. Asar qahramoni o'zining sevimli mashg'uloti - biznesdan unchalik boy bo'lmagan bir qizning muhabbati uchun va oltin vasvasasidan xoli boigan oilaviy baxt uchun voz kechadi. Muallif inson o'z kuchi va mehnati evaziga non topadigan, sog'liq uchun zararli oshiqcha narsalardan xoli tabiat qo'ynida hayot kechirish g'oyasini oldinga suradi.

London o'z qahramonini har tomonlama, chuqur tasvirlab berishga harakat qilgan. U o'z qahramoni tabiatidagi o'zgarishlarni, Amerikaga ko'chib o'tarkan uning ma'naviy dunyosiga birjadagi faoliyatining jirkanchli ta'sirlarini ko'rsatib beradi. Xarnish odob bilan ovqatlanishni o'rganadi, chiroyli kiyinishni va o'zni tutishni o'rganadi, va hattoki ingliz tilida to'g'ri gapirishni o'rganish uchun o'qishga harakat qiladi. Tashqi qiyofasi bilan birga uning ichki dunyosi ham o'zgarib boradi. Vijdonini, insoniyligini yo'qotar ekan u moliya deb atalmish okeanning shafqatsiz qaroqchisiga aylanadi. Xuddi "Martin Idsn" romanidagi kabi London atrof-muxit - jamiyat bilan o'zaro aloqalari jarayonida o'z qahramoni ma'naviy qiyofasining

o'zgarib borishini tasvirlaydi.

Bosh qahramon ichki dunyosidagi o'zgarishlar o'z navbatida uning tashqi dunyosi o'zgarishlariga olib keladi. U hamisha xo'mrayib yuradigan, badqovoq, tundbashara insonga aylanadi, ko'zlari shafqatsizlarcha boqadi. U ishdan keyin kundalik yumush va tashvishlarini unutish uchun har kuni ichadi. Uning hayoti sog'lom hayot emas: xomsemiz, ko'p yeb-ichadi va lekin xaddan tashqari kam jismoniy harakat qiladi, spirtli ichimlikka mukkasidan ketadi, ko'zlari ostida salqilar paydo bo'ladi.

Did Mesonga bo'lgan muhabbati, Kaliforniyaning xali tsivilizatsiya buzib ulgurmagan yovvoyi qismiga qilgan sayohati, unda olijanoblik xissini uyg'otadi. Yerli axoli bilan uchrashgach, unda inson qalbini manfurlashtiradigan tsivilizatsiyadan xoli bo'lgan ana shu yerlarga ko'chib kelish ishtiyoqi tug'iladi. Didga bo'lgan muhabbati Xarnish hayotiy falsafasining, undagi yangicha o'zgarishlarning asosiy omili edi. Did hech qachon biznesmen Xarnishga turmushga chiqmasligini, chunki u g'irrom ishlar bilan shug'ullanishini, unda yaratuvchanlik deb atalmish olijanob xislatlar yo'qligini aytadi. Shunda Xarnish birjadagi o'yinlardan voz kechadi, millionlab mablag'ini Oklend va atrofdagi shaharlarning obodonchiligi uchun sarflaydi, chunki endi u nimadir "yaratishni" va "haqqoniy o'yin o'ynashni" maqsad qiladi. Biroq baribir ana shu xolatda ham u biznesmenligicha qolaveradi. Muhabbatini rad etarkan Did uning o'ttiz million mablag'ini ham rad etadi. Muallif bu bilan Didning mol dunyodeb o'z manfaatini o'ylamasligi, xis tuyg'ularni boylikdan yuqori qo'yishiga alohida urg'u beradi. Did ulkan dang'illama xovliga yolg'iz uloqtirilgan qo'g'irchoq bo'lishni xohlamaydi. Uning ideali qat'iy - mustahkam, axil oila hayoti, garchand oddiy va tejamkor bo'lsa-da, boyliklarsiz, dabdabasiz hayot. Badavlat bo'lmasa ham mayli, eng muhimi er-xotin hayotlarini bir-birlariga baxsh etishsa, muhabbatlari yemirilmasa.

Did Meson amerika adabiyotida kamdan-kam uchraydigan ijobiy obrazdir. Yozuvchi haqqoniy ishbilarmon bo'lishga intilgan, ishchilarni aldash ishlaridan yuz o'g'irgan birja o'yinchisi - Xarnish timsolida insoniylik qiyofasini saqlab qoladi.

Aynan mana shu sifatlar uning hukmdor sinfdan yuz o'girib, fermer

bo'lishiga zamin yaratadi. Ashaddiy birja o'yinchisi va biznesmen Elam Xarnishga muhabbat deb atalmish o'yin qimmatga tushadi. U biznesdan voz kechadi, pullarini yelga sovuradi va sevgilisi bilan tsivilizatsiyadan uzoqlashib, Oy vodiysidagi kichkinagina bir fermaga ketadi, hamma narsani o'z qo'l mehnati bilan yaratadi va baxtga yetishadi. Biroq bu yerda ham uni bir sinov kutardi. Yomg'irda yuvilib ochilib qolgan oltin zarralari uning matonatini, muhabbatini yana bir bor sinovdan o'tkazadi. Biroq u oltin zarralarini sohib yuborarkan, yana bir bor muhabbatning oltindan ustun ekanini ko'rsatib beradi.

Butun umr muhabbat deya kuygan qahramon uning dunyodagi eng buyuk narsa ekanini anglab yetadi. Ana shunday qilib muhabbat biznes ustidan g'olib keladi. Xarnish va Didlarning seigi-muhabbat tarixi keng ijtimoiy planda tasvirlangan. Yozuvchi kapitalistik dunyoning yangi qirralarini fosh etarkan, Elam Xarnish obrazi orqali ana shu dunyoning ulkan "yirtqich"larini tasvirlaydi. Muallif fikricha, har qanday boylik birovlarini aldash orqali, o'zgalarning mehnatlari evaziga emas, balki insonning xalol mehnati orqali orttirilishi lozim. "Bu biznesmenlar aslida qalloblardir, - deb o'ylaydi Xarnish. -Mehnatkashlar va ularning mehnatlari mahsuli bo'lmish mahsulot o'rtasiga suqilib olib, ular yulg'ichlarcha o'z tegishalarini oladilar." Mehnatkash xalqni talon-taroj qilish mexanizmini va kapitalistik jamiyatda hukm surayotgan o'zaro bir-birini aldashga asoslangan hayotning asl basharasini ochib bergan Xarnishning zehniga tan bermaslikning iloji yo'q. Uning aytishicha, ishchi va dehqonlarni mayda ishbilarmon va savdogarlar yulg'ichlarcha, insofsizlarcha o'z foydalariga aldaydi. Biroq aslida ularning qo'li bilan ana shu ishchi dehqonlarni katta ishbilarmonlar chuv tushirishadi... Katta ishbilarmonlar ustida esa moliya magnatlari turadilar... Endi bu magnatlar nafaqat qaroqchi, balki "o'yinchi" hamdirlar. Ularga o'z ulushlari yetmagandek, bir-birlarini ham talon-taroj qilishdan toymaydilar. Ularning hammasi birinchi o'rinda ishchi va dehqonlarni aldash bilan mashg'uldirlar...

Romanda muallif 20-asr boshidagi Kaliforniya shtati hayotining realistik tasvirini yoritib beradi. Shuningdek, 1907 yilda ro'y bergan va butun Amerikani

dahshatga solgan iqtisodiy inqiroz va ish tashlash harakatlarini ham ko'rsatib bergan. Amerika burjuaz tadqiqotchilarining e'tirof etishlaricha, Jek London Kaliforniya shtati temir yo'd kompaniyalarining kuch-qudratini haqqoniy tasvirlab bergan ediki, bu kompaniyalar shtatni nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan hamnazorat qila olardilar.

Ko'pchilik Jek London asarlarining aksariyati romantik ruh bilan sug'orilgan, degan fikrni olg'a suradi. Bu narsalar yozuvchining syujet yaratishda favqulodda, "effektli" situatsiyalarga murojaat etishida ham ko'rinadi. Ammo sog'lom romantizm, hayotiy haqiqatga asoslangan romantizm doimo asarning realistik ta'sirini kuchaytirishga xizmat qiladi. Bunday romantizm haqiqiy realizmga zid emas, balki uning zaruriy elementi va hamrohidir.

Malumki, "adabiyotda asosiy oqimlar yoki yo'nalishlar ikkita hisoblanadi: romantizm va realizm. Kishilarni va ularning hayot sharoitini haqqoniy ravishda, bezamasdan tasvirlash realizm deb ataladi. Romantizmda ham bir-biriga qattiq qarama-qarshi bo'lgan ikki yo'nalishni farq etish kerak: passiv romantizm; - u voqelikni bezab ko'rsatib, kishini voqelik bilan murosqa qildirishga harakat qiladi, yoki kishining diqqatini voqelikdan nari tortib, o'zining ichki dunyosi qa'riga cho'kishiga, hayotning yechib bo'lmas jumboqlari haqidagi, muhabbat haqidagi, o'lim haqidagi fikrlarga berilishiga, faqat ilmu fan yo'li bilangina hal etilishi mumkin bo'lgan jumboqlarga berilishga tomon tortadi. Aktiv romantizm esa kishining yashashga bo'lgan irodasini kuchaytirishga, kishida voqelikka qarshi, voqelikning har qanday zulmiga qarshi isyon qo'zg'atishga harakat etadi." Ana shunday ekan, kapitalistik tuzumga qarshi, o'sha davr voqeligidagi adolatsizlik va nodonlikka qarshi norozilik bilan to'la romantizmga baho berish kishini jiddiy o'ylashga majbur etadi. Zero yirik san'atkorlarda realizm bilan romantizm doimo qo'shilib ketgandek bo'ladi³.

Romantizm bilan realizmning tutashib ketishi, ayniqsa, katta adabiyot uchun xarakterlidir. Bu tutashib, qo'shilib ketish natijasida adabiyot shunday originallik va shunday kuch kasb etadiki, bu originallik va kuch butun adabiyotga borgan sari

³ O.Sharafiddinov. Abdulla Qahhor.T., "Yosh gvardiya", 1988.

sezilarliroq va kuchliroq ta'sir etib boradi. Demak, hayotning salbiy tomonlarini fosh etishga va kishilarning fazilatlarini orttirishga qaratilgan romantizm zararli emas va u realizmga zid emas. Aslida, u - realistik asarda keng qo'llaniladigan to'qima va giperbolizatsiya (bo'rttirib ko'rsatish) usulining bir shaklidir.

1.3. BADIY ASARLAR TARJIMASI, UNING VAZIFA VA MUAMMOLARI.

Tarjima haqida soʻz boshlashdan oldin, tarjima soʻzining qaerdan paydo boʻlganligi, qanday maʼnolarni anglatganligi, uzoq tarixiy davr davomida olimlarimiz tarjima maʼnosini qanday anglaganliklarini kuzatish maqsadga muvofikdir.

Tarjima nima? Tarjimaning ommaviy taʼrifi turli xil boʻlishi mumkin degan savolga:

- Bir tilda yozilgan kitobni ikkinchi tilga oʻgirish, - deb javob beradi bir kishi. Boshqa odam esa bu taʼrifga eʼtiroz bildiradi;

- Tarjima qilinayotgan narsa, bordi-yu, kitob emas, balki ogʻzaki nutq boʻlsa-chi? Bu taqdirda: tarjima - bu bir tilda bayon qilingan fikrni oʻzga tilda soʻzlovchi kishilarga tushuntirib berishdan iborat deb karaymiz;

- Oʻgirilayotgan narsa unisi ham emas (kitob), bunisi ham emas (ogʻzaki nutq), balki - kinofilm deb faraz qilaylik, -bahsga aralashadi uchinchi shaxe. - Filmlar ham tarjima qilinadi-ku, shunday emasmi? - deydi u. - Bas, tarjima bir tilda rol ijro etayotgan aktyorning nutqini ikkinchi, uchinchi va hokazo tillarga oʻtkazish demakdir. Bunda oʻsha aktyorning nutqiga uning harakatlari, ichki kechinmalari, yuz ifodasi moe kelishi lozim. Aks holda...

Xullas, bahs shu tarzda davom etadi. Bundan maʼlum boʻladiki, tarjimani har kim oʻzicha tushunarkan.

Tarjima xususida yuqoridagi mulohazalarda asos bor. Aniqrok qilib aytganda, ularning har biri tarjimani bir tomondan taʼriflab, bu haqidagi u mumiy tushunchani toʻldirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, bahsda qatnashayotganlarning dalillaridan tarjima sertarmoq, murakkab soha ekanligi ham maʼlum boʻladi.

Tarjima tushunchasining maʼnosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot, sheʼr, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doyr ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatiya xujjatlary, rasmiy qogʻozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqlarning nutqlari, gazeta materiallari; boshqa-

boshqa tillarda soʻzlashuvchi, "tilmoch"ning xizmatiga muhtoj boʻlgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, bir tildan ikkinchi tilga kinofilmlar oʻgiriladi.

Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qatʼiy nazar, bir tildan boshqasiga oʻgirilayotgan har qanday tarjima uchun u mumiy boʻlgan ikki holat bor:

1. Tarjimonning maqsadi - asl nusxa tilini bilmagan kitobxon (yoki tinglovchi)ni oʻsha asar matni (yoki ogʻzaki nutq mazmuni) bilan iloji boricha toʻla, mukammal tanishtirish.

2. Tarjima qilish - muayyan til vositalari bilan bir karra ifoda etilgan matnni boshqa til vositalari, imkoniyatlari bilan aniq va toʻla qayta ifodalash demakdir. Tarjima-qayta ishlash, qayta hikoya qilib berish, qisqartirib bayon etish, har-xil "adaptatsiya"⁴ lardan oʻzining xuddi ana shu aniqligi va toʻlaligi bilan farq qiladi.

Tarjimaning xillari:

1. Bir tildan ikkinchisiga - qardosh yoki qardosh boʻlmagan tilga tarjima qilish.

2. Adabiy tildan - oʻsha tilning oʻzining biron shevasiga va biron shevadan - adabiy tilga yoxud bir tilning shevasidan boshqa tilga tarjima qilish.

3. Qadimiy davr tilidan oʻsha tilning xozirgi zamonaviy holatiga tarjima qilish. Masalan, qadimgi ingliz tilidan -hozirgi ingliz tiliga, yoki oʻzbek tilidan - hozirgi oʻzbek tiliga kabi.

Asl nusxada ifodalangan fikr boʻlak tilda xam xuddi aslidagiday toʻla, aniq va taʼsirchan boʻlishi lozim. Bundan tashqari, tarjima oʻsha asar oʻgirilgan tilning nazariy va amaliy meʼyorlariga muvofiq boʻlishi darkor.

Tarjimonning asl nusxaga subʼektiv, xolis boʻlmagan munosabati asl nusxaga beixtiyor, oʻzgacha maʼno berib kuyishi, yoki boʻlmasa u ni koʻra-bila turib siyqalashtirishi mumkin. Bularning hammasi asarga nomaqbul, yaʼni aslida boʻlmagan mazmun bagishlanishiga, asl nusxadagi soʻzlarga kontekst taqozosi

⁴ Адаптация-соддалаштириш; тушунилиши мураккаб бўлган, қийин матнларни соддалаштириб бериш демакдир

bilan anglashilgan ob'ektiv mazmun o'rniga o'zgacha ma'no berib yuborishiga olib keladi⁵.

Tarjima - forsa "tarzabon" so'zidan arablashib o'zgargan ("tarzabon" - chiroyli so'zlovchi, notiq). Arab tiliga "tarjumon" shaklida qabul qilingan, undan "tarjima" yoki "tarjuma" hosil bo'lgan. O'zbek adiblari bunday tushunchani "chevurish", "o'tkazish", "qaytarish", "ag'darish", "o'girish" singari atamalar bilan ifodalaganlar. Ko'p yillar davomida "tarjima" sharh, tavsir, bayon qilish, tushuntirish ma'nolarida ham qo'llanib kelingan.⁶

Faqat XX asrning o'rtalarida bu so'z badiiy ijodning bir turini ifodalash ma'nosini kasb etdi va ilmiy-filologik terminga aylandi. Umuman, tarjima deganda bir tilda qayta yaratilishi tushuniladi. Shu ma'noda tarjima xalqlar, millatlararo aloqa vositasi hisoblanadi. Tarjima hozirgi jamiyatimizning juda ko'p: rasmiy xabarlar va gazeta materiallari tarjimasi, siyosiy - publitsistik adabiyot tarjimasi, ilmiy-texnikaviy adabiyot tarjimasi, badiiy adabiyot tarjimasi. Bu sohalarining har biri o'ziga xos uslub va talablarga ega. Bular orasida badiiy tarjima o'z talablari, shartlari, xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Badiiy tarjima - badiiy ijod sohasidir. Chunki tarjimaning bo'lak sohalaridan farqli o'laroq, badiiy tarjimaning o'z xususiyatlari mavjud. Bu xususiyatlar badiiy adabiyotning tabiatidan kelib chiqadi. Chunonchi, agar fanda asosiy narsa dalil, tahlil, sxema bo'lsa, badiiy asarda obraz, tasvir va hikoya qilinayotgan voqeaning ta'sirchanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Xuddi shu omillar badiiy tarjima uchun ham muqarrardir.

Tarjima qayta yaratishdan iborat, tarjima jarayoni esa ijodiy jarayondir deb tasdiklash bilan birga me'yoriy ta'riflar va to'kis tarjima omillari qanday bo'lishi kerakligi haqida quyida fikr yuritamiz.

Tarjima jarayoni uch boyokichdan iborat :

- 1) asl nusxani idroq etish;
- 2) asl nusxa internretatsiyasi;

⁵ Федеров А.В. Основы общей теории перевода (Лингвистический очерк). Издание 3-е, М.: Высшая школа, 1968, стр. 155-157

⁶ Комилов Н. Бу қадимий санъат. "Таржима санъати" мақоллар тўплами. Т.: Ғофур Ғулом номидаги

3) asl nusxani qayta ifodalash.

Yaxshi tarjimon dastavval yaxshi kitobxon bo'lishi lozim.

Uz tiliga o'g'irish maqsadida asarni qo'lga olgan tarjimonning asl nusxani anglashi uch bosqichda sodir bo'ladi:

Birinchi bosqichda matn so'zma-so'z, ya'ni filologik tarzda idrok qilinadi. Bu bosqichda bir qancha tarjima qusurlari ro'y berishi mumkin: boshqa tildagi bir so'zni xuddi shunday jaranglaydigan bo'lak so'z bilan qorishtirish; yaqin tillarda soxta ekvivalentlar domiga tushib qolish; matnni noto'g'ri o'zlashtirish, ayrim maxsus so'zlarning ma'nosiga tushunib yetmaslik; muallifning muddaosini anglamaslik.

Ikkinchi bosqichda - uslubiy omillarga e'tibor qilinadi. Matnni to'g'ri o'qigan kitobxon lisoniy ifodaning uslubiy omillarini ham anglaydi, ya'ni kayfiyat, piching yoki fojiaiviy ma'no, ohangdorlik yoxud voqeani quruq bayon qilishga moyillik va hokazo. Rosmana kitobxon barcha bu sifatlarni anglab yetishi shart emas, tarjimon esa muallif qanday qilib tegishli natijaga erishayotganini aniqlashi, tadqiq etish lozim. Tarjima oddiy o'qishga nisbatan kitobga ancha yuqori talab bilan ongli munosabatda bo'lishini talab qiladi.

Uchinchi bosqich - ayrim til vositalarining uslubiy va ma'no-mazmunini anglashdan tarjimon asarning badiiy yaxlitligini, badiiy voqelik hodisasi, xarakterlar, ularning munosabati, muallifning g'oyaviy niyatini anglashga o'tadi. Matnni anglashning bu yo'li ancha murakkab va og'ir muallif yaratgan badiiy voqelikni to'laligicha idroq etish uchun tarjimon keng mushohada quvvatiga ega bo'lishi darkor. Asl nusxani to'laligicha qamrab olish, idroq etish uchun, aytaylik, rejissyorga qanday tasavvur quvvati talab etilsa, tarjimonda ham ana shunday tasavvur qobiliyati bo'lishi zarur.⁷

Tarjimon voqelikni asarda ko'rsatilgan darajasida bilsagina badiiy chin, haqqoniy tarjima yarata oladi.

Tasvirga moe bo'yoqlarni tanlay olmagan rassom o'z tasavvuridagi manzarani qog'ozga tushira olmaydi; yaratmoqchi bo'lgan obrazning ichki ruhiy

⁷ Иржи Ревый. Искусство перевода. М.Прогресс, 1974, стр 49-77.

dunyasini tushunib yetmagan aktyor "o'z" rolini tuzuk talqin eta olmaydi. Voqealar yoki hissiyotlar mazmuniga moe ohang topa bilmagan shoir yoxud bastakor ko'ngildagiday san'at asari bunyod qila olmaydi. Tarjimon ham bamisoli shunday.

Badiiy asar har-xil uslubda, turlicha me'yorda: mungli yoki quvnoq, ko'tarinki yoki tekis, rangdor yoki sidirg'a, musiqiy yoki vazmin yozilgan bo'lishi mumkin. Bunda ko'p narsa kitobda tasvirlanayotgan davr, tanlangan mavzu, voqealarning xarakteriga bog'liq.

Agar tarjima qilish uchun tanlangan asarning bunday belgilari aniqlangan bo'lmasa, uning ruhiga moe kalit topib bo'lmaydi, natijada garchand kitob boshqa tilga ko'chirilsa-da, u yangi kitobxonga o'z "tilsimoti"ni ochmaydi. Shu tariqa tarjima qilishdan ko'zlangan maqsad ro'yobga chiqmaydi.

Turli yozunchilar uslubining bir-biridan farqlanishi, har bir yozuvchi boshqalarnikidan ajralib turadigan o'z individual uslubiga egaligi, bir yozuvchining ijodida turli uslub yo'nalishlarining namoyon bo'lishi, ular o'zlarining har-xil asarlarini bir-biridan xiyla jiddiy farq qiladigan uslubda yozishlari va aksincha, bir asarning o'zida turli uslub jilolari uyg'unlashib ketishi - bularning barchasi tarjimondan asl nusxaga moe uslub kaliti topishni talab etadi. Tarjimada muvofiq uslub kalitini topish asarning yozilish uslubi bilan goyasi hamda muallif dunyoqarashi o'rtasidagi bog'lanishni to'g'ri belgilash, marom, ohang, sintaktik tarz va obrazlar silsilasiga xos xususiyatlarni to'g'ri tayin qila bilishga bog'lik. Biron asarni tarjima qilishda maqbul uslub kaliti topilmas ekan, tarjima asl nusxasiga muqobillik holatida bo'la olmaydi.

Tarjimaning asl nusxaga muqobillik darajasi nazariyasi 5 ta mazmuniy darajalarning ekvivalentligini farqlashni taqozo etadi:

- 1) til belgilari darajasida;
- 2) bayon qilish darajasida;
- 3) axborot yetkazish darajasida;
- 4) vaziyat va holat tasviri darajasida;
- 5) aloqa maqsadi darajasida.

Tarjima jarayonida asl nusxa bilan o'girilgan nusxa o'rtasida qayd etilgan darajalarda muqobillik munosabatlari o'rganiladi. Asl nusxa bilan tarjima birliklari barcha besh darajada yoki faqat ayrimlarida teng kelishi mumkin.

Tarjimadan ko'zlanadigan asosiy maqsad barcha darajalarda iloji boricha ko'proq muqobillikka erishishdan iborat.⁸

Tarjimada har qanday asar ham yangilanadi. U o'zining bir qancha xususiyatlaridan mahrum bo'ladi, allaqancha yangi fazilatlar orttiradi ham. Bu yog'i tarjimonning iqtidori va tajribasiga bog'liq. Modomiki, har bir tarjimonning o'z uslubi bo'lib, pirovardida har bir tarjima asl nusxani yangidan kashf etish ekan, ularni chog'ishtirib o'rganish tarjimashunoslikda asosiy dastur hisoblanadi.

Tarjima, ko'pchilik kishilar odatda tushungani singari, til bilmaslik orqasida tugiladigap zaruratgina emas, balki o'sha o'girilayotgan asarning boshqa ijtimoiy muhit va tilda muayyan darajada yangilanishi, tanishtirilishi, muvaffaqiyat topish garovi, milliy madaniyatlarini yuksaltirish omillaridan biridir.

Shu qatorda, xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, adabiyotlarni bir-biriga payvand qiluvchi ajoyib vositalardan biri badiiy tarjima ekan, barcha ijodkorlar davrasida zahmatkash tarjimonning ham o'z munosib o'rni bor.

O'zbek adabiyoti faqat o'zbek tilida yaratilgan original asarlardangina iborat emas. Bizning tilimizga jahonning juda ko'p milliy adabiyotlarning yorqin namunalari tarjima qilingan. Bugungi kunda o'zbek xalqi jahonning yetti iqlimida yashayotgan juda ko'p xalqlarning tillarida bunyod qilinayotgan badiiy asarlarni o'z ona tilida o'qish tarafiga muyassar bo'ldi.

Jahon adabiyoti bilan o'zbek adabiyotining aloqalari rang barangdir. Ularning ajralmas tarkibiy qismi sifatida o'zbek adabiyoti ham mazmunan, ham mundarija e'tibori bilan o'sib, yuksalib bormoqda. Adabiyotimizga yangi mavzular, yangi janrlar, yangi usul va shakllar kirib kelmoqda. O'z-o'zidan ravshanki, jahon adabiyotining juda ko'p asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi va qilinmokda. Bu o'rinda mustaqillik yillari ish boshlagan "Jahon adabiyoti"

⁸ Иржи Ревый. Искусство перевода. М.:Прогресс, 1974, стр 49-7

jurnalining xizmati beqiyos, undan yangi tarjima namunalarining nashrlaridan voqif bo'lishi mumkin.

Ingliz adabiyotidan o'zbek tiliga qilingan tarjimalarni o'rganish o'zbek adabiyotining umumjahon adabiyoti bilan o'rnatilgan aloqasining umumiy zanjiridagi bir halqadir. Bu tarjimalarning tarixini o'rganish esa o'zbek adabiyotini tarixini butun bir davri va katta bir sohasini yoritish demakdir.

Ingliz adabiyotining ba'zi taraqqiyparvar vakillari haqida dastlabki ma'lumotlar o'zbek tilida 1886 yildan boshlab uchraydi. Demak, o'zbek kitobxonlari 1886 yildan to hozirgi davrgacha kariyb 120 yil davomida ingliz adabiyoti bilan tanishib, uni o'rganib kelmoqda. Ingliz-o'zbek va amerika-o'zbek adabiy aloqalari mavzunni tarjima rejasida 4 davrga bo'lib o'rganish mumkin:

1. 1917 yilgacha bo'lgan davrda ingliz adabiyotidan qilingan ilk tarjima namunalari.
2. 1920-40 yillar mobaynida qilingan tarjimalar.
3. Ikkinchi jahon urushidan keyiigi va mustaqillikgacha bo'lgan davr ichida qilingan tarjimalar.
4. Mustaqillikdan keyin hozirgi davrdagi tarjimalar.

XIX asrda "Turkiston viloyatining gazetisi" sahifalarida ba'zi chet el taraqqiyparvar kishilari, faylasuflari, olimlar hamda adiblarning xikmatli so'zlari berib boriladi. Mazkur gazeta ahyon-ahyonda Yevropa yozuvchilarining ayrim asarlari turkiy tillarga tarjima qilingani xususida qisqa xabar va elonlar ko'zga chalinib qolardi. Chunonchi, 1886 yil 28 fevral sonida mana bu sonlarni o'qiymiz: «Sulton Abduazizi marhumning davrida Ovro'pa iqlimidagi eng baland musanniflarning ko'p kitoblari turkiy tillarga tarjima qilindi. Masalan, Shatobrian, Gyugo, Moler, Femtelon va Lafonten, Shekspir va yana ulardan boshqa bir necha kitoblar turkiy tilga tarjima qilindi».⁹

Keyinchalik mashhur ingliz romannavisi Daniel Defoning "Robinzon Kruzo" romani "Ro'binzun hikoyasi" nomi bilan 1911-yilda o'zbek tilida bosilib

⁹ Сулаймонов М. Авлодлар эстафетаси. "Таржима санъати" мақолалар тўплами. Т.: Ғофур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1976, 214-бетлар.

chiqdi. Asarning ruscha tarjimasi 400 bet, ilk o'zbekcha tarjimasi esa 48 sahifadan iborat. Qariyb o'n baravar qisqartirib o'girilgan. J.SHaripovning shaxodat berishicha, bu "hikoya" 77-betlik ozarbayjonchasidan o'zbek tiliga Muhammad Fozilbek Otabek tomonidan ag'darilgan.

"Robinzon Kruzo" romani garchi qisqartirib tarjima qilinsa ham, o'sha davrda o'zbek madaniyatida katta voqea hisoblangan. Bu tarjima G'arbiy Yevropa adabiyotiga qarab ochilgan birinchi darcha edi. Adabiyotimiz tarixida uning ahamiyati shu bilan belgilanadi.

Birinchi jahon urushidan keyin ingliz adabiyoti namoyondalari va ular yaratgan asarlarning nomlari bilan o'zbek kitobxonlari birinchi bor 1928 yillardan tanisha boshlaydilar. 1928 yilda "Maorif va o'qituvchi" jurnalining 3-sonida "G'arb adabiyotining takdiri" deb nomlangan maqola e'lon qilinadi. Unda muallif Shekspir haqida ancha keng ma'lumot beradi va ba'zi asarlarining nomlarini ham keltiradi.

20-yillar ichida o'zbek ziyolilari Shekspir asarlarining nomlari bilan tanitsa, 30-yillarga qolib uning jahon adabiyotiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilgan mumtoz asarlarini o'z ona tilida o'qishga musharraf bo'ldilar. 1934 yilda "Hamlet" fojeasi o'zbek tilida bosilib chiqadi. Asar rus tilidan tarjima qilingan bo'lib, nasriy yo'lga o'tkazilgan.

30-yillarda ingliz yozuvchisi E.L.Voynichning "So'na" romani Mirzakalon Ismoilij tarjimasida o'zbek tilida ikki marta (1934, 1936) nashr qilindi. Asar to'la tarjima qilingan.

30-yillarda Teodor Drayzerning ijodiy bisotidan ikki hikoya o'zbek tiliga tarjima qilinadi. Bular "Eski joylar" va "Oltin vahimasi" nomlari bilan 1933 yilda chop etilgan. Ularning tarjima qilinishiga turtki bo'lgan narsa, T.Drayzerning 1927 yilda Sobiq Ittifoqda bir yarim oy yashagani va shu davrda u O'zbekistonda ham bo'lgani, "Ernita" nomli kitobining ba'zi qismlarini Toshkent va Samarqandda bo'lgan vaqtida ozgani va nihoyat o'zbek kitobxonlariga o'z asarlarining ayrim qismlarini o'qib bergani bo'lsa ajab emas.

1935 yilda ozodlik kuychisi, talantli yozuvchi Gariet Bicher Stounning "Tom togʻaning kulbasi" romani "Tom boboning kulbasi" nomi bilan nashr qilindi. Asl nusxasi va ruscha tarjimasi 400 bet, oʻzbekchasi esa atigi 216 sahifa boʻlib, asar negadir qariyb ikki baravar qisqartirib oʻgirilgan (asl nusxasi 54 bobdan, oʻzbekcha tarjimasi esa 24 bobdan iborat edi). Tarjima qilingan boblarda asosiy mazmun saqlanib, baʼzi personajlarning ichki kechinmalari, muallifning tushuntirish matnlari qisqartirilgan.

Keyinroq, 30-yillarning oxirlarida Amerikaning mashhur yozuvchilaridan biri Mark Tvenning "Tom Soyerning boshidan kechirganlari" asari oʻzbek tiliga oʻgirildi. Tarjimon asarni qisqartirmasdan, iloji boricha asl nusxasiga (ruscha tarjimasiga) muqobil tarzda tarjima qilishga erishilgan.

1948 yilda "Hamlet" va "Otello" ikkinchi marta Maqsud Shayxzoda va Gʻofur Gulom tomonidan oʻzbek tiliga tarjima qilindi.

Bu davrda Shekspirning besh fojeasi: "Hamlet", "Otello", "Qirol Lir", "Romeo va Juletta", "YUliy Sezar"; hamda uch komediyasi: "Oʻn ikkinchi kecha", "Veranalik ikki yigit", "Qaysar qizning quyulishi" oʻzbek tiliga oʻgirildi.

Ingliz-oʻzbek tarjimachiligining uchinchi davrida "Soʻna" uchinchi marta oʻzbek tilida nashr qilindi. Undan tashkari Artur Konan-Doylning "SHerlok Xolms sarguzashtlari", "Baskervillar iti" monesti va Grim Grinning "YUvosh amerikalik" asari va boshqa kichik adabiy janrda yozilgan bir qancha asarlar oʻzbek tiliga tarjima qilindi. "Gulliverning sayohatlari", "Robinzon Kruzo" asar lari qayta-qayta uch martadan nashr ettirildi.

"Soʻna"ning 1934 yildagi oʻzbekcha tarjimasida yoʻl qoʻyilgan bir qancha nuqsonlar 1956 yildagi nashrida tuzatildi.

Amerika zanji adabiyotining yirik namoyondalaridan biri Lengston Xyuzning 50 ta har-xil hajmdagi sheʼrlari oʻzbek tiliga Sanjar Siddiq tomonidan tarjima qilinib, 1934 yilda lotin yozuvida nashr ettirildi. Bu sheʼrlar bir necha boʻlimga boʻlinib, "Mungli kuylar", "Zanji mehnatkashlari" kabi sarlavhalar ostida birlashgan.

Amerika yozuvchilaridan Mark Tven asarlaridek o'zbek tiliga ko'p tarjima qilingan asarlar yo'q. 1939, 1940, 1948 yillarda "Tom Soyerning boshidan kechirganlari", 1947 va 1960 yillarda mazkur asarlarning davomi "Geklberri Finning boshidan kechirganlari", 1962 yilda "SHaxzoda va gado", 1959 iilda "Hikoya va pamfletlar" to'plami, 1963 yilda "Ezma Bessi" hikoyalar to'plami, 1966 yilda "Janna Dark" tarixiy romani va boshqa asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi.

Amerikaning taraqqiyparvar yozuvchilaridan biri Jek London ijodi ayniqsa, Shimol hayoti bilan ko'p bog'liq. U Shimol xastidan 162 ga yaqin hikoya yozib, u yerdagi ijtimoiy hayotni, mol-dunyo to'plash hirsini tanqid qiladi.

J.London asarlari bilan o'zbek kitobxonlari 1956 yildan boshlab tanitdilar. 1958 yilda yetuk tilshunos olim Fattox Abdullaevning bevosita ingliz tilidan qilgan tarjimasida yozuvchining hikoyalar to'plami bosilib chiqdi. Yozuvchi asarlariga qiziqish, talab ortib borgani uchun uning hikoyalari, qayta nashr qilindi. 1961 yilda "Hayota muhabbat", 1962 yilda "Qish haqida qissa" hikoyalar to'plamlari chop qilindi.

1968 yilda esa J.Londonning mashhur "Martin Iden" romani Q.Mirmuhamedov tarjimasida bosilib chiqdi. Yuqorida ko'rib o'tganlarimizdan tashqari, yana ko'p amerika taraqqiyparvar yozuvchilarining asarlari ham o'zbek tiliga tarjima qilingan.¹⁰

1972 yilda bir qancha amerika yozuvchilarining hikoyalari bevosita ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girildi. Bu T.Drayzerning "Oltin sarob" hikoyasi bilan nomlangan to'plamdir. Hikoyalarni ingliz tilidan Abduqaxhor Iminon tarjima qilgan. To'plamga sakkiz amerika yozuvchisining o'n bir hikoyasi kirgan.

Ingliz-o'zbek adabiy aloqalari tarixida XX asr boshi va o'rtalari tarjimachiligining o'ziga xos xususiyatlari shuki, bu davrda ingliz va amerika adabiyoti namunalari, yuqorida ko'rib o'tilganiday, asl nusxadan emas balki vositachi til rus tilidan tarjima qilingan. Bunga sabab umumin tarjimachilik xo'jaligini bir qismi bo'lgan xorijiy adabiyotlar, jumladan, ingliz va amerika

¹⁰ Олтин сароб. Т.: Гофур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1972.

adabiyotidan o'zbekchaga tarjima qilish ishining o'ziga xos qiyinchiliklaridan biri, asl nusxa tilidan tarjima qilish muammosining o'sha davrda hal bo'lmaganligidadir. Albatta, bu davrda xali ingliz tilidan bevosita tarjima borasida tajriba, umumlashmalarga ega bo'lmagan o'zbek tiliga ag'darish juda ogir, ma'suliyatli, katta ahamiyatga molik ish edi. Bu vazifani zukko tadqiqotchi olimlardan Sanjar Siddiq va Fattoh Abdullaevlar o'z bo'ynilariga oldilar va vijdonan bajardilar. Chunki mana shu ikki olimgina o'sha davrda bunday mas'uliyatli ishga qo'l urganliklari katta jasorat desa bo'ladi. Bu tarjimalarni boshqa amalga oshirilgan tarjimalardan ajratib turadigan tomoni ularning asl nusxadan bevosita tarjima qilinganligidadir

1956 yilda Govard Fastning "Sakko va Vantsetining jasorati", 1968 yilda Jual Xerrining "Rimus boboning ertaklari", 1962 yilda Edgar Poning "Tilla qo'ng'iz", 1963 yilda Jon Steybekning "Haybatli tog'lar", 1961 yilda OTenrining "So'ngi yaproq", 1964 yilda "Ug'rini kdroqchi urdi" hikoyalar to'plamlari, Mayn Ridning "Boshsiz chavondoz", 1971 yilda F.Kuperning "CHingachguk-ulkan ilon" romani, 1973 yili T.Drayzerning "Baxri qaro Kerri" romani va boshqa usarlar bosilib chiqdi.

SHunday qilib, ingliz, amerika va o'zbek adabiyoti aloqalarining so'nggi davrida badiiy tarjimalar ko'lami benihoya kengaya boshladi. Jahon adabiyoti durdonalari chet tillaridan bevosita o'zbek tiliga tarjima qilina boshlandi. Tarjimonlar asarning yuksak badiiyligini saqlashda o'zbek tilining katta leksik-stilistik imkoniyatlaridan unumli foydalana boshlashdi. Hozirga kelib tarjimashunoslik ancha rivojlanmoqda. Tarjimonlar safi kengayib bormoqda. Oliy o'quv yurtlarida maxsus tarjimonlar yetishtirib chiqaruvchi bo'limlarning ochilishi tarjimashunoslikning rivojiga katta xissa qo'shish bilan birga yangi tarjimon olimlar safining kengayishiga sabab bo'ladi.

Mustaqillik sharofati bilan G'arb mamlakatlari bilan aloqalar yo'lga qo'yilmoqda. Tarjimalar sifati yaxshilanayapti. Turli tarjima maktablari tashkil topdi. Tarjimashunoslikda jiddiy ishlar amalga oshirilyapti: Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish bilan bir qatorda o'zbek tilidan ingliz tiliga ham tarjimalar

amalgaga oshirilyapti. Buni o'zbek adabiyotining buyuk namunalarining hamda Prezidentimiz I.A.Karimov asarlarining chet tillariga, xususan ingliz tiliga ham tarjima qilinayotgani misolida ko'rishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, butun madaniyat tarixining shoxidligicha, har bir xalqning ijtimoiy taraqqiyoti qay darajada ekanligini shu xalqdagi original adabiyotning kanchalik rinojlangani emas, balki shu xalq tiliga o'zga tillardan tarjima kilingan asarlar rivoji ham belgilaydi. Binobarin, tarjima masalalarini umumdavlat ahamiyatiga molik ish deb bilish, tarjimachilikni har tomonlama rinojlantirish choralari ko'rish katta ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir xalqning nafaqat ma'lakiy balki umuman ijtimoiy taraqqiyotini yuksaltirishda tarjimaning xizmati nihoyatda ulugvordir.

II BOB. JEK LONDON XIKOYALARI TILINING LEKSIK JIHATLARI.

II.1. Jek London hikoyalari tarjimalarida kishi ismlari, geografik nomlar va milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi soʻzlarining berilishi.

Amerikaning eng yetuk yozuvchilaridan biri Jek London amerika va jahon adabiyoti tarixida alohida oʻrin tutadi.

J.London ijodi serqirra boʻlib, uning asarlari, hikoyalari kitobxonda jonli qiziqish uygʻotadi. Yozuvchi ijodida TTTimol mavzusi alohida oʻrin egallaydi. Alyaska, Kanadaning sovuq izginli tabiati, J.London hayotida oltin qidiruvchilar orasida uchratgan baquvvat, dovyurak, mustaqil odamlari uning katta "SHimol hikoyalari" turkumini yaratishi uchun ilhom bagishladi. "SHimol hikoyalari"ning asosiy mavzusi maqsadga yetishi uchun mavjud toʻsiqlarni yengishga intiluvchi mard insonlarning kurashi hisoblanadi. J.Londonning "SHimol hikoyalari" kahramonlarining asosiy qismida kelajakka ishonish xisi kuchlidir. "Xayotga muhabbat" hikoyasi ham "SHimol hikoyalari"dan joy olgan boʻlib, uning qahramonining kelajakka boʻlgan ishonchi, uni shimolning ayovsiz tabiatidan har bir qadamida duch keladigan qiyinchiliklarni yengishga sabab boʻladi. U hatto oʻlim bilan olishib, oxir oqibatda uni ham yengadi.

Mehnatkash Meksika xalqining Dias diktaturasiga qarshi kahramonona kurashi J.Londonning "Meksikalik" hikoyasini yozishiga sabab boʻldi. U 1911-yilda meksikaliklarning bu kurashlarini qoʻllab-quvvatlab ularga xat yozadi. "Meksikalik" hikoyasi 1913 yilda nashr etiladi. Bu hikoyada yozuvchi yosh bokschi

Rikera obrazi orqali asl vatanparvar, vijdonli, irodali, mamlakatiga sodiq, bu yoʻlda jonini ham qurbon qilishga tayyor turgan yigitning jonli obrazini yaratadi.

Bir tildan ikkinchi tilga qilingan tarjima xalqlarning oʻzaro aloqasini mustahkamlaydi, bir xalq tomonidan yaratilgan madaniy merosni ikkinchi xalqqa tanishtiradi. Shu bois badiiy tarjimada kishi ismlari, geografik nomlar va milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi soʻzlarning berilishi ham alohida oʻrin tutadi. Ularning tarjimasi xaqida bir qancha manbalarda xilma-xil fikrlar bayon qilingan.

Ma'lumki, badiiy tarjimada qilish qiyin bo'lgan, qo'shimcha izohtalab so'zlar - *realiya* deb ataladi. Kishi ismlari, geografik nomlar va milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi so'zlar ham realiya hisoblanadi. Mashxur olim A.V.Fedorov o'zining badiiy adabiyot tarjimasi muammolari bo'yicha yozgan nazariy ishlarida bir xalq realiyalarining boshqa tilga tarjimasining quyidagi usullarini aniqlaydi:

- 1) transliteratsiya¹¹ orqali (to'lik yoki qisman);
- 2) tilda mavjud bo'lgan elementlar va morfologik munosabatlar asosida yangi so'z, so'z birikmasi yoki qo'shma so'z yasash orqali;
- 3) funktsional jihatdan o'xshash, yaqin bo'lgan so'zni qo'llash orqali tarjima qilish. Bu taxminan moe keladigan, kontekstdan tushuniladigan, ba'zida esa tasvirlanishi jixatdan cheklangan tarjimadir.¹²

A.V.Fedorovdan farqli o'laroq bolgar olimlari S.Vlaxov va S.Florinlar realiyalarning bir tildan ikkinchisiga tarjima qilishning quyidagi variantlarini tavsiya etadilar:

¹ Transliteratsiya - (lot. trans - orqali + Htera - harf). Bir til alifbosiga oid matnni boshqa bir til alifbosidan foydalanib, yozuvda anik aks ettirish. Bunda o'z

1. Transkripsiya. Realiza, qabul qilingan qoidalarga muvofiq tarjima qilinayotgan tilga uning grafik vositalari yordamida bevosita kiritiladi. Masalan, inglizchada Miss, Mister, o'zbekchada ham - Miss, Mister va hokazo.

2. Kalka. Alohida so'zning so'z yasovchi elementlari, ko'pincha etimologiyani hisobga olgan holda tarjima qilinadi. Ko'p hollarda tarjima tilining affikslari qo'shilib yangi avval mavjud bo'lmagan so'z hosil bo'ladi.

3. Semantik mutanosiblik asosida yangi so'z yoki so'z birikmasi yasash.

4. O'zlashtirish, ya'ni o'zga tildagi so'zga ona tili tu sini berish.

5. Taxminiy tarjima ma'no jihatdan yaqim bo'lgan, ko'pincha taxminan moe keladigan sinonim yoki izohli so'z birikmasi, ya'ni qandaydir jihatdan yaqin bo'lgan leksik birlik va hokazolar orqali tarjima qilish.

6. Tasviriy tarjima, ya'ni muqobil (ekvivalent) o'rniga tasvirlash, izohlash orqali tarjima qilish.¹³

¹¹ Федеров А.В. Введение теорию перевода, М., 1953 стр. 139.

¹² Транскрипция - (лот. Transcripitio - k'uchiриб ёзиш)

Yuqoridagi olimlarimizning qimmatli fikr va muloxazalaridan ijodiy foydalanish kundalik amaliyotda yaxshi natijalar berishi mumkin.

Demak, har bir xalqning milliy o'ziga xosligini ifodalaydigan spetsifik so'zlarni tarjima qilinayotgan asarda transliteratsiya qilib beraverish kerak; buning uchun xar bir xalqning milliy xususiyatini aks ettiruvchi so'zlarni oddiy, milliy realiyani aks ettirmaydigan so'zlardan farqlay olish va ularni tarjima qilishga yo'l ko'ymaslik kerak.

Inglizcha nomlar haqida ran ketganda ular ham, asosan, transliteratsiya va transkripsiya yo'llari bilan o'girish kerak toki ularni eshitgan, o'qigan zahoti kitobxonning ko'z oldida ingliz kishining timsoli namoyon bo'lsin.

Professor F.Abdullaev J.Londonning "Hayotga muhabbat" va "Meksikalik" hikoyalarini ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasida kishi ismlari, geografik nomlar va milliy xususiyatlarin aks ettiruvchi so'zlarni yuqoridagi qoidalarga rioya qilgan holda tarjima kilgan va bu asl nusxaga moe kelgan. Bu yer da ular transliteratsiya va tarjima bilan berilgan¹⁴:

Kishi ismlari transliteratsiya qilingan: Bill-Bill, Porfirio Dias-Porfirio Dias, Felipe Rivera-Felipe Rivera, Paulina Vera-Paulino Vera, May Sethby-Mey Setbi, Arrelano Ramos -Arellano Romos, Juan Alvarado Xuan Alvarado, Danny Ward-Denni Uord, Billy Carthey-Villi Karti, Roberts-Robers, Spider Hagerty-Spayder Xagerti, Fernandes-Fernandes, Rosalie Martines-Rosilo Martines, Delaney-Dileni, Jose Amarillo-Xoce Amarilo, Prayne- Preyn;¹⁵

1. Dare, ko'l, sahro, shtat, shaxar nomlari va shu kabilar ham transliteratsiya qilingan: Coppermine-Kappermayn, Hudson-Gudzon, Mackenzie-Makkenzi, Titchinnichilie-Titchinnichili, California-Kaliforniya, San-Fransisco-San-Fransisko, Bedford-Bedford, Mexica-Meksika, Los-Angeles - Los-Anjelos, Colorado-Kolorado, New-York - Nyu-York, Yellowstone-Ielloustoun, Rio Blanco - Rio Blanko, Puebla - Pueblo, Vera Cms - Vera Krus;

¹³ Влахов С, Флорин С. Непереваемое в переводе. М., 1980, стр.439-440.

¹⁴ Ўзбек тили адабиёти № 5 1962 73-бет

¹⁵ Пулатов Ю. Баддий асарда номлар таржимаси. Т.: Фан, 1967, 37-бет

3. Ba'zi joy nomlarini mazmuni bilan kitobxonni tanishtirish maqsadida iloji boricha aynan tarjima qilingan: The Great Bear Lake - Katta Ayik ko'li, -"Land of little sticks"- "Kichik og'ochlar o'lkasi".

Shuni aytib o'tish kerakki, badiiy asar yaratishda laqab nomlar muxim stilistik vositalardan biri bo'lib, talqin etilayotgan obrazning ichki xususiyatlarini ochib beradi. Shuning uchun bunday nomlarning ichki mazmuni bilan kitobxonni tanishtirish maqsadida ular aynan tarjima qilingani ma'qul.

Lekin, shunday laqablar borki, ularni umuman tarjima qilib bo'lmaydi. Ana shunday laqablardan biri J.Londonning "Meksikalik" hikoyasida uchraydigan amerikaliklarga nisbatan nafrat bilan qo'llaniladigan *gringo* (gringo) laqabidir. O'zbek tiliga F.Abdullaev tomonidan transliteratsiya orkali "gringo" qanday ma'no anglatishni izohlamagan. Agar tarjimon gringo Meksikadagi va Lotin Amerikasining boshqa mamlakatlaridagi amerikaliklarga nisbatan nafrat bilan to'qilgan laqab, deb pastda izoh berganda, bu kitobxonga yanada tushunarliroq bo'lar edi.

Albatta, har bir badiiy asar tarjimasi jarayonida izoqtalab so'zlar ko'p uchrab turadi. Biz tahlil qilayotgan hikoyalar ham bundan mustasno emas. Tarjimon F.Abdullaev ana shunday so'zlarni ba'zilariga izoh berib tarjimada asliyat ohangini saqlab qolgan. Biz "Meksikalik" hikoyasida uchraydigan tarixiy shaxslar, tashkilotlar nomlariga yuqorida aytib o'tilganidek tagida izoh berishni qo'llaganini nazarda tutyapmiz: *Nobody knew history - they of the Junta least of all* (p. 86) O'zbek tilida: *Hech kim uning o'tmishini bilmas Xunta odamlari esa bu bolani mutlatso tanimas edilar* (32-bet).

They day he first drifted into their crowded, busy rooms they all suspected him of being a spy — one of the bought tools of Dias secret service (p. 86)

O'zbek tilida: *U xuntachilarning tor va odam to'la xonasigya kirib kelganda, uni Diasning¹⁶ sottsin va maxfiy agentlaridan biri deb shubha qildilar* (32-bet).

Asl nusxada ham yuqoridagi so'zlarga izoh berilgan. Tarjimon ham shu yo'nalishda ish yuritgan va bu uning yutuqlaridan biri desak mubolag'a bo'lmaydi.

¹⁶ Диас Порфирно (1830-1915) - Мексиканинг реакцион хукмдори. Халқ оммасининг харакати натижасида (1911 йилда) Диас диктатураси ағдарилди

J.London hikoyalarinng ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasini qiyosiy ham tahliliy o'rganish jarayonida tarjimonning ba'zi bir xatoliklarga yo'l qo'yganligini ham uchratamiz. "Meksikalik" xikoyasida AQSHning Aydaxo shtatida joylashgan *Ker d'Alen* shahrini tarjima qilishda tarjimon qo'pol xatoga yo'l qo'ygan:

Asl nusxada: *Coer d'Alene* (p.92).

O'zbek tilida: Kerd, Alen (40-bet).

Ko'rinib turibdiki, u bir shahar nomini ikkita boshqa-boshqa shahar nomlaridek bergan. Bizning taxminimizcha, bu shahar nomi frantsuz tili grafikasida yozilganligi *Coer d'Alene* sababli tarjimon bu xatoga yo'l ko'ygan. Ma'lumki, frantsuz tilida ikkita unli xarf ketma-ket kelsa, u holda ularning biri tushib koladi. Bu hol ko'pincha artikl, predloglarda sodir bo'ladi. Agar *Coer d'Alene* so'zi qoidaga rioya qilinmay yozilsa, u holda u *Coer de Alene* bo'ladi. Lekin bu noto'g'ri, shu sababli predlogi *Alen* ga apostrof orqali qo'shiladi, Ya'ni *Coer d'Alene* holiga keladi. Ehtimol tarjimon bulardan xabari yo'qdir. Shu sababli 'ni ,ga aylantirilib kamchilikka yo'l qo'yilgan.

Badiiy tarjimada milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi so'zlarni tarjima qilish masalasi qiyin, lekin muhim va aktual masalalardan biridir. Bu asosan, ikki holatning, yani qaysi so'zlarni tarjimada transliteratsiya qilib berish kerak: va qaysi so'zlarni bevosita tarjima qilish lozim, degan fikrning o'rta qo'yilishi bilan bog'liqdir. Bu masalalarga ha yoki yo'q tarzida javob berib bo'lmaydi, albatta. Buning uchun muxim ilmiy-tadqiqot ishlar olib borish, tajribalarni umumlashtirish va shundan keyingina biror xulosaga kelish lozim bo'ladi. Shu nuqtai nazardan J.London hikoyalarining tarjimasida milliy xususiyatlar va realiyalarni aks ettiruvchi qator so'zlar aynan (o'zbek tili fonetikasiga moslashtirilgan xolda) o'zbek tiliga kiritilganini to'g'ri deb hisoblaymiz.

Yana shu mavzuga tegishli tarjimon tomonidan yo'l qo'yilgan ba'zi bir yutuk va kamchiliklarga to'xtalsak.

And his father saw, large big-mistashed, and deepchested kindly above all men whose heart was so large that these was love to overflowing still left for the mother and the little chuchacho playing in the corner of the patio. (Mp 102).

O'zbekchada: *Uning ko'z oldida otasi gavdalanadi. Otasi chorpaxil, shopmo'ylov, muloyim tabiatli kishi edi. U shu qadar oqko'ngil, shu qadar mehri keng odam ediki, uning mexridan ona ham, xovlichaning bir burchagida o'ynab yurgan o'gilchasi xam baxramand bo'lardi* (M.54-bet).

Yuqorida asl nusxa va uning o'zbek tilidagi tarjimasidan parcha keltirilgan. Asl nusxadagi ajratib ko'rsatilgan *muchacho* va *patio* so'zlarini o'qigan kitobxon ularning inglizcha so'z emasligini darrov ilg'aydi. Bu so'zlar ispancha so'zlar bo'lib, J.London ularning ma'nosini hikoya yakunidagi izohda bergan. Muallif hikoyada bosh qaxramon meksikalik bolakay -Riveraning hayolidan kechirayotgan fikr-o'ylarini tasvirlar ekan, kitobxon hayolida meksikalik ispan bolasini tasavvur qilishi uchun uni aynan bolaning ona tilida, ya'ni ispan tilida bergan desak xaqiqatga to'g'ri keladi.

Tarjimon F.Abdullaev esa bu so'zlarni to'g'ridan to'g'ri *hovlicha* va *o'gilcha* deb tarjima qilgan. Bu tarjimaga kolaversa asl nusxaning o'ziga ham hech qanday putur yetkazmagan. Faqatgina o'zbek kitobxonining ko'z o'ngida o'zbeklarning kichkina hovlichalari paydo bo'ladi, vaholanki, xar bir xalk o'ziga xos yashash sharoiti va turar joylarining boshqachaligi bilan bir-biridan tubdan farq qiladi. Shuni xisobga olgan holda tarjimon *muchaho*¹⁷ va *patio*¹⁸ so'zlarini transliteratsiya orqali berib, pastda ularga izoh keltirganda, bu asliyat ohangiga yanada moe hamda kitobxon dunyoqarashining ozgina bo'lsa ham kengayishiga sabab bo'lar edi.

"Hayotga muhabbat" hikoyasida:

Also, he could find flour — not much — a piece of bacon , and some beans (p. 18).

O'zbekchada: *Bundam tashqari, o'sha yerda oz bo'lsa ham un, bir parcha go'sht, loviya ham bor* (5-bet).

Ma'lumki, ingliz, o'zbek, rus va boshqa tillarda go'sht uning qaysi xayvonniki ekanligi nuqtai nazaridan ajratib aytiladi. Masalan, ingliz tilida: beef, bacon va hokazo. O'zbek tilida: qo'y go'shti, mol go'shti, ot go'shti va hokazo. Rus tilida: govyadina, telyatina, svinina va hokazo. Bular hammasi go'sht turlari.

¹⁷ Мучачо - исп. muchacho - бола.

¹⁸ Патио - исп. patio - ховлича

E'tibor bersangiz, uchchala tilda go'sht turlarini aytishda faqat o'zbek tilida ularning qaysi hayvonga tegishliligi bilan birga *go'sht* so'zi qatnashayapti. Asl nusxada Bacon¹⁹(bekon) deb yozilgan bo'lsa, o'zbekcha tarjimada esa tarjimon uni go'sht deb o'g'irgan. Agar asl nusxa muallifi go'sht turi *Besop* emas, fakatgina umuman go'shtni nazarda tutganida, u bu so'zni oddiygina - *meal* (go'sht) deb berar edi. Shunday ekan, tarjimon F.Abdullaev bu so'zni transliteratsiya yoki transkripsiya qilib, pastga olib unga izoh bersa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Ma'lumki, tarjimada bir xalqning kiyim-boshlarini ikkinchi xalqning kiyim-boshlari bilan almashtirib berish mumkin emas. Zero, xalq turmush tushunchalarini anglatadigan so'zlarning mohiyatini aniqlash g'oyat muhimdir. Shu o'rinda bolgar olimlari S.Vlaxov va S.Florinlarning bu haqidagi fikrlarini eslatib o'tmoqchimiz. Bu tadqiqotchilar "Tarjimada tarjima qilinmaydigan so'zlar" nomli maqolasida xalq turmush tushunchalarini aks ettiradigan so'zlarni tarjima qilish yo'llari xususida qimmatli fikrlarini bildirishgan. Xalq turmush tushunchalarini anglatuvchi so'zlar "xalq tilining xalq, millat, mamlakat, kabilaning geografik muxiti, madaniyati, moddiy turmush yoki ijtimoiy-tarixiy koloritiga ega bo'lgan predmetlar, tushunchalar, voqealarning nomidan iborat bo'lgan so'zlar va so'z birikmalardir; bunday so'zlarning boshqa tillarda aniq monand keladigan ekvivalenti bo'lmaydi".¹

"Hayotga muhabbat" hikoyasida *moccasin* so'zi ishlatilgan (19-bet). U o'zbekchaga transliteratsiya orqali *mokassin* deb to'g'ri tarjima qilgan (9-bet). Biroq, unga alohida izoh bermagan. O'zbek kitobxonlari hikoya matnidan uning poyafzalligini tushunib yetsada, uning qandayligi to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi uchun:

Agar tarjimon *mokassin-shvoshshsh* xom terisidan yungli tomoni ustiga qilib tikilgan yumshoq poyafzal deb, ushbu izohni pastda berganda tarjimaning qimmatini yanada oshar edi.

Xullas, tarjimon izohtalab so'zlarga izoh berishi, ularni tug'ri tushuntirishi, demak, kitobxonda so'z ketayotgan predmet, voqea-hodisa to'g'risida aniq va mukammal tasavvur hosil qilishi mutlaqo zarurdir.

¹⁹ Васоп - бекон - камёғ ёш чўчқанинг ниматасидан дудлаб алоҳида усул билан тайёрланган гўшт.

II.2. Jek London hikoyalardagi o'lchov birliklar va frazeologik iboralarining berilishi haqida

Badiiy asardagi o'lchov birliklari tarjimasining o'ziga xos tomonlari, murakkabliklari, chigalliklari mavjud bo'lib, ba'zan u yoki bu o'lchov birligining noto'g'ri berilishi asl nusxa matniga jiddiy putur yetkazishi bilan birga, unga bog'lik voqealar rivojini haddan ziyod bo'rttirib yoki aksincha, kulgili holga keltirib qo'yishi mumkin. Ayniqsa, badiiy asarlarda uchraydigan o'lchov birliklarini tarjima qilishda tarjimon uning nozik jihatlarini ilg'ay olishi kerak bo'ladi. Chunki bunday o'lchov birliklari mazkur xalq yoki muayyan xalqlar tarixiy taraqqiyotining mahsuli bo'lib, uning tarixiy-milliy xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirish bilan xarakterlidir. Jumladan, Qo'shma Shtatlarning, Buyuk Britaniyaning turli hududlarida qadimdan qo'llanib kelingan va hozir ham qo'llaniladigan *pount* (1 (funt), *gallon*(zannon), *pint* (pinta), *guard* (kvarta) va xokazolar kabi og'irlik o'lchov birliklari hamda *foot* (fut), *yard* (yard), *mile* (mil) singari uzunlik, masofa o'lchov birliklari mavjud bo'lib, ularning tarjimalar da ekvivalent yoki funktsional o'xshashlarini topish tarjimondan inglizxabon xalqlarning tarixi, turmush tarzining malliy tomonlari bilan manbalardan xabardor bo'lishini talab etadi.

Jek Londonning "Hayotga muhabbat" va "Meksikalik" hikoyalarida ba'zi o'lchov birliklari uchraydigan xollar bor. Quyida bularni ko'rib chiqamiz.

"Hayotga muhabbat" hikoyasidan:

He knew that it weighed fifteen pounds - as much as all the rest of the pack and it worried him

O'zbekchada: Lekin og'irligi o'n besh qadoq bo'lib, boshqa yukning og'irligidan qolishmasdi,- uni mana shu tashvishga solardi. (10-bet).

Ruschada: Meshochek byl nevelik, on mog pomestitsya mejdu ladonyami, no vesil pyatnadtsat funtov - stolko je, skolko vsyo ostalnoe,- i eto yego trevojilo (str.176).

"Meksikalik" hikoyasidan: "It means five pounds", Roberts complained to Rivera, (p. 100)

O'zbekchada: - Bu besh qadoq oshiqcha demakdir, - deb norozilik bildirdi Roberts, Riveraga qarab (52-bet)

Ruschada: *Eto znachit, lishnix pyat funtov, - nedovolno zametil Roberts Rivere* (str.466).

Quyidagi misolda tarjimon *mile* uzunlik o'lchov birligi tarjimasini transliteratsiya orqali berib, asl nusxa ohangini saqlab qolgan.

That day he decreased the distance between him and the ship by three miles (p.32).

O'zbekchada: *Usha kupi u kesmagacha bulgan masofani uch milga sistartirdi* (26-bet).

Tarjimonlar *pound* o'lchov birligini har xil berishgan. Ruschada tarjimon N.Man uni *funt* deb to'g'ridan to'g'ri tarjima qilgan va bu asl nusxaga moe tushgan. O'zbekchada esa tarjimon F.Abdullaev *pound* o'lchov birligining funktsional o'xshash varianti bo'lgan qadoq o'lchov birligini bergan. Bu bilan tarjimon o'zbek kitobxoniga tushunarli bo'lishini o'ylab, aynan shu variantni qo'llagan deb o'ylaymiz. Umuman olganda bir o'lchov

birligini boshqasi bilai almashtirishda ohangni, tarixiy haqiqatni, milliy kaloritni buzib qo'ymaslik uchun extiyot bo'lish kerak"²⁰, - deb uqtiradi taniqli bolgar olimlari Sergey Vlastov va Sider Florinlar.

Olimlarning fikriga qo'shilgan holda asliyat ohangini yo'qotmay, uni ruschadagidek *funt* deb berib, tagida unga izoh sifatida uning *pound* -ing. og'irlik o'lchov birligi =453,6 g.ga teng, o'zbekcha qadoq o'lchov birligiga funktsional jihatdan o'xshashligini o'qtirib ketilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi. Tarjimonlar badiiy asarlar tarjimasida biror bir xalqning o'lchov birliklarini o'g'irishda ularning asardagi qo'llanilgan o'rniga qarab quyidagi usullardan foydalanganlar:

1. O'z tillaridagi mavjud ekvivalenta orqali.
2. Funktsional o'xshash variantga bilan.
3. Transliteratsiya yo'li bilan.
4. Xolis-obrazlilik yo'li bilan.

²⁰ Влахов С, Флорин С. Непереводимое в переводе. М., 1980, стр.159.

Biroq asliyatdagi biror bir xalqning o'lchov birliklarini o'z tillariga o'girish tarjimonlar uchun murakkab jumboqlardan biri sanaladi. Yozuvchi asar g'oyasidan, ruhiyatidan kelib chiqqan holda o'lchov birliklaridan foydalangan ekan, buni tarjimada arziyas, mayda-chuyda deb hisoblash asarda tasvirlanayotgan voqealar mazmuniga putur yetkazishi bilan birga kitobxonning ishonchini yo'qotadi. Shuning uchun ham o'z tili vositalari yordamida shaklan va mazmunan qayta yaratar ekan, uning badiiy hamda estetik qimmatini mujassam etishda qo'llanilgan har bir detalni ikiri-chikirigacha sinchiklab o'rganish tarjimondankatta masuliyat talab etadi. Zero, "tarjimada faqat umumiy muqobillikka (adekvatlik) emas, balki detallarning aniqligiga ham jiddiy e'tibor berish lozim"²¹.

Adibning hikoyalarda uchraydigan frazeologik iboralarning tarjimasi haqida:

Tilning lug'at sostavit faqat so'zlar emas, balki turg'un bo'lib qolgan so'z birikmalari ham kiradi. Tarkibi ancha murakkab bo'lgan turg'un birikmalar frazeologizmlar yoki frazeologik birikmalar (iboralar) deb ataladi. Tilshunoslikning frazeologizmlarni ilmiy tadqiq qiluvchi soxasi frazeologiya (grekcha phrasis "ibora", logos-"ta'limot" "ibora to'g'risidagi ta'limot") deyiladi. Frazeologizmlar tilning leksikaga kirishi sababli frazeologiyaga tilshunoslikning leksikologiya sohasiga kiruvchi bir bo'lishi sifatida qaraladi.²²

Frazeologizmlar ikki va undan ortiq so'zlarning turg'un birikmasidir. Frazeologizmlarning tarkibida nechta so'z ishtirok etishiga qaramay, ular yagona umumiy ma'no bilan birlashadi va emotsional ekspressiv ma'noni ifodalaydi.

Frazeologizmlar o'zi tegishli bo'lgan tilning boyligi sanaladi. Ular nutqda tayyor til birligi tarzida qo'llaniladi, ko'chiriladi.

Frazeologizmlar odatda uch turli bo'ladi: frazeologik qo'shimchalar, frazeologik butunliklar, frazeologik chatishmalar.

Tarkibidagi bir so'z to'g'ri, ikkinchi so'z esa ko'chma ma'noda bo'lib birikkan iboralar frazeologik qo'shimchalar deyiladi. Tarkibidagi so'zlarning ma'nolari va grammatik jihati birikib umumiy ko'chma ma'no beruvchi iboralar

²¹ Саломов Ф., Комилов Н., Саломов З., Жураев К., Отажонов Н, Таржимон махорати., Тошкент, 1979, 125-бет.

²² Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш, Т.: Ўқитувчи, 1981, 108-бет.

frazeologik butunliklar deb ataladi. Tarkibidagi soʻzlarning maʼnolari bilan ibora ifoda etgan maʼno oʻrtasida hech qanday leksik aloqa sezilmagan frazeologizmlar frazeologik chatishmalar deyiladi.

Frazeologik qoʻshilma yoki butunliklar soʻzlarni oʻzaro biriktirish yoʻli bilan yasalgan yaxlit iboralar boʻlib, ularning tarkibidagi baʼzi komponentlarni almashtirish mumkin. Biroq frazeologik chatishmalarining komponentlarini almashtirish mumkin boʻlmaydi. Bir xil maʼnoga ega boʻlgan, maʼno nozikligi, uslubiy buyogʻi va boshqa jihatdan oʻzaro farqlanadigan frazeologik birliklar frazeologik sinonimlardir. Ularning komponentlarini almashtirish mumkin emas. Oʻz maʼnosi bilan qarama-qarshi boʻlgan iboralar esa frazeologik antonimlardir. Baʼzan frazeologizmlar shaklan toʻgʻri kelib, turli maʼnolarni ifodalaydi. Bunday xodisa frazeologik omonimiya deyiladi.

Odatda frazeologizmlar tildagi erkin soʻz birikmalari asosida hosil boʻladi. Biroq ular koʻchma maʼno kasb etib, komponentlari oʻzaro birikib yaxlit holda qoʻllanishi natijasida singib ketadi, Frazeologizmlarning koʻchma maʼnolari nutq situatsiyasi yoki kontekst yordamida oydinlashadi. Frazeologizmlar turli tillarda oʻsha xalqning baʼzi urf-odatlarini aks ettiradi. Ularni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilishda iboraning komponentlarini soʻzma-soʻz agʻdarmay, toʻgʻri keluvchi iboralardan foydalaniladi.

Frazeologik birliklarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish masalasi tarjimachilikning eng muxim va qiziqarli, shu bilan birga, nihoyatda murakkab tomoni boʻlib, bumasala amaliy jihatdan ham, nazariy jihatdan ham koʻp oʻylantiradi. Baʼzan hatto alohida leksik birliklarni tarjima qilishda maʼlum qiyinchiliklarga duch kelinadi. Frazeologik birliklar esa, leksik birliklardan farqli oʻlaroq, semantik jihatdan ham, leksik kompozitsiya jihatlaridan ham murakkab boʻlib ularning koʻpchiligi milliy xarakterga ega. Frazeologizmlarning bunday xususiyatlari ularni tarjimada berish tilni qiyinlashtiradi.

"Frazeologiya masalalari va turli tillarda soʻzlarning har-xil birikishiga oid umumiy muammo, tarjima amaliyoti bilan birga, tarjima nazariyasi uchun ham gʻoyat muhimdir. Chunki turli tillarda moddiy maʼnosi bir xil boʻlgan soʻzlarning maʼno va uslub funktsiyalari bir-biridan tafovut qilishi, turli tillarda bunday soʻz

birikmalarning farq qilganligi uchun, tarjima amaliyotida katta mushkullik tugdirib, nazariy jihatdan ham juda katta kiziqish uygotadi".²³

Har bir milliy til voqelikni bilish jarayonini mustaqil, o'ziga xos ravishda aks ettirish xarakteriga ega. Har-xil millat farzandlari voqelikni aks ettirishda yoki unga nisbatan munosabatlarini bildirishda har-xil o'xshatish, metaforalardan va tilning boshqa xil badiiy, obrazli va emotsioial vositalaridan foydalanadilarki, bu vositalarning ko'pchiligi vaqt o'tishi bilan doimiy turg'un birikmalarga aylanib qoladi. Bu birikmalar, asosan, tilning frazeologik materiali sifatida shu til lug'at fondidan o'rin oladi va tilning keng iste'mol materiali sifatida, xususan ogzaki nutqda ko'proq qo'llanila boshlaydi.

Bu frazeologizmlar ma'lum ma'no va stilistik funktsiyalarni ifodalash uchun mustaqil ravishda yaratilganliklari uchun ham shu ma'no va stilistik funktsiyalarni ifodalovchi boshqa xalq vakillari tomonidan yaratilgan frazeologizmlardan ko'p hollarda leksik sostavlari jihatidan farq qiladilar.

Bunday iboralar muqobil variantlar deyiladi. Muqobil variantlar deyilganda, bir-birlariga ma'no va stilistik funktsiya jihatlaridan moe bo'lib, leksik sostavi jihatidan farq qiladigan, ba'zan esa bittadan tayanch komponentlari o'xshash ikki til iboralarini tushunamiz. Masalan, "sharoitga moslashish" ma'nosining ifodasi uchun ingliz tilida *"When in Rome, do as the Romans do"* frazeologik iborasi qo'llanilgan ekan, shu ma'noning ifodasi uchun o'zbek tilida *"Qo'shning ko'r bo'lsa, ko'zingni kis"* va rus tilida *"S volkami jit po volchi vıt"* iboralarini qo'llaniladi.

Dunyodagi ko'p tillarda, jumladan, ingliz va o'zbek tillarida ham bir-birlariga muqobil son-sanoqsiz frazeologizmlar mavjudki, bu turli xalqlarning hayotidagi voqea-hodisalarga nisbatan bo'lgan munosabatlarning asosan o'xshashligini bildiradi. Chunonchi, jahondagi barcha xalqlar o'zaro xurmatni ulug'laydilar. Binobarin, bu xislatni aks ettiradigan frazeologik iboralar boshqa tillar qatori ingliz va o'zbek tillarida ham mavjud. Lekin shuni aytish kerakki, hech bir tilda, mavjud tushunchalarning hammasi uchun frazeologizmlar

²³ А.В. Федеров Введение теорию перевода, М., 1953 стр. 169.

yaratilgan emas. Jumladan, "arzimagan ko'ngilsiz votseadan kutilish uchun katta narsani kurbon silmots" ma'nosini ifodalaydigan inglizcha "to burn ones house to get rid of mise" iborasining o'zbek tilida "Burgaga achchik qilib ko'rpani kuydirmots" muqobil variantiga ega bo'lgani holda, rus tilida bunday variantga ega emasligi ajablanarli emas.

J.London hikoyalarining ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilishda tarjimon F.Abdullaev hikoyalarda muallif tomonidan qo'llanilgan frazeologizmlarni o'zbek tiliga to'la va

aniq yetkazib berishga harakat qilgan. Har bir tilda uning o'ziga xos o'xshatish ob'ektlari asosida tuzilgan yoki frazeologik shtamp shakliga kirib qolgan iboralar bo'ladiki, ularni biz o'xshatma frazeologik ibora deb ataymiz.

Har qanday hollarda ham o'xshatma frazeologik iboralarning ob'ektini saqlashga intilish tarjima tilining shirasiz, g'aliz bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun bunday birikmalarda, asarning milliy xususiyatiga zarar yetmaydigan bo'lsa, asl nusxa an'anaviy ob'ekta bilan almashtirish ma'qul.²⁴ Aks holda, tarjima asarning tili bo'sh, tasvir quvvati zaif, ta'sirsiz bo'lib qolishi mumkin.

Quyida hikoyalardan olingan misollarda ingliz, o'zbek va rus tillarida o'xshatma frazeologik iboralarning an'anaviy ob'ektlari bir-biriga moe kelganini ko'rishimiz mumkin:

Asl nusxada:

As strong as a bull *Danny '11 be as*

O'zbek tilida:

Xo'kizdan baquvvat *Denni xo'kizday*

Rus tilida:

Silyon, kak b't *Denni budet silyon,*

<i>Strong as a bull</i>	<i>bauvvat bo'ladi</i>	<i>kak byk</i>
<i>(M.plOO).</i>	<i>(M.15-bet).</i>	<i>(M. str. 466).</i>
<i>Pitiless as steel</i>	<i>Po'lat kabi ayovsiz</i>	<i>Bespouçaden, kak</i>
<i>Cold as frost</i>	<i>Muz kabi sovuts</i>	<i>stal</i>

²⁴ Саломов Ф. Тил ва таржима. Тошкент: Фан, 1966, 294-бет.

<i>He has no heart</i>	<i>Unda shafkat</i>	<i>Xoloden, kak moroz</i>
<i>He is pitiless as</i>	<i>degan narsadan</i>	<i>U nego net serdtsa.</i>
<i>steel, keen and</i>	<i>asar yo‘ts. U po‘lat</i>	<i>On bespouyaden kak</i>
<i>cold as</i>	<i>kabi ayovsiz, muz kabi</i>	<i>stal jestok i</i>
<i>frost (Mp89).</i>	<i>sovuq (M. 37-bet).</i>	<i>xoloden, kak</i>
		<i>moroz (M. str. 294).</i>

Bu misollardan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek tarjimoni frazeologik iboralarning muqobiligini aynan bera olgan va bu to‘la adekvatlikni ta‘minlangan.

Tarjimaning yuqorida ko‘rsatilgan fazilatlar bilan bir qatorda, fikrimizcha, ayrim kamchiliklar ham mavjud:

Well, this little yellow streak has the gall to blow in today and say he'll take Cfrthey'splace (M.p.94).

O‘zbek tilida: *Endi mana shu meksikalik shumtaka Kartining o‘rniga mana men chitsaman, deb ishontiribdi. (M.44-bet).*

Yuqorida ko‘rsatilgan *little yellow streak* frazeologik birligi o‘zbek tiliga *shumtaka* deb tarjima qilingan. *Little yellow streak* frazeologik iborasi "Meksikalik" hikoyasi bosh qahramoni Filipe Riveraga qarata qo‘llanilgan. Asl nusxadagi frazeologik birlikning manosi quyidagi ta‘rifga to‘g‘ri kelishini e‘tiborga olib hamda Riveraning yosh bola bo‘lgani va yosh bolaga to‘g‘ri kelgan narsani ishonib bo‘lmashligi, bolalarga xos bo‘lgan qo‘rqoqlikni, tajribasizlikni xisobga olgan xolda, tarjimon o‘zbek tilida ham moe keladigan muqobil "ona suti og‘zidan ketmagan" frazeologik iborasini qo‘llab, "so‘tak" so‘zini bolaning qo‘rqoqligini ta‘qidlash uchun iboraga qo‘shganida, fikrimizcha, bu asl nusxaga juda ham moe bo‘lardi va quyidagi holga kelar edi:

Endi mana shu ona suti og‘zidan ketmagan so‘tak Kartining o‘rniga mana men chiqaman, deb ishontiribdi (Z.N.).

"Tarjimada muallif uslubini aynan berish uchun leksik-frazeologik vositalarii tanlay ola bilish hal qiluvchi ahamiyatga egadir"²⁵ Shunday ekan, tarjimon qo‘llagan *shumtaka* so‘zi noo‘rin ishlatilgan bo‘lib, u kitobxon hayolida nixoyatda

²⁵ Рецкер Я.И. Задачи сопоставительного анализа переводов (ТКП, 45).

sho‘x, to‘polonchi bolaning timsolini gavdalantiradi. Riveraning fe‘l-atvoriga bu tamoman teskari tafsifligani hikoyani o‘qigan kitobxon darrov ilg‘aydi.

Xuddi shu hikoyada uchraydigan yana bir frazeologik birlikning tarjima qilinmay, tushurib qoldirilganligi esa bizni ajablantirdi.

And he never talked eleven words in a string since I know him. He saw wood and does work (M.p.96).

O‘zbek tilida: *U bilan tanishganimdan beri o‘nta so‘z aytganini eslay olmayman* (M.4b-6et).

Ko‘rinib turibdiki, *saw wood* frazeologizmi qatnashgan ran tarjima qilinmay qolgan. Vaholanki, bu gapda qahramonning xarakteriga xos bo‘lgan xislat haqida so‘z boradi. Tarjimon ingliz tilidagi *saw wood* frazeologizmini ma’nosidan kelibchiqadigan o‘zbek tilida sirini hech kimga bildirmaydigan, o‘z ishiga pishiq, quv, ma’nolarini o‘zida mujassamlashtirgan "*ichidan pishgap*" frazeologik iborasini qo‘llasa, qahramon xarakterini to‘la ochib bergan bo‘lar edi.

Tarjima ishiga katta iste’dod talab qiladigan ijodiy ish deb qaralsa, asarning badiiy qiymatiga, muallifning uslubiga, uning individualligiga, obrazlarining ifodali buyoqlariga zarracha bo‘lsa ham putur yetkazmaslik niyatida tarjima qilinayotgan tilning so‘z xazinasida sinchiklab izlansa, ijodiy izlanish o‘z mevasini berishi mukarrardir.²⁶

Yuqorida ko‘rsatilganidek, ayrim kamchiliklarga qaramay, tarjimon J.London hikoyalarining tarjimasidagi frazeologizmlarni zo‘r muvaffaqiyat bilan kitobxonga yetkazib bera olgan. Tarjimon frazeologizmlarni aniq va to‘g‘ri berish nihoyatda muxim ahamiyatga ega ekanligini qalbdan chuqur his qilgan.

Demak, tarjimada muallifning individual uslubini aks ettirishda frazeologizmlar tarjimasining ahamiyati katta; badiiy tarjima tufayli tilning frazeologiyasi boyiydi; badiiy asar tilida ifodalangan milliy ruxni aks ettirishda frazeologiyaning roli katta; frazeologizmlarni buzib tarjima qilish asar tilini nursizlantiradi va uning badiiy qiymatiga putur yetkazadi.² Tarjimon F.Abdullaev bu masalani chukur tushungan va his qilgan holda o‘z vazifasini ado etganligini

²⁶ Левицкая Т.Р., Фитрман А.М. Проблемк перевода. М.: Международные отношения, 1976, стр. 202.
Саломов Ф. Тил ва таржима. Тошкент: Фан, 1966,240-бет

yana qayd qilamiz. Bunda uning keng mushohadali tilshunos ekanligi katta ahamiyatga ega bo'lgan, albatta.

II.3. Jek London adabiy mahoratida sintaktik figuralarning o'rni.

Jek London ijodiga nazar tashlar ekanmiz, o'z fikr va g'oyalariga alohida urg'u berish uchun, aytilayotgan fikrning ekspressivligini yanada oshirish, kitobxon diqqat e'tiborini kerakli jumlag qaratish uchun tasviriylikning turli sintaktik figuralaridan keng foydalangani guvohi bo'lamiz. Masalan:

"Bunga ajablanmasa ham bo'ladi. U umr bo'yi mana shu mashinalar bilan yashadi. Uni mashinalar tarbiyaladi desa ham bo'ladi. Har holda i mashinalar ichida katta bo'ldi. " (J.London Hikoyalar. "Isyonchi")

Yuqoridagi parchada Jek London anaphora sintaktik figurasidan ustalik bilan foydalanib, Jonning umri naqadar ayanchli va bir xilda o'tishini tasvirlaydi. Anaphora bu shunday stilistik figuraki, bunda bir qancha gaplar, strofalar, abzaslar bir xil konstruksiya bilan bog'lanadi. Bu parallelizm hosil qilib, tinglovchi-o'quvchi diqqati takrorlanuvchi konstruksiyalarga qaratiladi. Anaforalar gaplar, strofalar, abzaslarning o'zaro munosabatga kirishish usuli bo'lib xizmat qiladi.

Takrorlanuvchi birliklar esa so'z, so'z birikmasi, gap shaklida bo'lishi mumkin.

Jek London ijodiy faoliyatida badiiy til vositalarining har bir turidan unumli foydalanishga harakat qilgan va bulardan yagona maqsad asarning ifodaliligini, ta'sichanligini yanada oshirishdir:

"Shu yillar ichida mashinalar tezroq, Jonning miyasi esa sekinroq ishlay bordi. " (J.London Hikoyalar. "Isyonchi")

Yuqoridagi parchada antitezadan foydalanilgan bo'lib, bu logic jihatdan qarama-qarshi bo'lgan ikki qutb (fikr, tushuncha, sezgi va obrazlar)ni qiyoslashdir. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi. Tarkibida antonimlar, Grammatik zidlik munosabatini hamda tasdiq va inkor ifoda qiluvchi Grammatik vositalar, shuningdek, ifodalilikning boshqa zidlash vositalari qo'llanadi. London antiteza yordamida o'sha davrdagi, ya'ni kapitalistik tuzumdagi ishchi larning haqiqiy ahvoli, zavod-fabrikalardagi minglab bolalarning real hayotiari haqida achchiq kinoya qiladi. Ularni qullarga, hatto mashina qullariga aylanib borayotganidan tashvishga tushadi.

Adabiy asarlarda sintaktik figuralardan yana bir turi ritorik so'roqdan ham

unumli foydalaniladi. Bu ekspressiv funksiya tashuvchi sintaktik vositalardandir. Albatta, Jek London ijodida ham bu sintaktik figurani ko'plab uchratish mumkin:

Qominan, muassasalar, urf-odatlarni va dinini, ularni yaratgan odamlarni, xattoki, bu odamlarning tabiatini o'rganmay turib, qanday tushuna olamiz? Adabiyot xam Misr ibodathonalari va exomlari singari odam yaratgan narsa emasmi? Nahotki koinotga butun jahon takomili qonuniga tobo 'Imagan biron narsa bo'lmasa? Men ayrim san'atlarning takomil tarixini ishlab chiqilganini bilaman, lekin i yuzaki ishlangan meningcha. Ўш o 'rinda inson chetda qolgan. Cholg'ulardan arfa, skripkatakumili, muzika, raqs, qo'shiqlarning takomili g'oyat puxta ishlangan. Lekin insonning o'zi, i birinchi cholg'u asbobiniyasamasdan, ilk daf'a qo 'shiq kuylamasdan burun takomillasha boshlagan a 'zolari xaqida nimalarni nimalarni aytish mumkin?

"Martin Iden" romanida asar bosh qahramonini oxir-oqibat o'zi javobini allaqachonlar biladigan bir savol qiynaydi. Endi u hech kimning o'ziga nisbatan munosabatining samimiy ekaniga ishonmay qo'yadi:

Nega endi ilgari jur'at etmadingiz bunga?- deb so'radi i jaxl bilan. — Katalakdek xujrada yashaganimda. Ochlikda kip kechirganimda. O'sha paytda ham men o 'sha — o 'sha Martin Iden edim — ham. odam ham. yozuvchi sifatida. Keyingi paytlarda tez — tez o 'zimga shu savolni berib turaman, faqat siz emas, qolgan hamma odamlarni nazarda tutib aytyapman bu gaplarni. Ko 'rib turibsizki, men hech o'zgargan emasman , holbuki, to'satdan dovuq qozonib ketganim, ba'zan o'zimni ham shubhaga solib qo'yadi. Lekin men o'sha-o'sha Martinman! Mening boshim. ham, yelkalarim ham o'sha, oyoq-qo'llarimda hali ham o'ntadan. barmoq bor. Men hech qanday yangi iste'dod. va yangi fazilatim bilan kerila olmayman.

Miyam ilgari qanday bo'lsa, shundayligicha qolgan. Hatto hech qanday yangi adabiy yoki falsafiy fikrlar ham tug'ilgani yo'q menda. Men. hech. kimga tanilmay yolg'iz yashagan paytimdan buyon shaxsiy qiyamatim hech ortgani yo'q. Bas, shunday ekan, nega endi bir dan hamma u er da aziz mehmon bo'lib qoldim?

Ritorik so'roq gaplarda ifodalangan fikr sof so'roq emas: sub'yekt yangi informatsiya olishni nazarda tutmaydi. so'roq javob talab qilmaydi, balki so'roq orqali hukm ifodalanadi. Uning sintaktik qurilishi logic mazmuniga mos kelmaydi.

Ritorik so'roq gaplar ekspressiv funksiya bajaradi. Ular ko'tarinkili, kuchli emotsiya bilan aytiladi. Emotsiya esa, bir tomondan, zaruriyatning konkret texnik formasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, individ zaruriyati nuqtai nazardan vaziyatni baholash, qayta sozlash, uni zaruriy harakatga tayyorlash mexanizmidir.

Badiiy adabiyotda tasvir etiladigan manbalar doirasi juda ham kengdir. Adabiyot turli xil kasb-hunar egalarining, har xil toifadagi kishilarning his-hayajonlarini tasvirlabgina qolmay, ularning ichki dunyosini, jamiyatdagi amaliyotini ham aks ettiradi. Shuning uchun adabiy uslubda nutq va til vositalari qolgan uslulardagiga qaraganda boshqacharoq - o'ziga xos xarakterda qo'llanadi: agar nutqning boshqa funktsional stillari faqat u yoki bu hodisaning mazmunini xabar qilish uchun xizmat qilsa, badiiy nutq esa bundan tashqari, o'quvchi yoki tinglovchiga estetik va emotsional ta'sir ko'rsatishni ham maqsad qilib qo'yadi. Demak, estetik ta'sir etish funktsiyasi badiiy nutqning o'ziga xos xususiyatidir. Badiiy adabiyotning bu asosiy va o'ziga xos funktsiyasiga adabiy asarda til vositalarini tanlash va ishlatish printsiplari ham to'la bo'ysunadi.

Til vositalaridan individual ijodiy foydalanish badiiy stilning adabiy tilning boshqa funktsional stillariga nisbat o'ziga xosligini belgilovchi eng asosiy xususiyatlardan biridir.

Adabiy til stillarning har birida til vositalaridan foydalanishda individuallikning namoyon bo'lish darajasi turlicha. Masalan, rasmiy stil da biron shaxsiy uslub "muhri"ni ko'rish, topish ancha qiyin. Shunga ko'ra, bu nutq stilida individuallikning namoyon bo'lishi uslub normasining buzilishi deb ham qaraladi. Ilmiy stilda esa individuallikning namoyon bo'lishi ehtimoldan uzoq emas, chunki bu stilni shaxs (individ)ning ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shunday bo'lsa ham, til vositalarini individual ishlatish xususiyati ilmiy stil uchun xarakterli belgi bo'la olmaydi.

Publitsistik stilda esa yanada boshqacharoq. Publitsistikaning ba'zi turlarida individual uslub aniq bilinib turishi mumkin. Ammo til vositalarini tanlash va ishlatishdagi individuallik publitsistik stilning barcha namunalariga xos xususiyat emas.

Adabiy asarlarda individual xususiyati ar asarning badiiylik qimmatini

belgilovchi asosiy o'lchovlardan biridir. Agar asar uslubida individuallik sezilmasa, bunday asar trafaret, badiiy sayoz asar sifatida tasavvur qilinadi.

Yozuvchining badiiy asarda voqelikni badiiy idrok etishi, obraz yaratishi, asar kompozitsiyasi bilan bog'liq bo'lgan individual xususiyatlarning hammasi asar tilida yorqin namoyon bo'ladi.

Yozuvchi qanday voqea va hodisalarni tasvirlashga harakat qilsa, uning asarlarida ham xuddi ana shu voqea va hodisalarni ifodalovchi so'zlar, til elementlarining ko'proq qo'llanilishi tabiiydir. Masalan, Jek Londonning "Hayotga muhabbat" hikoyasidagi quyidagi parchalarni olaylik:

Once he crawled near to the sick wolf. The animal dragged itself reluctantly out of his way, licking its chops with a tongue which seemed hardly to have the strength to curl. The man noticed that the tongue was not the customary healthy red. It was a yellowish brown and seemed coated with a rough and half-dry mucus. (Jack London. "Love of life")

Fattoh Abdullaev tarjimasida:

Bir marta hatto kasal bo'rining oldiga juda yaqin borib qoldi. Bo'ri istar-istamas o'zini chetga oldi va zo'rg'a tilini qimirlatib tumshug'ini yaladi. Uning tili sog'lom bo'rinikidek qizil emas, kul rang-sarg'ish bo'lib, yelim singari quyuq shilliq bilan qoplangan. (J.London. Hikoyalar. "ayotga muabbat".)

Yuqorida keltirilgan parchadagi bo'ri haqidagi bu tasvir Londonning hayvonot dunyosini naqadar yaqindan bilishi, ularning psixikasi, yurish-turishlari borasidagi ilmi naqadar kuchli ekanidan dalolat beradi. Aynan hayvonot dunyosi haqidagi chuqur bilimlari London ijodining deyarli barcha o'rinlarida o'z aksini topadi. London qanday voqea va hodisalarni tasvirlashga harakat qilmasin, uning asarlarida ham tabiat, undagi stixiyalar va hayvonot dunyosiga aloqador o'xshatishlar, iboralar, tasvirlar kabi til elementlari ko'plab uchraydi. Xususan, "Hayotga muhabbat" hikoyasida 18 xil hayvon nomining 88 marotaba tilga olinishi ham bunga izoh bo'la oladi. Bu kabi elementlar London ijodida shunchalik ko'p ishlatiladiki, ular nafaqat tabiatni tasvirlovchi asarlarda, balki kishilik jamiyati haqidagi asarlarida ham o'z aksini topadi. Masalan, "Martin Iden" asaridagi quyidagi parchalarni olaylik:

... it dawned upon him that the other reminded him of the trade wind, of the Northeast Trade, steady, and cool, and strong. He was equable, he was to be relied upon, and withal there was a certain bafflement about him. Martin had the feeling that he never spoke his full mind, just as he had often had the feeling that the trades never blew their strongest but always held reserves of strength that were never used. Martin's trick of visioning was active as ever. (Jack London. "Martin Iden")

Qodir Mirmuhamedov tarjimasida:

U professorga qarab o'tirib, uning shimoli-sharqdan esadigan shiddatli, sovuq va kuchli shamolga o'xshash jihatlari borligini topdi. Professor ham. mazkur shamol singari. vazmin va inobatli edi, lekin uning kishini. hayratda qoldiradigan xislatlari bor edi. Shimoli-sharqiy tropik shamol hech qachon jon-jahdi bilan o'sha kuchidan foydalanmagani singari, professor ham, aftidan, o'z mulohazasini hech qachon poyoniga yetkazib bayon qilmasa kerak, deb o'yladi Martin. (J.London. "Martin Idei".)

Jek London ijodida kapitalistik jamiyatdagi, o'sha davr turmushidagi salbiy voqea-hodisalar va salbiy harakterlarga qarshi kurashda ironiya va sarkazmlardan keng foydalanadi. Haqiqatan ham, ironiya shunday usulki, yuzaki qaraganda, so'zlivchi jiddiy gapirayotganga o'xshaydi, ammo uning tagida haqiqiy ma'noga qarshi bo'lgan yashirin kulgi yotadi. Masalan, "Isyonchi" hikoyasidan keltirilgan quyidagi parchalarni ko'rib chiqaylik:

"Lekin Jonning hayotida yangiliklar ham bo'lib turardi: bu boshqa ishga o'tganidayoki kasal bo'lganidayuz berar edi. " (J.London Hikoyalar. "Isyonchi".)

Yoki bechora bolaning quvonchi haqida London shunday ta'rif beradi:

"Uning hayotida bir necha muhim hodisa ro'y bergan edi: bir marta onasi Kaliforniya olxo'risi olib keldi. Ikkinchi marta onasi qaynatma krem qilib berdi. Bular uning hayotidagi chinakam ajoyib hodisalar edi. Bularni i juda. mamnuniyat bilan eslardi. O'sha vaqtlarda onasi unga nodir bir ovqat tayyorlab berishni va'da qilgandi. Onasi bu ovqatni "suzuvchi orol" deb atardi. Bu ovqat qaynatma kremdan ham. shirinroq narsa degan edi. onasi. O'sha kunni Jonni ko'p yillar kutdi.

Bu umidi ham ko'p boshqa shirin xayollar singari puchga chiqqunchq, Jonni "suzuvchi oral" qo'yilgan dasturxonga o'tirishni uzoq yillar kutib yurdi." (J.London

Hikoyalar. "Isyonchi".)

Bu kabi til vositalaridan unumli foydalanar ekan, London o'zi yashayotgan jamiyatning asl basharasini ochib beradi va ana shu jamiyatning qonun-qoidalari, turmush tartiblari, hayot tarzi ustidan achchiq kuladi.

Kapitalistik tuzumning xalq boshiga ne kulfatlar solganini tasvirlash yozuvchining g'oyaviy pozitsiyadan, xalq manfaatlari pozitsiyasidan yaqinlashganini ko'rsatadiki, bu Jek London individual badiiy uslubi va, albatta, realizmining tavsifi uchun juda muhimdir. Realizm doimo ilg'or, gumanistik va demokratik ijtimoiy fikr bilan chambarchas rivoj topadi. Realistik asarlarda voqealarni haqqoniy tasvirlash esa detallaming haqqoniyligidan boshlanadi, chunki hayotni obrazlar orqali, konkret tasvirlashi lozim bo'lgan adabiyotda, sar'atda bir butunning ajralmas qismi va o'sha butunning tipik xususiyatlarini o'zida aks ettirishi lozim bo'lgan detallar alohida ahamiyatga ega. Adabiy asarda detallaming haqqoniy bo'lishi - obrazlaming, xarakterlarning va butun hayot manzaralarning haqqoniy boiishini ta'min etadi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Jek London asarlarining xalq orasida mashhur boiishining asl sabablari uning real voqealarni real tasvirlashida deb aytish mumkin. Zero xalq bu asarlarni o'qir ekan unda o'zini, o'z hayotini, farzandlari va ularning ayanchli turmushini ko'radi. Bu jihatdan London hikoyaiari o'sha davr jamiyatining asl qiyofasini ko'rsatib beruvchi ko'zgu vazifasini o'taydi.

Jek London badiiy ijodi jarayonida turli xil ifoda vositalaridan foydalanar ekan, yagona maqsad voqelikni kitobxon ko'z o'ngida real gavdalantirish, kishilik jamiyatining dolzarb muammolarini yoritib berishdir.

Jek London hikoyalarini tarjima qilar ekan Fattoh Abdullaev ko'plab turdagi o'xshatish strukturalaridan foydalangan. Masalan, o'xshatish oborotlarini olaylik. Bu o'xshatishning ko'p tarqalgan formasidan biri hisoblanib, ba'zan o'xshatish ergash gaplarga o'xshab ketadi. Ammo ularni aralashtirmaslik kerak: "O'xshatishoborotlari, sostavlari qancha keng boisa ham, tarkiblarida ega va kesimlari bo'lmagani uchun ergash gap boia olmaydilar"²⁷. Masalan:

"Uning qadam tashlashi odamning qadam tashlashiga o'xshamas, umuman

o'zi ham odamga o'xshamasdi, i odamning kulgili bir tasviri, holdan toygan, abjaq bo'lgan bir maxluqqa o'xshardi. Xuddi kasal maymundek qo'llari ikki yoniga osilgan, bukchaygan, ko'krak qafasi tor, dahshatli bir vujudgandiraklab borardi". (J. London. Hikoyalar. "Isyonchi". 98-bet)

London Hikoyaiari tarjimalarida birdan ortiq vosita ishtirok etgan o'xshatish formalarini ham uchratish mumkin. Masalan:

"Dovonning faqat bir tomonida xuddi kuchli shamoldan qiyshayib ketgan kema palubasidek qoyalar yonboshlab pastga qarab tushgan". (J.London. Hikoyalar. "Shimol Odisseyasi". 18-bet).

Yoki:

"Kemamiz esa xuddi yaralangan baliqchi qushdek shamolda chayqalib borardi". (J.London. Hikoyalar. "Shimol Odisseyasi". 28-bet).

Jek London ijodiga nazar tashlar ekanmiz, o'z fikr va g'oyalariga alohida urg'u berish uchun, aytilayotgan fikrning ekspressivligini yanada oshirish, kitobxon diqqat e'tiborini kerakli jumlagi qaratish uchun tasviriylikning turli sintaktik figuralaridan keng foydalangani guvohi bo'lamiz. Masalan:

"Bunga ajablanmasa ham bo'ladi. Uumr bo'yi mana shu mashinalar bilan yashadi. Uni mashinalar tarbiyaladi desa ham bo 'ladi. Har holda i mashinalar ichida katta bo 'Idi. "

Yuqoridagi parchada Jek London anaphora sintaktik figurasidan ustalik bilan foydalanib, Jonning umri naqadar ayanchli va bir xilda o'tishini tasvirlaydi. Anaphora bu shunday stilistik figuraki, bunda bir qancha gaplar, strofalar, abzaslar bir xil konstruksiya bilan bog'lanadi. Bu parallelizm hosil qilib, tinglovchi-o'quvchi diqqati takrorlanuvchi konstruksiyalarga qaratiladi. Anaforalar gaplar, strofalar, abzaslarning o'zaro munosabatga kirishish usuli bo'lib xizmat qiladi.

Takrorlanuvchi birliklar esa so'z, so'z birikmasi, gap shaklida bo'lishi mumkin.

Jek London ijodiy faoliyatida badiiy til vositalarining har bir turidan unumli foydalanishga harakat qilgan va bulardan yagona maqsad asarning ifodaliligini, ta'sichanligini yanada oshirishdir:

"Shu yillar ichida mashinalar tezroq, Jonning miyasi esa sekinroq ishlay

bordi. "

Yuqoridagi parchada antitezadan foydalanilgan bo'lib, bu logic jihatdan qarama-qarshi bo'lgan ikki qutb (fikir, tushuncha, sezgi va obrazlar)ni qiyoslashdir. Bunda biri ikkinchisini rad etadi yoki inkor qiladi.

III BOB. J.LONDON HIKOYALARINING INGLIZ TILIDAN O'ZBEK TILIGA O'GIRILGAN TARJIMALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

III.1. Jek London hikoyalarida badiiy til vositalari va ularning tarjimai

Ma'lumki, til - aloqa quroli, adabiyotda esa u ifoda vositasi. Shunday ekan, til yozuvchi fikrini anglatishda asosiy omil bo'lishi kerak.. Asliyatni qanday lisoniy uslub bilan tarjima qilish bu tarjimonning uslubiga bog'liq narsa. Badiiy asar har xil uslubda, turlicha maromda yozilgan bo'lishi mumkin. Bunda ko'p narsa asarda tasvirlanayotgan davr, tanlangan mavzu, voqealarning xarakteriga bog'liq. Agar tarjima qilish uchun tanlangan asarning bunday belgilari aniqlanmagan boisa, uning ruhiga mos kalit topib bo'lmaydi, natijada garchand asar boshqa tilga ko'chirilsa-da, u yangi kitobxonga o'z tilsimotini ochmaydi. Shu tariqa tarjima qilishdan ko'zlangan maqsad amalga oshmaydi. Bundan shu narsa kelib chiqadiki, tarjimon asarni tarjima qilishdan avval muallifning uslubini aniqlashi kerak. Aks xolda, muallif uslubining kaliti topilmas ekan, ayni bir asami eng iste'dodli ijodkor tarjima qilgani bilan ham chinakam san'at asari bunyod etilmay qolaveradi. Ikki ijodkor: yozuvchi va tarjimon bir-birlarini tushungan taqdirda esa yuksak so'z san'ati namunasidan yana bir san'at asari tug'iladi.

Har bir badiiy asar muayyan bir davrda bo'lib o'tgan voqealarni tasvirlaydi. Chunonchi, tarixiy mavzuda yozilgan asarhozirgi zamon kitobxonini xalq hayotining tarixi bilan tanishtiradi, uni o'tmishga yetaklaydi. Tarjimada davr ruhi, davr nafasi, davrning adabiy tili tushunchasi bilan bog'liq yetakchi mayllarni aks ettirish jiddiy murakkab va kompleksdir. U shuning uchun ham kompleks xarakterga egaki, bu yerda masalani faqat bir davr, muayyan yozuvchining ijodidan qilingan tarjimalar, bir tarjimon qo'llagan tajriba, va nihoyat, alohida olingan bir adabiy janr doirasida qilingan tarjimalar bilan chegaralangan holda tahlil qilib bo'lmaydi.

Badiiy asar tilining yuqorida qayd etilgan xususiyatlari unda ko'pgina til vositalarining ishlatilishi natijasida yuzaga keladi. Tarjimon ana shu vositalarni o'rganadi va ularni mukammallashtiradi, ayrim hollarda yangi til vositalarini kashf etib, xalq tilini boyitadi.

O'quvchilar va ba'zi adabiyotshunoslar orasida, badiiy adabiyotning alohida tili bor, degan fikr yuradi. Bu noto'g'ri. Badiiy adabiyotning xalq tilidan ajralib turuvchi alohida tili bo'lishi mumkin emas. Agar shunday bo'lgan taqdirda, badiiy adabiyot keng omma tomonidan tushunilmas edi. Badiiy adabiyotning alohida tili bor, degan fikr badiiy tilning o'ziga xos xususiyatlarining ahamiyatini xaddan oshirib baholash natijasida kelib chiqqan.

Yozuvchi xalq tilining boy xazinasidan istaganicha material oladi. Asarning badiiy to'qimasida yuzlarcha maqollar, maxsus ifodalar, turli -rb'oralar, gaplar, qochirimlar, so'z o'yinlari tovlanadi. Ana shular tilni jonli, obrazli bir tilga aylantiradi. Badiiy asar tilini jonli va obrazli qiladigan vositalar badiiy til vositalari deb ataladi. Ba'zan muallif voqeani bamaylixotir, jiddiy holda hikoya qiladi-yu, ammo so'zlarning asl ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda qo'llab, biror kishi yoki hodisa ustidan kesatiq bilan, masxaromuz yashirin kuladi.

So'zlar va iboralaraing kesatiq va piching bilan o'z ma'nosiga qarama-qarshi ma'noda ishlatilishi ironiya (kinoya) usuli deyiladi.

Jek London ijodida kapitalistik jamiyatdagi, o'sha davr turmushidagi salbiy voqea-hodisalar va salbiy harakterlarga qarshi kurashda ironiya va sarkazmlardan keng foydalanadi. Haqiqatan ham, ironiya shunday usulki, yuzaki qaraganda, so'zlivchi jiddiy gapirayotganga o'xshaydi, ammo uning tagida haqiqiy ma'noga qarshi bo'lgan yashirin kulgi yotadi. Masalan, "Isyonchi" hikoyasidan keltirilgan quyidagi parchalarni ko'rib chiqaylik:

"Lekin Jonning hayotida yangiliklar ham bo'lihi turardi: bu boshqa ishga o'tganida yoki kasal bo'lganidayuz berar edi. " (J.London Hikoyalar. "Isyonchi".)

Yoki bechora bolaning quvonchi haqida London shunday ta'rif beradi:

"Uning hayotida bir necha muhim hodisa ro'y bergan edi: bir marta onasi Kaliforniya olxo'risi olib keldi. Ikkinchi marta onasi qaynatma krem qilib berdi. Bular uning hayotidagi chinakam ajoyib hodisalar edi. Bularni u juda mamnuniyat bilan eslardi. O'sha vaqtlarda onasi unga nodir bir ovqat tayyorlab berishni va'da qilgandi. Onasi bu ovqatni "suzuvchi orol" deb atardi. Bu ovqat qaynatma kremdan ham shirinroq narsa degan edi onasi. O'sha kunni Jonni ko'p yillar kutdi.

Bu umidi ham ko'p boshqa shir in xayollar singari puchga chiqqunchq, Jonni "suzuvchi orol" qo'yilgan dasturxonga o'tirishni uzoq yillar kutib yurdi." (J.London Hikoyalar. "Isyonchi".)

Xuddi shu hikoyadan yana bir misol keltiramiz:

Jonning yashi o'n to'rtga kirganda kraxmal sexiga ishga o'tdi. Bu juda quvonchli hodisa edi. Bu shunday katta hodisa ediki, uni bir kechada, hatto bir haftada ham unutib bo'lmadi. Uning hayotida yangi davr boshlandi. Bu davr Jonni uchun bir olimpiadadek gap edi, yangi earning boshlanishi edi. Endi Jonning og'zidan: "Kraxmal sexiga o'tganimda", yoki "Kraxmal sexida ishlay [boshlaganimdan](#) keyin" yo "oldin" degan so'zlar tushmay qoldi." (J.London Hikoyalar. "Isyonchi".)

Bu kabi til vositalaridan unumli foydalanar ekan, London o'zi yashayotgan jamiyatning asl basharasini ochib beradi va ana shu jamiyatning qonun-qoidolari, turmush tartiblari, hayot tarzi ustidan achchiq kuladi.

Kapitalistik tuzumning xalq boshiga ne kulfatlar solganini tasvirlash yozuvchining g'oyaviy pozitsiyadan, xalq manfaatlari pozitsiyasidan yaqinlashganini ko'rsatadiki, bu Jek London individual badiiy uslubi va, albatta, realizmining tavsifi uchun juda muhimdir. Realizm doimo ilg'or, gumanistik va demokratik ijtimoiy fikr bilan chambarchas rivoj topadi. Realistik asarlarda voqealarni haqqoniy tasvirlash esa detallarning haqqoniyligidan boshlanadi, chunki hayotni obrazlar orqali, konkret tasvirlashi lozim bo'lgan adabiyotda, sar'atda bir butunning ajralmas qismi va o'sha butunning tipik xususiyatlarini o'zida aks ettirishi lozim bo'lgan detallar alohida ahamiyatga ega. Adabiy asarda detallarning haqqoniy bo'lishi - obrazlarning, xarakterlarning va butun hayot manzaralarning haqqoniy bo'lishini ta'min etadi. Ana shu nuqtai nazardan qaraganda Jek London asarlarining xalq orasida mashhur bo'lishining asl sabablari uning real voqealarni real tasvirlashida deb aytish mumkin. Zero xalq bu asarlarni o'qir ekan unda o'zini, o'z hayotini, farzandlari va ularning ayanchli turmushini ko'radi. Bu jihatdan London hikoyalari o'sha davr jamiyatining asl qiyofasini ko'rsatib beruvchi ko'zgu vazifasini o'taydi.

Jek London badiiy ijodi jarayonida turli xil ifoda vositalaridan foydalanar ekan, yagona maqsad voqelikni kitobxon ko'z o'ngida real gavdalandirish, kishilik jamiyatining dolzarb muammolarini yoritib berishdir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, har bir yozuvchining o'z badiiy uslubi boiib, bu yozuvchining individual uslubi sanaladi. Voqelikni ifodali,espressiv, jonli va jozibali ifodalash uchun Jek I^ondon ham turli xil badiiy til vositalaridan foydalanadiki, bu vositalar asar tilining o'ziga xos bo'lishini ta'minlaydi.

O'xshatish ikki narsa yoki voqea-hodisa q'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini toiaroq, konkretroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdir. O'xshatish eng qadimiy tasviriy bositalardan boiib, eng sodda va juda ko'p qo'llanadigan sintaktik hodisa hisoblanadi.

Tropning bir ko'rinishi sifatida o'xshatish adabiyotshunoslikning o'rganish ob'yekti hisoblanadi; uning ifodalanish usullari, struktual sostavini o'rganish, shu bilan birga, gapning tarkibiy komponenti ekanligi va, nihoyat, u ma man u til fakti sifatida tilshunoslikningham ob'yekti hisoblanadi.²⁸

O'xshatish Abdulla Qahhor fikricha, "o'quvchiga oz maium bo'lgan yoki mutlaqo maium boimagan narsa unga juda ham maium boigan narsaga o'xshatilishi kerak."²⁹ O'xshatish asosan nutqiy hodisa hisoblanadi. Chunki maium predmet biror boshqa predmetga o'xshatilsa, xuddi shu predmet boshqa o'rinda ikkinchi narsaga o'xshatilishi mumkin.

Ammo yuzni oyga, qizni gulga qiyos qilinadigan doimiy o'xshatishlar borki, ular ham emosionallik, ham baholash qiymatini yo'qotgan. Bu tipdagi o'xshatishlarni lingvistik hodisa sifatida qarash kerak. O'xshatish to'rt asosiy qismdan tarkib topadi:

Bo'lardagi qip-qizil lola

Bo'lib go'yo yoqut piyola,

Buloqlardan uzatadi suv,

El ko'zidan qochadi uyqu. (H.O.)

²⁸ A.Tixonov, R.Kungurov. Sravneniya v russkom i uzbekskom yazykax, "Respublikanskaya konferensiya po voprosam yazykoznaniya i metodika prepodavaniya inostrannyx yazykov", Alma-Ata, 1964., 73-bet.

²⁹ O.Sharafiddinov. Abdulla Qahhor.T., "Yosh gvardiya", 1988.205-bet.

Keltirilgan misolda o'xshatilgan predmet (1) lola, o'xshatiladigan predmet (2) piyola, asos (3) yoqut va o'xshatish vositasi - go'yo.

Jek London hikoyalarini tarjima qilar ekan Fattoh Abdullaev ko'plab turdagi o'xshatish strukturalaridan foydalangan. Masalan, o'xshatish oborotlarini olaylik. Bu o'xshatishning ko'p tarqalgan formasidan biri hisoblanib, ba'zan o'xshatish ergash gaplarga o'xshab ketadi. Ammo ularni aralashtirmaslik kerak: "O'xshatish oborotlari, sostavlari qancha keng bo'lsa ham, tarkiblarida ega va kesimlari bo'lmagani uchun ergash gap boia olmaydilar"³⁰. Masalan:

"Uning qadam tashlashi odamning qadam tashlashiga o'xshamas, umuman o'zi ham odamga o'xshamasdi, u odamning kulgili bir tasviri, holdan toygan, abjaq bo'lgan bir maxluqqa o'xshardi. Xuddi kasal maymundek qo'llari ikki yoniga osilgan, bukchaygan, ko'krak qafasi tor, dahshatli bir vujud gandraklab borardi". (J. London. Hikoyalar. "Isyonchi". 98-bet)

London Hikoyaiari tarjimalarida birdan ortiq vosita ishtirok etgan o'xshatish formalarini ham uchratish mumkin. Masalan:

"Dovonning faqat bir tomonida xuddi kuchli shamoldan qiyshayib ketgan kema palubasidek qoyalar yonboshlab pastga qarab tushgan". (J.London. Hikoyalar. "Shimol Odisseyasi". 18-bet).

Yoki:

"Kemamiz esa xuddi yaralangan baliqchi qushdek shamolda chayqalib borardi". (J.London. Hikoyalar. "Shimol Odisseyasi". 28-bet).

-day (-dek), -simon, -ona, -omuz, -ga, -asiga, -larcha affikslari yordamida ifodalangan o'xshatishlar:

"Uning ingichka barmoqlari xuddi bilanidek yo'g'on tortib ketgandek, barmoqlarining uchi esa paxtadek yumshoq tuyular, fikrlari singari barmoqlari ham itoat etmasdi". (J.London. Hikoyalar. "Buyuk sehrgar". 93-bet).

Sifat (o'xshash, teng), ko'makchi (kabi, singari, qadar), bo'lovchi (go'yo, go'yoki), olmosh (o'zi), ravish (aynan) kabi so'zlar vositasida ifodalangan

³⁰ A.Shomaqsudov, O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, "O'qituvchi nasbriyoti, 1983-yil 240-bet.

o'xshatishlar:

"Endi uning qoracha yuzi so'nayotgan gulxanning xira yorug'ida oltin kabi yaltirardi, uning sochlari qarg'a qanotlari o'xshab ketar, ko'zlari esa xuddi haqiq kabi charaqlab turardi". (J.London. Hikoyalar. "Kish o'g'li Kish". 118-bet).

Yoki:

"Ular xuddi sizga o'xshagan oq tanli va juda holdan toygan, ocharchilik kunlarida ovchilar tyulen ovigaborib, quruq qaytib kelganlarida, kichik bolalarning ahvoli naqadar mushkul bo 'ha, ularniki ham shunday edi". (J.London. Hikoyalar. "Shimol Odisseyasi". 18-bet).

Yoki:

"Unga ustalik bilan eshkak tortar, mening yuragim esa ko'tarilgan yelkan singari tipirchilar edi". (J.London. Hikoyalar. "Shimol Odisseyasi". 21-bet).

O'xshatish ergash gaplari:

"Bola uyg'onishni sir a ham istamas, xayolparast o'z xayoliy orzularidan ajralishni istamagandek, shirin uyqudan ajralgusi kelmasdi". (J.London Hikoyalar. "Isyonchi". 78-bet)

Tildagi ko'pgina so'zlar o'z ma'nosidan boshqa ma'nolarni, hatto ba'zan o'z ma'nosiga qarama-qarshi bo'lgan ma'nolarni ifodalash uchun ham qo'llanadi. bir predmet belgisi boshqa predmetga ko'chiriladi, o'xshatiladi.

"Adabiy asarning badiiy qimmatini, ifodaliligini, ekspressivlikni kuchaytirish uchun bir narsaning nomini, belgisini ikkinchisiga ko'chirish yoki so'zlarning umuman ko'chma ma'noda ishlatilishi trop deyiladi" . Ongimizda qandaydir xususiyatlari bilan, belgilari bilan bir-biriga yaqin bo'lgan ikki predmet yoki hodisani cho'ishtirish, o'xshatish tropga asos qilib olinadi. Ya'ni biror predmet Yoki voqea-hodisa haqida aniq, yorqin tasavvur hosil qilish uchun unga boshqa bir predmet yoki voqeaning belgisi ko'chiriladi, o'xshatiladi. London hikoyalarini o'qir ekanmiz, yozuvchining ham, tarjimonning ham bu kabi badiiy til vositalaridan mohirona foydalana olganliklari va shu orqali asar ifodaliligini, ekspressivligini kuchaytira olganliklari guvohi bo'lamiz. Xususan, London hikoyalarida tropning bir ko'rinishi bo'lmish metaforadan ham unumli

' A.Shomaqsudov. O'zbek tili stilistikasi. Toshkent, "O'qituvchi" nashriyoti, 1983-yil. 236-bet.

foydalanilgan. Metaforadan nutqqa obrazlilik, emosiya berish maqsadida narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, so'zlar va iboralarning ko'chma ma'noda ishlatilishida foydalaniladi. Masalan:

"Tog'laming qoq yuragiga yetib olish uchun, tog' qoyalarida oyoq sirg'alib ketmasligi uchun muzni o'yib, zinapoya qilishga to'g' 'ri keldi". (J.London. Hikoyalar. "Shimol Odisseyasi. 33-bet).

Bu o'rinda "togiarning qoq yuragi" metaforasidan foydalanilmoqda.

Metaforani yashirin o'xshatish deyish ham mumkin. Ammo oddiy o'xshatish har doim asosiy ikki a'zodan tashkil topsa (ya'ni nima qiyos qilinadi, nima bilan qiyos qilinadi, qiyos qilinuvchi va qiyoya qilinadigan predmet), metaforada faqat ikkinchi a'zo - o'xshatilgan narsa qoladi, o'xshagan narsa tushirib qoldiriladi va u kontekstda ochiq sezilib turadi, demak, metaforada tasvirianayotgan predmet ana shu ikkinchi a'zo orqali idrok qilinadi. Masalan:

"Lekin Remaning tumshug'i sohilga kelib urilganda, yot o'lkalik kishilar o'z ishlari bilan band bo'lib, bizga hech e'tibor bermadilar". (J.London. Hikoyalar. "Shimol Odisseyasi. 23-bet).

Maiumki, tumshuq so'zi hayvonlarga nisbatan qo'llaniladi. Bu o'rinda "tumshuq" deganda kemanding old qismi nazarda tutiladi va o'xshatilayotgan narsa tushirib qoldirilmoqda. Yana bir mi sol:

Bu umidi ham ko'p boshqa shir in xayollar singari puchga chiqqunchq, Jonni "suzuvchi orol" qo'yilgan dasturxonga o'tirishni uzoq yillar kutib yurdi." (J.London Hikoyalar. "Isyonchi". 90-bet)

Bu o'rinda xayolni "shirin" deb qandaydir predmetga yashirin o'xshatilmoqda. Kitobxonga esa "shirin" xususiyati qaysi predmetga tegishli ekani kunday ravshan. Yoki:

"Uning qora ko'zlari juda sovuq boqar, nazari allaqanday zaharli edi. Bu ko'zlarda poyonsiz g'azab, cheksiz kek o'ti yonib turardi". (J.London. Hikoyalar. "Meksikalik". 126-bet).

Ko'zlarning "sovuq"ligi, nazarning "zahar'iligi, g'azabning "poyonsiz'iigi, va ko'zlarning "yonishi" qaysidir ma'noda predmetlarning o'zaro o'xshash jihatlarini bir-biriga yashirincha o'xshatilishi demakdir.

Tropning yana bir ko'rinishi bu metonimiya bo'lib, bu hodisa ham so'zlarning ko'chma ma'nosi bilan bog'liq. Ammo bu yerda asosan biror narsa yoki voqea-hodisaning nomi boshqa bir narsa yoki hodisaga ko'chiriladi. Bu predmet Yoki voqea-hodisa ongimizda bir-biri bilan aloqador tushunchalarni anglatishi bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Metaforada bir-biriga o'xshash predmetlarning belgilari ko'chirilsa, metonimiyada bu ikki predmet tashqi ko'rinishi yoki ichki xususiyatlari bilan bir-biriga qandaydir aloqasi bo'lsa ham, ammo, umuman bir-biridan farq qiluvchi (bir-biriga o'xshamagan) predmetlarning belgilari chog'ishtiriladi. Masalan:

"Arslon yolll bizni quvib o'tib ketmoqchi va rus harbiy kemasining ta'qibidan qutulmoqchi ekanini yaxshi tushundik". (J.London. Hikoyalar. "Shimol Odisseyasi. 28-bet).

Bu o'rinda "arslon yolli" metonimiyasi orqali ma'lum bir tashqi ko'rinishi arslonga o'xshagan inson anglatilmoqda. Yana bir misol:

"Men Oppoq Sokinlikda oiim bilan, meni masxara qilib kulayotgan ana shu xotin bilan yolg'iz o'tirar edim". (J.London. Hikoyalar. "Shimol Odisseyasi. 37-bet).

Umuman, Jek London asaiiarida tropning har bi turidn unumli va maqsadli foydalanilganining guvohi boiamiz. Xususan, mubolag'a haqida ham shu fikrni aytish mumkin. Ma'lumki, mubolag'a ham ko'chma ma'noga asoslanadi. Lekin tropning boshqa tuiiaridagi ko'chma ma'no asosida qandaydir o'xshatilish, Yoki boshqa biror predmet va voqea-hodisa tushunilsa, haddan tashqari kuchaytirish - mubolag'a to'g'ri ma'noda tushunmaslikni talab qiladi. Masalan:

"U shu qadar baland bo'yli va baquvvat ediki, yurganda oyoqlarining ostidagi yer titraganday bo'lardi". (J.London. Llikoyalar. "Shimol Odisseyasi. 23-bet).

Mubolag'a priyomidan foydalanayotganda u haqiqatga qay darajada mos

kelishiga e'tibor berish kerak. Aks holda, mubolag'a badiiy bo'yoq berish o'rniga o'quvchida ishonchsizlik uyg'otishi mumkin

III.2. Hikoyalardagi o'xshatishlar tarjimasi masalasi

Uxshatish eng qadimgi va badiiy asarlarda ko'p qo'llanadigan muxim tasviriy vositalardan biri bo'lib, u odatda, ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan bo'ladi. Uxshatish nutqiy hodisa bo'lib, uning maqsadi o'xshatilayotgan voqea-hodisa yoki narsalarning birining belgisi va mohiyatini ikkinchisining belgi va mohiyati orqali to'laroq, bo'rttiribroq ko'rsatib berishdir. O'xshatish dunyoning barcha tillariga hos uslubdir. O'xshatishlar orqali qiyoslanadigan tushunchalar istiora (metafora) va metonimiyalarga qaraganda kitobxon uchun oson qabul qilinadi va soddaroq tasavvur qoldiradi. Atrof muxitdagi narsa va hodisalarda mavjud bo'lgan umumiy belgi, xususiyatlarni ilg'ay oladigan va ulardagi eng nozik farqlarni ham his qila oladigan yozuvchi o'xshatishlardan unumli foydalana oladi. Binobarin, o'xshatishlar yozuvchining obrazli fikrlash darajasini ham ko'rsatadi.¹

Ushbu stilistik usulning mohiyati uning nomidan kelib chiqadi. Hodisa yoki voqelikning xar-xil bo'lagiga tegishli ikki tushuncha bir-biri bilan biron bir xususiyatiga ko'ra taqqoslanadi.

Bunday o'xshatishlar o'zbek tilida a) sifat: *o'xshash, teng*, b) ko'makchilar: *kabi, singari, qadar*; v) bog'lovchilar: *go'yo, go'yoki, xuddi*, g) ravish: *aynan, ye*) affikslar: *-day, -dek, -simon, -ona, omuz, -cha, -asicha, -larcha* ingliz tilida: a) fe'l: *look, like, look seet* b) ravish: *Like*; v) bog'lovchilar: *as, as...as such as, as if (asthouht)* kabi o'xshatish ma'nosini ifodalovchi maxsus til vositalari orqali yuzaga keladi.

Ingliz tilidan o'zbek tiliga o'xshatishning tarjimada berilish yo'llarini ham J.Londonning hikoyalari misolida ko'rib chiqamiz.

Uxshatish ustida so'z borar ekan, shuni ta'kidlash lozimki, o'xshatish, istiora va shu kabi stilistik usullar qatori ikki katta guruxga bo'linadi. Tildagi o'xshatishlarga ko'pincha insondagi biron xususiyat yoki harakat, ma'lum bir hayvondagi xuddi shunday belgilar qiyoslanishini misol qilish mumkin. Shuni

qayd etish kerakki, bunday o'xshatishlar millatlararo xususiyatga ega bo'lib, bir qancha tillarda mavjud.³¹

Bulardan ko'plari frazeologik birlikka aylanib ketgan. J.Londonning "Hayotga muhabbat" va "Meksikalik" hikoyalarida yuqoridagi ta'rifni ifodalovchi o'xshatishlar ko'p qo'llanilgan.

The man watched him go, and though his face was expressionless as ever, his eyes were like the eyes of a wounded deer (Lol.p.16)

O'zbek tilida: *Uning yuzi avvalgidek xech narsani ifodalamasa-da, ko'zlarida yaralangan bugu singari chukur satu aks etdi (Hm.4-bet).*

Ne please his pack on the ground and stalked them as a cat stalks a sparrow (Lol.p.21).

O'zbek tilida: Keyin u yukini yerga kuyib, xuddi chumchuq poylagan mushukdek, kakliklarning orqasidan pisib-o'rmalab bora boshladi (Xm.11-bet).

Ne throw off his pack and went into the rush grass on hands and knees creeching and munching, like some bovine creature (Lol.p.22).

O'zbek tilida: U yukini yerga tashladi-da, xuddi kavsh qaytarayottan molga o'xshab kavshana-kavshana qamishlar orasidan o'rmalab ketdi (Xm.12-bet).

It stood crouched, with tail between its legs, like a miserable and woebegone dog (Lol .p.31).

O'zbek tilida: Bo'ri dumini qisib, xuddi tinkasi qurigan it kabi, boshini quyi solib turardi (Hm.24-bet).

Ne mirth was hoarse and ghastly, like a raven's croak, and the sick wolf groined him, howling lugubriously (Lol.p.32).

O'zbek tilida: U xuddi qarg'aning qag'illashiga o'xshagan bo'g'i ovozda dahshatli qilib kulardi. Kasal bo'ri ham unga jo'r bo'lib xirillagan tovush bilan uvilladi (Xm.25-bet).

It squirmed along the ground like some monstrous (Lol.p.35).

O'zbek tilida: U hech narsani eshitmas, hech narsani tushunmas, qum ustida ulkan qurt singari burilar edi (Hm.25-bet).

³¹ Мукаррамов М. Узбек тилида ўхшатиш. Т., 1976, 16-бет.

They don't love; they threaten; they are savage as a wild tiger's (Mp.89).

O'zbek tilida: Bu ko'zlarda sevgi bo'lishi mumkin emas. Bu ko'zlar qo'rqinchli, yo'lbars ko'zlari kabi dahshatli (M.37-bet).

*Scores of voices took it up until it was like a war chant of wolves *(M.p.108).*

O'zbek tilida: Yuzlab ovozlari, xuddi bo'ri galasidsk, bu sichsiriya kushildi (M.bZ-bet).

Ko'rinib turibdiki, o'xshatishlar xayvondagi ba'zi bir belgilarga qiyoslanib, tabiiy, real tasvir vositasi sifatida qo'llanilgan³². Buning asosida esa, muallifning tasvirlanayotgan narsa va hodisalarga munosabati yotadi. Tarjimon o'xshatishlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga o'girishda uncha qiyinchiliklarga duch kelmagan. U asl nusxadagi o'xshatishlarni o'zbek tilida ham zo'r mahorat bilan bera olgan. Bu esa uning dunyoqarashining kengligi va obrazli fikrlash darajasining yuksakligidan darak beradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, o'xshatish eng ko'p qo'llaniladigan tasviriy vositalardan biri ekan, J.London ham o'zining hikoyalarida bu tasviriy vositadan unumli foydalangan. Buni yuqoridagi va quyidagi misollardan ko'rishimiz mumkin.

Bir guruxga taaluqli bo'lgan ikki narsani qiyoslayotganidagi o'xshatishni farqlab olish kerak. Bu holda ular o'rtasidagi o'xshashlik darajasi yoki farq shakllanadi.

Masalan:

" / feel like a child before him " Ramos confessed (M.p.90).

O'zbek tilida: *Uning sarshisida men o'zimni kichkina boladek his qilaman, - deb bo'yniga oldi Ramos (M.38-bet).*

The skin was white as a woman's and as smooth (M.p. 104).

O'zbek tilida: *Uning terisi xotinlarnikidek oppots va sillu (M. 57-bet).*

Birinchi gapda yoshi katta odam yosh bola bilan qiyoslangan. Unda Ramos Riveraning o'zini kattalardek tutish va akliligidan o'zini kichkina boladek his

³² Бобохонова Л.Т. Инглиз тили стилистикаси. Т.: Ўқитувчи, 1995, 69-бет

qilishini aytadi. Keyingi gapda esa, hikoyatning yetakchi qahramonlaridan biri bokschi Denning kuchli, bakuvvat va soglomligidan terisi ayollarning terisiga qiyoslanganligi tasvirlangan.

J.London hikoyalaridagi o'xshatishlarning tarjimasi asl nusxada tasvirlanganidek o'zbek tilida ham o'zining jonli ifodasini toptan. Sababi tarjimon F.Abdullaev o'xshatishlar tarjimasiga katta e'tibor bilan karagan. Zero, o'xshatishlarning nihoyatda sodda ko'rinish tarjimon e'tiborini chalg'itishi mumkin edi. Ko'rinishidan sodda tuyulgan o'xshatishlar tarjimasiga tarjimon nihoyatda ehtiyotkorlik bilan yondashishi lozim.

O'xshatishlar tarjimasida, avvalo, ularning asoslaridagi qaysi belgilar qiyoslanayotganini, ulardagi asosiy so'zning qanday ko'chma ma'nolari mavjudligini ham bilishi lozim. O'xshatishlar tarjimasida asliyat tilini puxta bilishining o'zi kifoya qilmaydi: Tarjimon asarni o'girishdan oldin muallif ijodining barcha qirralarini, o'sha xalq adabiyoti, urf-odatlarini, har bir mayda detalning ikir-chikirlarigacha o'rganishi zarur. O'xshatishni iloji boricha, uxshatish bilan o'girish kerak. O'xshatishlar tarjimasida asosiy e'tiborni qiyoslanayotgan ob'ektga qaratish lozim; Uxshatishlar tarjimasida fakat ikki tilli lugat bilangina kifoyalanmay, izoxli lugat, ma'lumotlar beruvchi turli kitoblar va boshqa kerakli manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.³³

³³ Фёдоров А.В. Основы общей теории перевода, М.: Высшая школа 1968 стр. 309

III.3. Hikoyalar tarjimasidagi ba'zi bir nomutanosibliklar.

O'zbek adabiyotining bugungi jamolini jahon adabiyoti ulug' vakillarining tarjima qilingan asarlarsiz, izma-iz paydo bo'layotgan yangi badiiy tarjimalarsiz to'la tasavvur qilish qiyin. J.Londonning o'zbek tiliga tarjima qilingan hikoyalari ham tarjimachiligimizning yutuqlaridan biri, deb aytish mumkin.

Tarjimashunos olim V.Kafarovning yozishicha, "Tarjimon o'zining butun hukuqi, majburiyati bilan yozuvchi. Faqat uning majburiyati asl nusxa muallifiga nisbatan ikki baravar ko'p, chunki u o'z ishi uchun ikki xalq oldida javob beradi"³⁴. Bu javobgarlik tarjimonga juda katta mas'uliyat yuklaydi.

Amerika yozuvchisi J.London hikoyalarining o'zbek tilidagi tarjimasi bilan yaqindan tanishish shuni ko'rsatadiki, o'zbek tilshunosligining yetuk vakili, ajoyib tarjimon, professor Fattoh Abdullaev tarjima jarasida o'z imkoniyati va qobiliyati doirasida ajoyib mehnat qilgan. Ingliz tilida so'zlashuvchi xalqqa nisbatan chukur xayrixohlik hamda Amerika yozuvchisiga bo'lgan yuksak hurmat va ehtirom F.Abdullaevni shu qutlug' ishga undagan bo'lsa, ajab emas. Hikoyalarning tarjimasida shunday parchalar borki, kitobxon, beixtiyor ularning tarjimaekanligini unutib qo'yadi muallifning mahoratidan hayrat yoqasini ushlab: J.London hikoyani o'zbek tilida yozmaganmikan, degan xayolga borib qoladi. Tarjimon qalamining sehrli kuchi shunda bo'lsa kerak. Tarjimon shuni J.London o'zbek tilida qanday ifodalangan bo'lardi, deb har bir nuqtani necha marta muloxaza qilib, tafakkur tarozisiga solib ko'rganini tasavvur qilish qiyin emas. Yuqoridagi bobda ko'rib chiqilgan misollar tahlili bunga dalil bo'la oladi.

Ma'lumki, badiiy tarjima tom ma'nodagi ijod namunasi bo'lib, o'zga tilda yaratilgan asarni butun sofligi bilan tarjima qilish san'atdir. Shunday ekan, tarjimon boshqa tilda ijod qilingan asarni o'z ona tili boyliklaridan foydalanib, asar "ruhi"ni saqlagan holda tarjima qilishga intiladi. Albatta, tarjimon to'laqonli tarjimaga erishish uchun asliyat holidagi hodisalarni ona tili qonun qoidalariga muvofiqlashtirish jarayonida gaplar tuzilishini o'zgartirish ba'zan esa so'zlarni tushirib koldirish yoki qo'shishlar kiritishi mumkim. Zero, "tarjima qilishdan

³⁴ Мастерство перевода. (Сборник статей). М., 1971, стр.323.

maqsad ikkinchi tilga soʻzlar tizmasi va gaplar silsilasini koʻchirish emas, balki ularning magʻziga yashirib turgan maʼnoni roʻyobga chiqarishdan iborat"³⁵.

Jek London hikoyalarini oʻzbek tilidagi tarjimasida haqida ran borar ekan, tarjima ishning sifatiga soya solib turgan baʼzi bir nuqsonlardan ham holi emas.

Maʼlumki, har bir xalq oʻziga xos xususiyatlari bilan boshqa xalqlardan ajralib turadi. Masalan, oʻzbek xalqi uy-joy sharoiti, urf-odati, kiyinishi bilan boshqa xalqlardan farq qiladi. Ana shu urf-odat, kiyim-kechak va oʻziga xos soʻzlar tarjima praktikasida qiyinchiliklar keltirib chiqarishi tabiiydir.

Shuni aytib oʻtish kerakki, ijtimoiy-siyosiy hayot tarzi, geografik, muhit, ob-havo sharoiti boshqa qator faktorlar u yoki bu xalqning kiyinish tarziga ham oʻz tasirini koʻrsatadi. Maʼlumki, inglizlar va oʻzbeklar har xil geografik va tarixiy sharoitda yashaydilar. Ularning har biri oʻz tarixiga ega. Bu xalqlarning madaniyati, urf-odatlar, turmush tarzida juda koʻp oʻzgachaliklar mavjud. Shunga bogʻliq ravishda coat - (palto), suit - (kostyum), blouse - (bluzka), skirt - (yubka), jacket - (jaker), sweater - (bluzka), blazer - (kurtka) odat qilishgan. Oʻzbeklar esa *chopon, salla, maxsi, yaktak, belbog, kamzul, duppi, chakmon* kabi kiyimlarni azaldan kiyib yurishga odatlanganlar. Shui lay ekan, tarjimada bir xalqni kiyim-boshlarini ikkinchi xalq kiyim-boshlari bilan almashtirib berish mumkin emas. "Meksikalik" hikoyasida coat soʻzi ishlatilgan (99-bet). U oʻzbekchaga toʻgʻri *palto* deb tarjima qilingan (50-bet). Lekin xuddi shu hikoyada ishlatilgan sweater (104-bet) soʻzi tarjimada umuman oʻz ifodasini topmagan, oʻzbek tiliga u *yaxtak* (57-bet) deb tarjima qilingan. Maʼlumki, sweater - *sviter* - tik yoqali issiq tur koʻylakdir². *Yaxtak* esa - uzun, oldi ochiq erkaklar koʻylagidir.³⁶ Bundan tashqari ularning ikkalasi ham har xil xalqning kiyimi hisoblanadi. Tarjimon bu yerda koʻpol xatoga yoʻl qoʻygan. Bu asl nusxa hamda uning oʻzbek tilidagi variantini oʻqigan kitobxonning koʻziga yaqqol tashlanadi. *Sviter*ni *yaxtak* bilan hech solishtirib ham boʻlmaydi. Chunki *sviter* vodolazka sifat, issiq kiyimdir,

³⁵ Саломов Ф. Тил ва таржима. Тошкент: Фан, 1966, 168-бет.

² Каранг: Русча-ўзбекча луғат. Бош муҳаррир - А.К.Боровков, Т.: Фанлар Академияси нашриёти, 5-том, 42-бет

³⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. З.М.Маъруфов таҳрири остида, 2 томлик М.: Рус тили нашриёти, 1981; 2 том, 478-бет.

yaxtak bo'lsa, yoqasiz oldi ochiq, yozda kiyiladigan erkaklar ko'ylagi. Shunday ekan, tarjimon sweater so'zini bizga ruschadan kirib kelgan sviter so'zi bilan berganda, to'g'riroq bo'lar edi.

"Hayotga muhabbat" hikoyasidagi spruce (17-bet) so'zining ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjimasi oq qaragay bo'ladi. Tarjimon esa uni ruschasiga pixta (6-bet) deb bergan. *Pixta* so'zining o'rniga o'zbekcha ok karaqay deb tarjima qilinganda kitobxonga tushunarliroq bo'lar edi.

Biz tarjimonning ba'zi so'zlar tarjimasida yo'l qo'ygan xatolariga to'xtalib o'tdik. Quyida esa gaplar tarjimasidagi asl nusxaga uncha moe bo'lmagan ba'zi bir nomutanosibliklar haqida so'z yuritamz.

1. ... and he came upon footprints in the soggy moss. They were not his own - he could see that. They must be Bill's, but he could not stop, for the mother ptarmigan was running on. He would catch her first, then he would return and investigate.

O'zbek tilida: Lekin u to'xtab turolmasdi, chunki kaklik tobora undan uzoqlashar edi.

2. Ne was tougher than rawhide, but weak.

O'zbek tilida: *U xuddi iylangan teridek, lekin kuchi kamrots edi* (M.46-bet).

3. *Ne can't hurt you much* (M.r.105).

O'zbek tilida: *U seni judayam dabdala kilib tashlamaydi* (M.58-bet).

Ushbu misollarni tahlil qilishga o'tamiz. Birinchi misol "Hayotga muhabbat" hikoyasidan olingan parcha bo'lib, unda hikoyaning qahramoni odam iz iga duch kelgani, kaklik ketidan quvayotgani, uni tutib, keyin odam izlarini ko'zdan kechirishi haqida so'z boradi. Agar asl nusxa va tarjimani yonma-yon qo'yib solishtirilsa, tarjimonning yuqoridagi, hikoyadan olingan parchada ajratib ko'rsatilgan gapni (o'zbek tilidagi tarjimasi: *Avval u ona kaklikni tutadi, keyin esa saytib odam izlarini ko'zdan kechiradi.* (Z.N.)) tushurib qoldirganini ko'ramiz. Ehtimol, uning uchun bu ran hech qanday ma'no anglatmas, lekin kitobxon hikoyani o'qib turib, oyoq izlarini ko'rib qolsa ham, baribir ona kaklikni ketidan ketdi, izni ko'zdan kechirmay ketaverar ekan-da, degan fikrga kelishi tabiiy.

Chunki hikoyani o'qib chiqqan kitobxon qahramonning hech kimsiz yolg'iz bir o'ziligini, sherigini yo'qotganligini biladi.

Yana shuni aytish kerakki, J.London bu yerda yo'lovchining fikrini ko'chirma gapda bermay ifodalangan. Bu usul (o'ziniki bo'lmagan ko'chirma ran) gapni nihoyatda jonlantiradi. J.London bu usulni ko'p ishlatadi. Tarjimon esa bu gashti o'rinsiz tushirib, fikrni oxiriga yetkazmay xato qilgan. Muallif uslubini tarjimada berishning namunasini bu ran saqlab qolinganda yaqqol ko'rish mumkin bo'lar edi.

Keyingi ran "Meksikalik" hikoyasidan olingan. Tarjima: "*U xuddi iylangan teridek, lekin kuchi kamrots edi*". Asl nusxada: *tougher* - chidamliroq so'zining borligi va tarjimon bu so'zni tushurib qoldirgani ajablanarli hol. Tarjimada *teridek* so'zidan keyin aynan *chidamli* so'zining yetishmayotganligi sezilibturadi. Agar tarjimon bu so'zni tushurib qoldirmaganda, ran asl nusxa matniga moe tarjima qilingan bo'lar edi: *Uxuddi iylaigan teridek chidamli, lekin kuchi kamrots edi* (Z.N.).

Sunggi misol tarjimasi g'alatiroq chiqib qolgan. Gap uslubiy jihatdan noto'g'ri tarjima qilingan. *Judayam dabdala* so'zlarining kelishi odatdan tashqari hol. Uylashimizcha tarjimon: *U seni kup xam shikastlay olmaydi* (Z.N.) variantini qo'llaganida gapning mazmuni asl nusxa bilan hamohang bo'lar edi. Bunday o'zgartirish hamda qisqartirish, tushurib qoldirishlar, tarjimonning beg'araz niyatiga qarshi o'laroq, asar mazmunini qambag'allashtiradi, muallif uslubini u yoki bu darajada nursizlantiradi.

J.London hikoyalaridagi ba'zi bir nomutanosibliklarni tahlil qilar ekanmiz, aytish kerakki, bu juz'iy nuqsonlar, tarjimaning umumiy kuch-qudratiga ta'sir qilishga o'zlashtirish qiladi. Ularni qayta nashrlarda, zarur topilsa, osonlikcha tuzatish mumkin.

V.G.Belinskiy tili bilan aytganda, "asl nusxaning ruhi, bisotini aks ettiradigan tarjima uchun kurashish kerak"³⁷. Yozuvchi tasvirlagan hayotni real ko'rsatish uchun tarjimondan asar ruhiga kirib borish talab qilinadi. Buning uchun

³⁷ Белинский В.Г. Поли. Собр.Соч., IX.М., 1995, стр. 369-370

asl nusxa tilini bilish su v va havoday zarur. F.Abdullaev ana shunday tarjimonlardan, deb ayta olamiz, chunki o'sha davrda ingliz tilidan bevosita o'zbek tiliga tarjima qilganlar ikkita bo'lsa biri F.Abdullaev bo'lgan. Uning bu ishga qo'rqmay qo'l urganidan, uning jasoratli, ulkan mahorat sohibi ekanligini chu kur his qilamiz, uning san'atiga qoyil qolamiz.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida tilga olingan juz'iy nuqsonlar tarjima saviyasini pasaytirmaydi. Yutuqlar bor joyda, kamchilik, bahslar bo'lishi tabiiy. Aytib o'tilgan bu fikrlar kelajakdagi tarjima asarlar saviyasini yanada yaxshilashga yordam beradi, degan umiddamiz.

X U L O S A

Badiiy asarlar tarjimasini xalqlarining o'zaro aloqasini mustahkamlaydi, bir xalq tomonidan yaratilgan madaniy merosni ikkinchi xalqqa tanishtiradi. O'zbekistonda tarjimachilik o'z an'analariga ega shakllangan soha sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Ildan-yilga uning ko'lemi kengayib, tarjima qilinayotgan asarlar soni tobora ortib bormoqda. Lekin shu bilan birga, bu sohada mavjud aksariyat kamchiliklar o'zining amaliy yechimini to'la topmagan. Jahon adabiyotidagi asarlar bevosita ular yozilgan asl tildan emas, balki vositachi tillar asosida o'zbek tiliga tarjima qilingani va ayrim hollarda hamon qilinayotgani asosiy kamchiliklardan hisoblanadi. Hozirgi kunda tarjimonlarimiz tinimsiz izlanib, turli mavzularga qo'l urishmoqda. Asl nusxadan tarjima qilish keng ko'lam yozmoqda. Eng e'tiborli jihati tarjimonlarimiz faoliyatidagi mavzu rang-barangligi, erkinligi ularning ijodiyoti ufqlarini yanada kengaytirmoqda. Albatta, bu tarjima qilinayotgan asarlarga va tarjimonlarning faoliyatiga baxo berilganda davr xususiyati va davr talabini e'tiborga olish muhimdir.

Magistrlik dissertatsiyasi "Jek London hikoyalarining ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish muammolari" mavzuida yozildi.

Ilmiy ishni yozishdan maqsad J.London hikoyalari matni tilini o'zbek tilidagi tarjimasini bilan qiyoslash, tahlil qilish hamda tarjimadagi yutuq va ba'zi bir nomutanosibliklarni tahlil qilish edi.

Jek London hikoyalarini ingliz tilidan o'zbek tiliga yetuk tilshunos olim, professor F.Abdullaev tarjima qilgan. Bu XX asrdagi bevosita qilingan tarjimalarning birinchi namunalaridan hisoblanadi.

Ilmiy ishni yozishda, faqatgina asl nusxa va uning o'zbek tilidagi tarjimasini qiyoslabgina qolmay, balki uning rus tilidagi nusxasining ham qay darajada muqobilligini tadqiq etdik.

Birinchi bobda biz tarjima tushunchasi, uning vazifa va muammolari haqida so'z yuritdik. Ikkinchi bob besh bo'limdan iborat bo'lib, unda J.London hikoyalari tilining leksik jihatlarini tahlil qilishga urindik. Uchinchi bob esa J.London

hikoyalarning o'zbek tiliga tarjimasidagi o'ziga xos xususiyatlar - ba'zi bir nomutanosibliklarni tahlil qilib, quyidagi xulosalarga keldik:

1. Butun madaniyat tarixining shohidligicha, har bir xalqning ijtimoiy taraqqiyoti qay darajada ekanligini shu xalqdagi original adabiyotning qanchalik rivojlangani emas, balki shu xalq tiliga o'zga tillardan tarjima qilingan asarlar rivoji ham belgilaydi. Binobarin, tarjima masalalarini umumdavlat ahamiyatiga molik ish deb bilish, tarjimachilikni har tomonlama rivojlantirish choralarini ko'rish katta ahamiyat kasb etadi. Zero, har bir xalqning nafaqat ma'naviy, balki umuman ijtimoiy taraqqiyotini yuksaltirishda tarjimaning xizmati nihoyatda ulugvordir.

2. Kishi ismlari, geografik nomlar va milliy xususiyatlarni aks ettiruvchi so'zlarni tarjima qilishda tarjimon transliteratsiya va transkripsiya yo'llaridan foydalanishi, izohtalab so'zlarga tushuntirish berishi, kitobxonda so'z ketayotgan predmet, voqea-xodisa to'g'risida aniq va mukammal tasavvur hosil qilishi mutlaqo zarurdir.

3. Badiiy tarjimada biror xalqning o'lchov birliklarining noto'g'ri berilishi asardagi maishiy-ijtimoiy voqelikni to'la tasavvur etish imkoniyatini bermay, asl nusxa matniga jiddiy putur yetkazishi mumkin. Tarjimon badiiy asarlarda uchraydigan o'lchov birliklarini tarjima qilishda uning nozik jihatlarini ilgay o'lishi kerak bo'ladi. Badiiy asarlar tarjimasida biror bir xalqning o'lchov birliklarini o'girishda ularning asardagi qo'llanilgan o'rniga qarab quyidagi usullardan foydalanganlar:

1. Uz tillaridagi mavjud ekvivalenta orqali.
2. Funktsional o'xshash varianta bilan.
3. Transliteratsiya yo'li bilan.
4. Xolis-obrazlilik yo'li bilan.

4. Tarjimada muallifning individual uslubini aks ettirishda frazeologizmlar tarjimasining ahamiyati katta; badiiy tarjima tufayli tilning frazeologiyasi boyiydi; badiiy asar tilida ifodalangan milliy ruxni aks ettirishda frazeologiyaning roli katta;

frazologizmlarni buzib tarjima qilish asar tilini nursizlantiradi va uning badiiy qiymatiga putur yetkazadi.

5. O'xshatishlar tarjimasida, avvalo, ularning asoslaridagi qaysi belgilar qiyoslanayotganini, ulardagi asosiy so'zning qanday ko'chma ma'nolari mavjudligini ham bilish lozim. O'xshatishlar tarjimasida asliyat tilini puxta bilishning uzi kifoya qilmaydi: Tarjimon asarni o'girishdan oldin muallif ijodining barcha kirralarini, o'sha xalq adabiyoti, urf-odatlarini, har bir mayda detalning ikir-chikirlarigacha o'rganishi zarur. O'xshatishni iloji boricha, uxshatish bilan o'girish kerak. Uxshatishlar tarjimasida asosiy e'tiborni qiyoslanayotgan ob'ektga qaratish lozim; Uxshatishlar tarjimasida faqat ikki tilli lug'at bilangina kifoyalanmay, izohli lug'at, ma'lumotlar beruvchi turli kitoblar va boshqa kerakli manbalardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

6. YUqorida J.London xikoyalarining o'zbek tiliga tarjimasi tahlilida tilga olingan juz'iy nuqsonlar tarjima saviyasini pasaytirmaydi, uning umumiy kuch kudratiga ta'sir qilishga ojizlik qiladi. Ularni qayta nashrlarda, zarur topilsa, osonlikcha tuzatish mumkin. Yutuqlar bor joyda, kamchilik, bahslar bo'lishi tabiiy.

Aytib o'tilgan bu fikrlar kelajakdagi tarjima asarlar saviyasini yanada yaxshilashga yordam beradi deb o'ylaymiz. Bizning dissertatsiyamiz bo'lajak tarjimalar uchun ko'mak beruvchi ishlar katorida kamtarona xizmat qiladi degan umiddamiz.

SUMMARY

Jack London is one of the outstanding personalities of the American literature. His works are of great interest among readers all over the world. His stories are full of life philosophy and adventure. In the middle of the XX century translations had been done through the mediation of Russian into Uzbek. The translation of J.London's stories was done from the original i.e. from English without mediation of Russian by Uzbek scientist professor Fattoh Abdullaev. That we have chosen J.London's stories as the object of our investigation for our master's paper on the theme: The translation of Jack London's stories from English into Uzbek.

The aim of our master's paper is to analyze compare the Uzbek translation of J.London's stories with its English original. Besides, in some cases we referred to the Russian translation of this stories. While undertaking our research we have selected J.London's two stories: "Love of life" and "Mexican" which filled with colorful characters and adventures that show J.London's love of life, of people, and excitement of reality.

The master's paper consists of introduction, in the main part there are three chapters then conclusion.

The first chapter, named "The meaning of translation, its functions and problems", being theoretical part of the work it includes the analysis and revealing the meaning and functions of translation, its history and development in Uzbekistan during the XX century. The second chapter, named "Lexical features of J.London's stories", undertaken the lexical analysis which are supposed to search personal names, geographical names, words with the expression of national specifics, units of measurement and some stylistic devices such as phraseological units and simile in comparative approach. The third chapter, named "The peculiarities of Uzbek translation of J.London's stories", we have analyzed the specifics and peculiar features of Uzbek translation of J.London's stories. At the end we came to the following conclusions:

1. The social-spiritual development of a certain society is measured by the width of translations from other foreign languages into native one. The development of translation has great significance in the whole progress of state that is why to make arrangements to develop it in all its aspects is very important.

2. During the translation of man's names, geographical names and the words with the expression of national specifics, translator must translate them with the transliteration and transcription. To the words which are hard to understand must be given explanation so that the reader could imagine this subject and matter clearly and generally in his mind.

3 In the translation of works of literature giving the units of measurement wrongly could seriously damage the text of original. Translating the works of literature translators gave the translation of the units of measurement according to their usage in the text and used following ways:

1. By the equivalent which exists in their own language.
2. By the functionally similar variant.
3. By the transliteration.
4. By the objective-figurative way.

4. The translation of phraseological units is of a great importance in expressing writer's individual style. Because of literary translation phraseology of the language enriches. The role of phraseology is great in expressing national spirit. Wrong translation of phraseological units damages the language and value of literary work.

5. In the translation of simile translator must firstly, define the main features of compared objects. To know only the language of the original during translation of simile is not enough. Before starting translation of the literary work translator should learn the author's creation, customs and traditions of that country and each small detail concerning them. Simile must be translated as it possible with the simile. In the translation of simile great attention must be played to the comparing object. For the good results, the influence of using the several dictionaries, informative books and the other sources is important.

6. The influence of above mentioned insignificant discrepancies which exist in the Uzbek translation of the stories are unimportant. It will not decrease its level and can not influence to its power. There are shortages and arguments where the winnings are.

We hope that this suggestion, opinions will help to enrich the level of the future translations of literary works. And also, we hope that our master's paper will make its contribution in the scientific and practical context and find its own place among the others.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A.«Uzbekistan: national independence, economy, policy, ideology»
2. Karimov I.A. "The global financial-economic crisis, ways and measures to overcome it in the conditions of Uzbekistan".
3. Karimov I.A. O'zbekistan XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari vataraqqiyot kafolatlari. T.: O'zbekiston, 1997.
4. Karimov.I.A.Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. T., Ma'naviyat, 2008.
5. Moroxovskiy A. N., Vorobeva O. P., Likosherst N. I., Timoshenko Stilistika angliyskogo yazika. 55-61-betlar.
6. Akhmanova O. S. Linguostylisties. Theory and Method. M., MGU, 1972
7. Anderson W. E. The Written Word. Some Uses of English. Oxford University, 1971
8. Arnold I. V. Stilistika sovremennogo angliyskogo yazika (stilistika dekodirovaniya). M.,
9. Arnold I. V. The English Word. M., Higher School, 1973
10. Ashurova D. U. Lingvisticheskaya priroda xudojestvennogo sravneniya. Avtorefer. k.d. M, 1970
11. Axmanova O. S. O stilisticheskoy differentsiatsii slov. "Sb. statey po yazikoznaniyu". MGU, 1958
12. Azizov O., Rizaev 3. O'zbekcha-ruscha lug'at. T.: O'qituvchi, 1989, 2886.
13. Aznaurov E. S. Ocherki po stilistike slova. T., 1973
14. Bantrop R. Djek London. Chelovek, pisatel, buntar. - M., 1981
15. Baturin V.S. "Vo imya revolyusii...". Rasskazi o D. Londone. - M., 1983
16. Belinskiy V.G. Poli. Sobr. Soch., t. IX. M.,1955.
17. Bikov V., Na rodine Djeka Londona, M., 1962.
18. Bikov V.M. Djek London. - M., 1996
19. Boboeva A. Gazeta stili xakida. T., Fan, 1983
20. Boboxonova L. T. Ingliz tili stilistikasi. T., . Ukituvchi, 1995
21. Boboxonova L.T. Ingliz tili stilistikasi. T.:Uqituvchi, 1995.

22. Bogoslovskiy V. Djek London. V. kn.: "Kurs leksiy po istorii zarubejnix literatur XX veka", M.,
23. Budagov R. A. V zashitu ponyatiya "stil xudojestvennoy literaturi". "Vestnik", MGU. 1962,,№4
24. Buranov J., Muminov A.M. A practical course in English lexicology. T.: O'qituvchi, 1990, 168 p.
25. Crystal D and Davy D. Investigating English Style. London, 1969
26. Dominin K. A. Stilistika frantsuzskogo yazika. L., 1987
27. Fedorov A. V. Ocherki obshey i sopostavitelnoy stilistiki. M., Visshaya
28. Fedorov A.V. Osnovy obshey teorii perevoda (Lingvisticheskie problemy). Izdanie 4-e, M.: Visshaya shkola, 1983, 303 s.
29. Fedorov A.V. Osnovy obshey teorii perevoda (Lingvisticheskiy ocherk). Izdanie 3-e, M.: Visshaya shkola, 1968, 396 s.
30. Fedorov A.V. Vvedenie v teoriyu perevoda (Lingvisticheskie problemy) M., 1958.
31. Fedunov P., Djek London. V.: Djek London, Sochineniya v semi tomax, t. I, M., 1954.
32. Fowler H. W. and Fowler F. G. The King's English. Oxford University Press, 1975
33. Galperin I. R. An Essay in Stylistic Analysis. M., Higher School, 1968
34. Galperin I. R. Ocherki po stilistike angliyskogo yazika. M., ILIYA, 1958
35. Galperin I. R. Rechevie stili i stilisticheskie sredstva yazika, "voprosi yazikoznaniya2, 1954, №
36. Galperin I. R. Stylistics. ML, Higher School, 1977
37. Galperin I. R. K probleme differentsiatsii stiley rechi. V sb. "problemi sovremennoy
38. Galperin I. R. O terine "sleng". Voprosi yazikoznaniya", 1956, № 6
39. Gowers E. The Complete Plain Words. Peguim Books, 1977
40. Greenough Kitteridge. Words and their Ways in English Speech. N.-Y., 1929

41. Hill, Archibald. Poetry and Stylistics. "Essays in Literary Analysis", Austin, 1965
42. Issledovaniya po xudojestvetpyumu perevodu. Sbornik statey. T.: Fan, 1977, 144 s.
43. Kilichev U. E. Uzbek tilining praktik stilistikasi. T., Ukituvchi, 1985
44. Komilov N. Bu qadimiy san'at. "Tarjima san'ati" maqolalar to'plami. T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976,
45. Komissarov V.N. Slovo o perevode. M.: Mejdunarodnye otnosheniya, 1973, 304 s.
46. Komissarov V.N. Teoriya perevoda. M.: Vysshaya shkola, 1990, 253s.
47. Kudratov T., Nafasov T. Lingvistik taxlil. T., Ukituvchi, 1984
48. Kukhareno V. A. Seminars in Style. M., Higher School, 1971
49. Kungurov R. K. Stilistika imeni sushestvitelnogo v Uzbekskom yazike. T., Fan, 1983
50. Kunin A.V. Anglo-russkiy frazeologicheskiy slovar. M.: Russkiy yazыk, 1984, 944 s.
51. Kuprin A.. Zаметка о Джеке Лондоне. В кн.: А. И. Kuprin. Sобрание sochineniy, t. "6, M., 1958.
52. Kuxarenko V. A. Vidi povtorov i ix stilisticheskoe ispolzovanie v proizvedeniyax Dikkensa.
53. Kuznets M. D., Skrebnev Yu. M. Stilistika angliyskogo yazika. L., Uchpedgiz, 1960
54. Leech G. A., Short M. H. Style in Fiction. A Linguistic Introduction to English Fictional Prose. Longmann, 1981
55. Lehtsalu U., Zilv G., Mutt O. An Introduction to English Stylistics. Tartu State University, 1975
56. Leviy I. Iskusstvo perevoda. M.: Progress, 1974, 675 s. N.Levitskaya T.R., Fitman A.M. Problemy perevoda (angliz.). M.: Mejdunarodnye otnosheniya, 1976, 208 s.
57. London D. Rasskaz T.: O'qituvchi, 1984, 560 s.

58. London J. Hayotga muhabbat. T., 1961, 72 b.
59. London J. Short stories. English and American author. M., 1952
60. Lotman Yu. M. Struktura xudojestvennogo teksta. M., Iskustvo, 1970
61. Masterstvo perevoda. (Sbornik statey). M., 1964, str.250.
62. McIntosh, Angus. Some Thought on Style. "Patterns of Language". Ldn, 1966
63. Mukarramov I. Xozirgi uzbek tili adabiy tilining ilmiy stili. T., Fan, 1984
64. Mukarramov M. O'zbek tilida o'xshatish. T., 1976.
65. Murry, J. Middleton. The Problems of Style. Ldn, 1961
66. Musaev, Q. English stylistics. Toshkent, "Adolat", 2003
66. London D. Sobranie sochineniy v 14 tomax. - M., 1976,
67. Muxammadjonova G. Uzbek tili leksikasi tarakdiyotining ba'zi masalalari. T., Fan, 1982
68. Myuller V.K. Anglo-russkiy slovar. M.: Russkiy yazыk, 1985, 865 s.
69. Naer V. L. K opisaniyu funktsionalno-stilevoy sistemi sovremennogo angliyskogo yazika.
70. Naer V. L. Funktsionalnie stili sovremennogo angliyskogo yazika (analiz). M., Izd. MGPIIYA,
71. Nash W. The Language of Humour. Lnd-NY, 1985
72. nashriyoti, 1976, 214-bet.
73. nauchnogo teksta", M., Izd. Nauka, 1981
74. O.Sharafiddinov. Abdulla Qahhor.T., "Yosh gvardiya", 1988.
75. O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 1962, M:5.
76. O'zbek tilining izohli lug'ati. Z.M.Ma'rufov taxriri ostida, 2 tomlik - M.: Rus tili nashriyoti, 1981.
77. Po'latov Yu. Badiiy asarda nomlar tarjimasi. T.: Fan, 1967.
78. Poxodnya V. N. YAzikovie sredstva virajeniya ironii. Kiev, 1989
79. Preface to Critical Reading. N.-Y., 1956
80. Problemi lingvisticheskoy stilistiki. Tezisi dokladov nauchnoy konferentsii v

81. Prokhorova V. L., Soshalskaya E. G. Oral Practice through Stylistic Analysis. M., Higher School, 1 979
82. Rahmatullaev Sh. O'zbek tilining qiskacha frazeologik lug'ati. T.: Fan, 1964,212 6.
83. Read H. English Prose Style. Boston, 1970
84. Retsker Ya.I. Zadachi sopostavitelnogo analiza perevodov (TKP, 45).
85. Riffaterre M. The Stylistic Function. "Proceedings of the Ninth International Congress of Linguists". The Hague, 1964
86. Russko-angliyskiy slovar. Pod red. O.S.Axmanovoy M.: Russkiy yazyk, 1992, 768 s.Ruscha-o'zbekcha lugat. Bosh muxarrir-A.K.Borovkov, 5 tomlik, T.: Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1955.
87. Salomov F. Tarjima nazariyasiga kirish. T.: Uqituvchi, 1978, 220 b.
88. Salomov F., Komilov N., Juraev K., Otajonov N. Tarjimon mahorati. Toshkent, 1979.
89. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983, 192 b.
90. Salomov G'. Til va tarjima. T.: Fan, 1966, 385.
91. Salomov.G'. Tarjima nazariyasiga asoslari. T.: Uqituvchi, 1983, 2326.
92. Samarin R. Djek London. V kn.: Djek London, Sobranie sochineniy v chetirnadsati tomax, 1.1, M. 1961.
93. Sebeck T. Style in Language. Cambridge, 1960
94. Sharipov J. Badiiy tarjimalar va mohir tarjimonlar. T.: Fan, 1972,2586.
95. Sharipov J. O'zbekistonda tarjima tarixidan. T.: Fan, 1965 484.
96. shkola, 1971
97. Shomaksudov A. Sh., Rasulov I., Kungurov R., Rustamov X. Uzbek tili stilistikasi. T., Uqituvchi, 1983
98. Skrebnev Yu. M. Ocherkteorii stilistiki. Gorkiy, 1975
99. Sodiqov A., Abduazizov A., Irisqulov M. Tilshunoslikka kirish, T.: Uqituvchi, 1981.
100. Soshalskaya E. G., Prokhorova V. L. Stylistic Analysis. M., Higher

School, 1971

101. Stepanov A. V. Osnovnie ponyatiya stilistiki. Izd. MGU, 1966
102. Stoun Irving. Moryak v sedle, M., 1960.
103. Sulaymonov M. Avlodlar estafetasi. "Tarjima san'ati" maqolalar to'plami. T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at
104. Tarjima san'ati. Maqolalar to'plami. 3-kitob. T.: G'ofur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1976, 312 b.
105. Teoriya i kritika isrevoda. (Sbornik statey)L. 1962, 168 s.
106. The Oxford popular dictionary UK.: University 1998.
107. The Oxford-Duden Pictorial English dictionary. Oxford-Moscow 1995.
108. Tixonov. A., Kungurov. R.. Sravneniya v russkom i uzbekskom yazykax, "Respublikanskaya konferensiya po voprosam yazykoznaniya i metodika prepodavaniya inostrannyx yazykov", Alma-Ata, 1964.
109. Turner G. W. Stylistics. Peguin Books, 1975
110. Ullmann, St. Language and Style. Oxford, 1964
111. Ullmann, St. Stylistics and Semantics. In: "Literary Style: A Symposium". Ed. by Seymour Chatman. Oxford University Press, 1971
112. Ullmann, St. Words and their Use. Ldn, 1951
113. V.G.Belinskiy. "Izbrannye filosofskie sochineniya", tom II, Gospolitizdat
114. Vinogradov V. V. O kulture rechi i nepravilnom slovoupotreblenii. "Literaturnaya gazeta", 1951,
115. Vinogradov V. V. Stilistika, teoriya poeticheskoy rechi, poetika. M., 1963
116. Vinokur T. G. Zakonomernosti stilisticheskogo ispolzovaniya yazykovix yedinit. M., 1980
117. Vlaxov S, Florin S. Neperevodimoe v perevode. M., 1980, s. 159.
118. Voprosi differentsiatsii i integratsii. V sb.: "Lingvostilisticheskie osobennosti

119. Voprosy teorii xudojestvennogo perevoda. Sbornik statey. M.: Xudojestvennaya literatura, 1971, 256 s.
120. Warner A. A. Short Guide to English Style. Oxford University Press, 1975
121. Williams C. B. Style and Vocabulary. Ldn, 1970
122. Xojiev A. "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati". T.: O'zbekiston milliy entsiklopediyasi. 2002, 168 b.
123. Yefimov A. I. Stilistika xudojestvennoy rechi. MGU, 1961
124. Yefimov. A.I. "Stilistika russkogo yazyka", M., 1969
125. Zasurskiy Ya.N. Romantika i realizm Djeka Londona. - M., 1984
126. Zverev A.M. Djek London. - M., 1975